

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIKNI
SAQLASH VAZIRLIGI**

TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI

TERMIZ FILIALI

NARKULOV JAHONGIR



**HAMSHIRALIK ISHI
JARAYONIDA
BEMORLARNI
TEKSHIRISH USULLARI**

Termiz -2018

Mundarija

I. Hamshiralik ishining rivojlanish tarixi.....	
1.1. Hamshiralik ishining rivojlanish tarixi.....	
1.2. O'zbekiston Respublikasida Oliy hamshiralik ishining rivojlanish tarixi.....	
1.3. Hamshiralik ishida shaxslararo munosabat	
1.4. Salomatlik kontseptsiyasi. Salomatlikka ta'sir etuvchi omillar.....	
II. Hamshiralik ishida bemorlarni bevosita tekshirish usullari	
2.1. Fizikal tekshirish usullari (STATUS PRAESENS OBEKTIVUS)	
2.2. Hamshiralik ishida bemor holatini baxolash asoslari.....	
2.3. Palpatsiya (palpatio)	
2.4. Tuqillatish (percussion).....	
2.5. Auskultatsiya (auskultasio).....	
III. Nafas a'zolari tizimi kasalliklarida bemorlarni tekshirish usullari.....	
3.1. Nafas a'zolari tizimi xastaliklarida bemorni so'rab-surishtirish (interrogatio).....	
3.2. Nafas tizimi kasalliklarida bemorni umumiy ko'zdan kechirish.....	
3.3. Hamshiralikda fizikal baholash nazariyasi	
3.4. Ko'krak qafasini paypaslash texnikasi.....	
3.5. O'pka perkussiyasi.....	
3.6. O'pka auskultatsiyasi.....	
3.7. Labaratoriya tekshiruvlari	
3.8. Nafas tizimi xastaliklari bor bemorlarni instrumental tekshirish usullari.....	
3.9. Nafas a'zolari tizimi xastaliklari.....	
IV. Yurak-qon tomir tizimi kasalliklari bilan og'riq bemorlarni tekshirish.....	
4.1. Yurak-qon tomir tizimi kasalliklarida bemorni so'rab-surishtirish (interrogatio).....	
4.2. Yurak-qon tomir tizimi kasalliklarida bemorni umumiy ko'zdan kechirish.....	
4.3. Yurakni fizikal baholash	
4.4. Yurakni paypaslash texnikasi.....	
4.5. Yurak perkussiyasi.....	
4.6. Yurak auskultatsiyasi.....	
4.7. Yurak-qon tomir tizimi kasalliklari bor bemorlarni instrumental tekshirish usullari.....	
4.8. Yurak-qon tomir tizimi kasalliklari.....	
V. Ovqat hazm qilish tizimi kasalliklari bilan xastalangan bemorlarni tekshirish ...	

5.1. Ovqat hazm qilish a'zolar tizimi xastaliklarida bemorni so'rab-surishtirish (interrogatio)	
5.2. Hazm a'zolarini umumiy ko'zdan kechirish.....	
5.3. Qorinni fizikal tekshirishning texnikasi.....	
5.4. Qorin bo'shligi a'zolarini paypaslash.....	
5.5. Qorin bo'shligi a'zolari perkussiyasi	
5.6. Qorin bushligi a'zolari auskultatsiyasi	
5.7. Oshqozon –ichak xastaliklarida laborator tekshirish usullari	
5.8. Hazm tizimi xastaliklari bilan og'rigan bemorlarni instrumental tekshirish usullari.....	
5.9. Hazm tizimi xastaliklari.....	
VI. Siydik ajratish tizimi xastaliklari bilan og'rigan bemorlarni tekshirish.....	
6.1. Siydik ajratish tizimi xastaliklarida bemorni so'rab-surishtirish (interrogatio).....	
6.2. Siydik ajratish tizimi xastaliklarida bemorlarni umumiy ko'zdan kechirish.....	
6.3. Siydik ajratish tizimini fizikal tekshirishning texnikasi.....	
6.4. Buyrakni paypaslash.....	
6.5. Buyrak perkussiyasi	
6.6. Siydik ajratish tizimini laborator tekshirish usullari.....	
6.8. Siydik ajratish tizimi xastaliklari bilan og'rigan bemorlarni instrumental tekshirish usullari	
6.9. Siydik ajratish tizimi xastaliklari.....	
Muammoli masalalar.....	216

I. Xamshiralik ishining rivojlanish tarixi

1.1. Hamshiralik ishining rivojlanish tarixi.

Hamshiralik ishini tushunish va o'rganish uchun avvalom bor uning tarixiga nazar solmogimiz lozim. O'tmish tarixda buyuk olimlar xamshiralik ishi xaqida ko'pgina fikrlar bayon qilganlar. Bu qimmatbaxo ma'lumotlar hozirgi yosh avlod uchun, xamshiralik ishini kelib chikish tarixini, uning moxiyatini, o'rgatib, bilim doiralarini yanada kengaytiradi. Tarixda buyuk kishilarning fikri tibbiyotda katta rol o'ynaydi. Shunday ekan biz oldimizga tarix nima uchun kerak degan savolni qo'yishimiz tabiiy. Tarix ko'p sabablarga ko'ra o'rganiladi. Xususan:

1. O'tgan voqealar yoki avlodlarimiz tarixini bilish uchun.
2. Ilgari bo'lib o'tgan hodisalar misolida hozirgi xayotimizni to'g'ri baxolash uchun.
3. Qilingan hatolarni takrorlamaslik uchun.
4. Xozirgi kunda yo'q bo'lib ketgan xalq madaniyatini o'rganish uchun.

«Hamshiralik ishi asoslari» qismidan biz tibbiy sanitar yordamni, ma'naviy, madaniy munosabatlarni bilishimiz mumkin. Insonlarni hamisha bir muammo qiziqtirgan: kasallikni oldini olish va sog'likni saqlash. Bugungi kunda sog'liqni saqlash borasida mamlakatlarda iqtisodiy, madaniy, ma'naviy, jismoniy tomondan yordam berilmoqda. Urf odatlar, insonning tarixiy kelib chikishi, uning siyosatga munosabati urganilmokda.

Tarixda xar qanday inson kasallarga xamda o'z –o'ziga tibbiy yordam berishni o'z zimmasiga olgan. Vaqt o'tishi bilan insonlar zamonaviy yangi usullarni o'ylab topganlar.

«Xamshiralik ishi» sog'likni saqlash va kasallikni oldini olishga qaraganda kechroq paydo bo'lgan.

Birlashgan amirliklar davrida Florens Naytingeyl (1829-1910) xaqida ayniqsa, uning «Xamshiralik ishi» asari bo'yicha ko'p ma'lumotlar bo'lgan.



Xamshiralik ishi faoliyatining asosiy tarixiy kursatgichlari 1831 yildan boshlab Evropaning ba'zi mamlakatlarida, xususan Angliyada xamshiralik ishini kayta islox kilishga kirishilgan. Angliyada yukori tabakali vakillari xamshiralik ishiga uz xissasini kushishni uzining burchi deb bilgan. Ulardan biri Florens Naytingeyl bulib, u Germaniyaning Kayzerverte institutida taxsil olgan. Oliy ukuv yurtini tugatgach Londonning kichik kasalxonasini boshkargan xamda «Xamshiralik ishi» fanidan dars bergan.

U hamshiralar korpusini tashkil qilib, unga raxbarlik qildi. Bu korpus asosan Britaniyalik askarlarga xizmat qursatar edi. Vrach tomonidan kursatilgan turli to'siqlarga qaramasdan, ular o'limni qisqartirish, uz xizmatlarini sidki dildan olib borishga intildilar. Florens 1860 yil 9 iyulda uz guruxiga 15 nafar iktidorli talabalarni o'z maktabiga qabul qilgach, zamonaviy xamshiralik ishi faoliyati rasmiy tus oldi. Ular ukitishning asosiy printsiplariga:

- nazorat qilish (boshchilik qilish qobiliyatiga ega bulgan xamshiralar guruxini tayyorlash)
- ilmiy asoslar (nazariy va amaliy bilimlarni uzluksiz berib borish)
- xamshiralarning shaxsiy xususiyatlari (xamshiralar tanlov asosida qabul qilinib, ularning ma'naviy – axlokiy xususiyatlariga e'tibor berilar edi).

Florens Naytingeylning maktabini tugatgan xar bir shogird «Xamshiralar tayyorlash» dasturining asoschisi xisoblanadi. Xamshiralik ishida Florens Naytingeylning xizmati shundan iboratki, u xamshiralik ishini o'kitishga asos soldi, bu ishni davomchilarini tarbiyalab berdi. Shu bilan birga, sogliqni saqlash tizimida xamshiralar ajralmas zveno ekanligini qursata oldi. U tomonidan xamshiralar qasamyodi xam qabul qilindi

Florensning aytishicha, «Hamshira nafakat tibbiyot yordamchisi, balki bemorlarni parvarish qiluvchidir». Florens Naytingeylning xizmatlari qo'pgina mamlakatlarda foyda keltirgan. U

xamshiralik ishiga asos solar ekan, bemorlarni tezrok va samarali sog'ayishi uchun ularni turmush tarzini urganib, ba'zi savollarga javob izladi.

Hamshiralik ishi tushunchasi mashhur ingliz tibbiyot xamshirasi Florens Naytingeyl tomonidan kiritilgan. U o'zining 1859 yilda parvarish xaqida yozgan kitobida «Xamshiralik ishi-bemor tuzalishi uchun uning atrofida qilinadigan barcha xatti- xarakatlar majmuidir», deb yozgan. Xamshiralik ishi nazariyasi – bu kasallik tabiatidan kelib chikadigan xar bir xususiyatni taxlil kilib, uning atrof muxitga xamda soglikni tiklashga ta'sirlarini chukur urganishdir. 1960-1970 yillarda ishlab chikarilgan kuppina nazariyalar Verdjiniya Xenderson tomonidan keltirilgan bulib, unda xamshiralik ishi faoliyatining barcha vazifalari belgilab berilgan.

Hamshiralalar orasida Verjiniya Xenderson (1955) nazariyasi juda mashxur bulib, unda kayt etilishicha , ayrim shaxslar, bemorlar va soglom kishilarni parvarishlash xamshiraning asosiy vazifasidir va bu vazifa bemorning uz salomatligiga bulgan munosabatini baxolashda etarli darajada kuch , iroda xamda bilimga ega bulgan uz sogligini mustaxkamlash va tiklash uchun bemorga uzi bajara oladigan ishlarni amalga oshirishida yordam berishdan iboratdir.

Xenderson buyicha 14 ta asosiy inson extiyojlari:

1. Yaxshi nafas olish
2. Ovkat iste'mol kilish, etarli darajada suv ichish.
3. Organizmdan axlatni chikarish
4. Xarakatlanish
5. Uxlash, dam olish
6. Kiyinish
7. Tana xaroratini normal kursatgich atrofida saklash.
8. Badan tozaligini saklash
9. Xavfni chetlab utish orkali xavfsizlikni saklash
10. Mulokotda bulish, xis- tuygularni ifodalash
11. O'z karashlariga va fikriga sodik kolish
12. Konikish xosil kiladigan faoliyat olib borish
13. Yokimli faoliyat olib borish
14. O'z salomatligiga doir ma'lumotlarni qidirish.

Sog'lom kishi mustaqil ravishda bunday xayot faoliyatini olib borish imkoniyatiga egadir.

«Hamshira-shifokor» munosabati xam tubdan o'zgarib , hamshiralalar xam shifokordek mas'uliyat, mavqeiga ega bo'ldi. Ular o'rtasidagi munosabat mutanosibligini ta'minladi. Bu xildagi munosabatlar tibbiy xizmatni yaxshilashga samarali ta'sir ko'rsatadi.

Tibbiy xizmat ko'rsatuvchi xar bir a'zo o'zaro bir - birini tushunish, munosabatlar dinamikasida inson salomatligini saqlashga urinmogi lozim. Xar bir tibbiyot xodimi bemorning tezrok sogayishini kuzlab, davo usullarini tanlaydi, albatta. Bu esa , tinimsiz ukishni , ko'prok o'z ustida ishlab bilim doirasini kengaytirishni talab etadi.

O'zaro axborot almashinish , hashiralik talabi standartlarini yaqinlashtirish maqsadida rivojlangan mamlakatlar ish tajribalarini o'rganishni talab etadi.

Bundan shuni xulosa qilamizki , bizdan oldin yashab utgan olimlarning fikri xozirda kuppina yutuklarga erishishga yordam bermokda va bilim asoslarining kuchayishiga sabab bulmokda.

Masalan W.Rentgen tomonidan 1895 yilda kashf etilgan X - nurlari sanoqli mamlakatga tibbiy diagnostik usul sifatida ishlatilgan , lekin uning samaradorligi talaygina mutaxassislar tomonidan tan olingan ..

Xamshiralik ishi uziga xos mustakil ilm va ajoyib san'at bulib, xamshira vazifalari, odam shaxsi, atrof-muxiti va soglik bilan boglik masalalar uniig falsafiy uzagini tashkil kiladi.

Hamshira faoliyatining asosida bemor bilan xamshiraning munosabati yotadi. U bemorning kasalligi tufayli kechirayotgan azob-ukubatlariga xamdard va malxam buladigan gamxur insongina emas, balki uning karindoshi va yakinlari bilan yupatuvchi. suxbat va ilik.

munosabat muxitini tashkil etuvchi shafkat xamshirasidir. Hamshira uz ish faoliyatida turli bemorlarga duch keladi va shuning uchun xam xar bir kasal odamning xastaligi ogir - engilligiga karab, uning psixologiyasi (ruxiy xolati) – dunekarashi, madaniyati, kamgapligi, andishaliligi, asabiyligi va xokazo turfa fazilat va xususiyatlariga karab muomala usullarini ishlab chikishi, bemorni yupatishi, bemor kungliga utiradigan gap topishi va xastalangan yuragiga botadigan xatti-xarakatlarni kilmasligi yoki yarashmaydigan kiliklar bilan «kovun tushurib» kuymasligi, yurish-turishi sokin, mayin va shu bilan bir katorda katiyligi bilan ta'sir kursatish kobiliyatiga ega bulishi kerak.

Bemor va uning yakinlari bilan bulayotgan jarayonda xamshira odobi, xatti-xarakati, aytayotgan gaplari, tovush intonatsiyasi, undagi vazminlik, katiylik va shu bilan bir katorda ilik, yoki muloyim tabassum xam katta axamiyat kasb etadi.

Ma'lumki, insonning salomatligi, kayfiyatining yaxshi me'yorda saklanishi, ruxan tetikligi aksariyat atrof-muxitga, uning ekologik xolatiga, xavoning tozaligiga xamda ijtimoiy, ruxiy jarayonlarining mutanosibligiga boglik.

Odam sogligi uning biron kasallikka chalinganligi bilan emas, atrof-muxit bilan gormonik tarakkiy etishiga karab ulchanadi. Shuningdek, uzgaruvchan muxit bilan kishi vujudining tugri moslashuvi asosiy omillardan biridir.

Hamshiralik ishi fanining maksad va vazifalari odamning sixat salomatligi va muxitning mutanosibligini ta'minlaydi.

Hamshiralik ishining falsafasi zaminida insonga bulgan mexr, uning salomatligini saklash xukuklapini va insoniylik fazilatlarini xurmatlash yotadi. Bunga erishish uchun xamshira yurak xaroratini, bor bilimini, vaktini ayamasligi kerak. U xar doim insonlarga yaxshilik kilishga intilib yashashi va tibbiy kasamyodiga, xalol kasbiy burchiga sodik bulishi lozim.

Tibbiy xamshiralarning xalkaro kengashida kabul kilingan axlokiy kodeks 4 ta asosiy tamoyilni kamrab olgan:

1. Inson sog'ligini muxofaza qilishga yordam berish.
2. Inson kasalliklarining oldini olish (profilaktika) ishlarida faol katnashish.
3. Kasallikka chalingan bemorlarning sog'ligini tiklash.
4. Surunkali xastalangan bemorlarning ogir axvolini engillashtirish kabilardan iborat.

Bu vazifalarni bajarish xamshiralardan jamiyat va xamkasblari oldida katta mas'uliyatni va jasoratni talab kiladi:

1998 yilda tashkil kilingan O'zbekiston O'rta Tibbiy va Farmatsevtika xodimlarining Assotsiatsiyasi qabul kilgan Axloqiyy kodeks (nizom) majmui va Qasamyodi Respublikamizda faoliyat ko'rsatayotgan 250 mingdan ziyod o'rta tibbiyot xodimlari va hamshiralarning kundalik ishlarida dastur-amal vazifasini o'tamokda.

1997 yildan O'zbekiston Respublikasida MDX mamlakatlari ichida birinchi bulib «hamshira» jurnalining chop etilishi urta tibbiyot xodimlarining kasbiy bilim mezonini yukorirok, pogonaga kutardi. Ularning ma'naviy, deontologik va etik nukta nazardan boyishlariga katta xissa kushuvchi bu jurnal kundalik ukuv dasturi vazifasini bajarmokda.

Endi Xamshiralalar uzlarining yuksak minbarlariga ega buldilar. Ularning ovozi, fikr-muloxazalari, dardu nidolari, sevinch-kuvonchlarini fakat ular ishlab turgan poliklinika yoki kasalxona, istiroxatxona yoki muassasa jamoasi, raxbarlarigina emas, butun Uzbekiston biladi.

Biz bunday jurnalga allakachonlardan beri muxtoj edik. Jaxondagi yirik davlatlar katoridan joy olgan, ekologik jixatdan nixoyatda murakkab xududda joylashgan, axolisining yarmidan kupini ukuv yoshidagi bolalar va yoshlar tashkil kiladigan Uzbekiston, albatta, a'lo darajada ishlaydigan xamshiralalar «kushiniga» 3 ga bulishi zarur. Bur narsani kuzda mumayluk: bemor xakimni kunuga fakam bur necha dakika davomida kupadi, fakam bur inson bemor bilan xar doim yonma-yon xamda birga. Bu inson – xamshira. Xamshira vrach kursatgan yuldan bemorni etaklab borib, uni soglomlik tomon kuzatadi.

Shu suzlarni bitayotib, beixtiyor esladikki, xamshira suzining uzi nixoyatda chukur mazmunga ega. U xar birimiz uchun opa yoki singil. Gap shundaki, hamshira ayni vaqtda tibbiyotning rasmiy vakilasi. U vrach bilan bemorni boglab turuvchi va shu sababli davolanish jarayonini bevosita amalga oshiruvchi vositachi, afsungardir. Xakim bemorning dardini tugri aniklab, zarur dori-darmonlarni belgilashi mumkin. Lekin bu kursatmalarning kay tarzda ijro etilishi va binobarin, samarasi xamshiraga boglik.

Hammaga ma'lumki, O'zbekistondagi xamshiralik xizmat madaniyati Shuro yillarida shakllandi. Bu nima degani? Bu degani - Hamshiralik xizmat soxasidagi jilov millatimiz kulida emas edi. Shu boisdan, kupchiligimiz boshka millatlarga orka kilardik ular tazyikida bokimondalik, kemptiklik va norasolik xissi asirida yashadik. Endi u zamonlar o'tdi.

Demak, hamshira oddiy ijrochi emas. U tibbuyot jabxasida millatimizning obrusi vo madaniyamini kursatuvchi vo ayni chogda, uta mas'ul shaxsdir.

Olamning bulaklarini uzaro boglik, bir butun xolda urganadigan fan - falsafa. Shu nukai nazardan karaganda, xar bir kishi, xar bir bemor butu n bir olam. Sog'lom yoki bemor inson bilan kanchalik kup va dikkat bilan suxbatlashar ekansiz, siz uning kanchalik chukur fikrli, cheksiz bilimli, uziga xos xulk va fe'l-atvorga ega kishi ekanligiga ishonch xosil qilasiz. Uning jismoniy azoblari va ruxiy kiynalishlarini bilish esa sizni yanada murakkabrok, muammolar olamiga olib kiradi. Shunday ekan, bemorlik davrining asosiy kismida birga bo'luvchi hamshira xaqiqiy falsafiy fikr yurituvchi, masalaga keng va chukur yondashuvchi mutaxasis bulmogi zarur.

Inson kiyofasiga ega xar bir odamni yaxshi anglash uchun uni urganmok, zarur. Xar bir odam - bir butun olam. Uning jussasi-tanasining barcha kismlari bir-biriga boglik. Xamshira bularni inobatga olishi zarur. Xalkimiz «Molning shoxiga ursang tuyogi zirkiraydi» deydi. Odam esa undan ming barobar murakkabrok.

Hamshiralik ishining etikasi. Hamshira vrach, bemor, oilasi va boshka kishilar bilan bulgan bulgan shaxslararo munosabatlar doirasida ish faoliyatini olib boradi. Shuning uchun xamshira tugri deb xisoblagan narsa boshkalar fikridan fark kilishi mumkin. Bunday xollarda xamshira uz tajribasi va yakkol misollar asosida fikr yurgizishi lozim.

Hamshiraning etika asoslarini urgangandan keyin kasbiy boyliklar va xamshiraning asosiy vazifalari urganiladi.

Hamshira, vrach, oila a'zolari va boshka kishilar o'rtasida vujudga kelgan kelishmovchilik, turli fikrlar munozarasida xamshira kanday uzini tutishini urganish juda muxim. Shuning bilan birga, mijozga karatilgan parvarish nuktai nazardan kelib chikkan xolda kanday qaror qabul qilishi kerakligini bilish lozim.

1.2. Uzbekiston Respublikasida Oliy xamshiralik ishining rivojlanish tarixi

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998- yilda qabul qilingan farmoniga muvofiq, sog'liqni saqlashni qayta isloh qilish davlat dasturi qabul qilindi. Qayta isloh qilishdan maqsad- mamla katda sog'liqni saqlash yuzasidan ma'lum tizimni tashkil qilib, unda aholining salomatligini yaxshilash, fuqarolarga sifatli tibbiy yordam ko'rsatish uchun to'liq konstitutsion huquqlarini ta'minlash hamda ularni ijtimoiy himoyalashni ko'zda tutadi.

Islohotning asosiy vazifalaridan biri-davlatimiz tomonidan to'liq kafolatlangan sifatli tez tibbiy yordamni ko'rsatish, shoshilinch tibbiy xizmatni mustahkamlashni nazarda tutadi. Davlatimiz tomonidan aholiga bepul tibbiy xizmat ko'rsatish ta'minlangan bo'lib bu tibbiyotning boshlang'ich bosqichida olib boriladi. Shu bilan birga pullik xo'jalik hisobidan tibbiy xizmat ko'rsatish masalasi ham ishlab chi-qilgan bo'lib, buni shaxsiy mablag'lar yoki yuridik va jismoniy shaxslar mablag'i hisobidan amalga oshirish ko'zda tutilgan.

Hozirgi davrda tibbiy yordamni tashkil qilish borasida, sifatli tibbiy xodimlarni tayyorlash ko'zda tutilgan bo'lib, zamon talabiga javob beruvchi hamshiralarni tayyorlash vazifasi turadi. Hozirda aholining barcha ehtiyojlarini qondira oladigan malakali hamshira

tayyorlash vazifasi turibdiki, bu hamshiradan mutaxassisligi bo'yicha chuqur ma'lumotga, tibbiy guruhda teng mavqe'ga ega bo'lishni talab etadi. Asosiy maqsadlardan biri - sog'liqni saqlash tizimi oldida turgan muammolarni yechish uchun hozirda yangi tibbiy yordam ko'rsatish usullari ishlab chiqildi.

Bular: Birlamchi yordam ko'rsatishning yangi tizim yaratib isloh qilish (qishloq vrachlar punktlari, shahar vrachlik punktlari, oilaviy poliklinikalar);

Tez va birlamchi tibbiy yordam ko'rsatish jahon standartlariga javob beruvchi maxsus tez yordam ko'rsatish markazlarida o'tkazilishi; Barcha bosqichlarda yuqori malakali vrach bilan birga oliy toifali hamshiralar xizmat ko'rsatishadi.

Isloh qilishning asosiy vazifalaridan biri-davlat tomonidan kafo latlangan sifatli tibbiy xizmat ko'rsatish, shoshilinch tibbiy yordamni mustahkamlash hamda uni xususiy xizmatlar, yuridik va jismoniy shaxslar mablag'lari yordamida amalga oshirishni taqozo etadi.

O'zbekiston Respublikasida 152 mingga yaqin o'rta ma'lumotli hamshiralar, 120 ga yaqin oliy malakali hamshiralar faoliyat ko'rsatib kelmoqda.

1995- yilda Respublikada hamshiralar ishini tashkil qilish uchun maxsus guruh tashkil qilinib milliy faoliyat ko'rsatish rejasi ishlab chiqilgan. Sog'liqni saqlashni isloh qilishda hamshiralik ishining o'rni va ahamiyati benihoya katta. Hozirgi kunda hamshiralik ishining maxsus kordinatsion kengashi faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, uning 25 ta a'zosi bor. Viloyat va tuman kasalxonalarida bosh hakim o'rinbosari maxsus lavozimi joriy qilingan bo'lib, ularda oliy toifali hamshiralar faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Shu bilan birga yetakchi tibbiy hamshira lavozimi ham kiritilgan bo'lib (tibbiyot institutlarini tugatgan hamshiralar uchun) mutaxassisligiga tasnifi, lavozimi belgilangan.

1995- yilda Toshkent shahrida Bosh hamshiralar kengashi o'tka-zilib unda hamshiralik ishi yuzasidan huquqiy-normativ bazalari, ular faoliyatining ahamiyati, o'rni yuzasidan yuzaga kelgan savollar atroflicha o'rganib chiqildi. Profilaktik davolash muassasalarida hamshiralik xizmatini boshqaruvchu lavozimi kiritildi. Bu tashkiliy tadbirlardan maqsad-hamshiralarning jamoatchilik oldida mavqeini yanada ko'tarishdan iboratdir.

2002-yil Toshkent tibbiyot xodimlarining malakasini oshirish instituti qoshida bosh hamshiralar uchun sog'liqni saqlashni tashkil qilish kafedrasini ochildi. Kafedrada hamshiralarning menedjerlik, marketing, liderlik, hamshiralik ishini tashkil qilish yuzasidan ta'lim beriladi. Bundan tashqari hozirda yangi hamshiralik texnologiyalarini tadbiriq qilish yuzasidan ishlar olib borilmoqda. Keyingi yillarda hamshiralarning bemorlarni parvarishi yaxshilanmoqda, ularning bilim darajasi oshib bormoqda. Ularga nisbatan do'stona ishonch bildirish munosabatlari yaxshilanmoqda.

Hamshiralik jarayoni bo'yicha yangi texnologiya loyihasi davolash bo'limlarida boshlanib ketdi.

“Hamshiralik ishi”ni o'qitishni tubdan isloh qilish.

O'zbekiston Respublikasida kadrlarni tayyorlash “Ta'lim to'risidagi” qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” hamda sog'liqni saqlashni isloh qilish davlat dasturiga muvofiq tayyorlangan. Qator islohotlar hamshiralarni tayyorlashda tayanch faoliyati boshlangan bo'lib boshlang'ich ta'lim 9-11 sinflar ma'lumotiga tayanadi. Boshlang'ich uzluksiz ta'lim o'rta maxsus tibbiy ma'lumot bilimlarini olgan hamshira qishloq va shahar vrachlik punktlarida faoliyat ko'rsata oladi. Tibbiy institutlarning oliy hamshiralik bo'limida oliy ma'lumotli hamshiralar tayyorlanadi.

1999-2000 o'quv yilida tibbiyot institutlarida oliy hamshiralik ishi tayyorlash kasb yo'nalishi ochilgan bo'lib, ular 4 yo'nalish bo'yicha: menedjer, tug'ruqxona bloki akusherikasi, tez yordam ko'rsatish bloki, reanimatsiya bo'limi bloki, anesteziologiya.

Uzbekistonda xamshiralarni tayyorlash buyicha ish sifatini yaxshilash maksadida kolledj bazasida ukuv dasturlari mutanosibligini taminlash uchun kafedralarning filiali ochilgan . Kafedra mudiri uslubchi xamkorligida ilgor pedagoglar ish tajribalari yuzasidan kator rejali tadbirlar utkazadi.

Tibbiyot kolledjlari pedagoglari uchun uzluksiz malaka oshirish tizimi ishlab chikarilgan. 2002 yilning noyabr oyida oila tibbiyoti faoliyatini yanada yaxshilash maksadida Respublika miyosida konferentsiya utkazildi. Oila xamshirasining burch va vazifalarini tulik yoritib bergan karor xam kabul kilindi.

Xozirgi paytda O'zbekiston Respublikasida oila xamshiralari faoliyatiga kuprok e'tibor karatilmokda. Jamiyatda soglom turmush tarzini ta'minlash uchun axoli urtasida kupgina tushuntirish ishlari olib borilmokda. Xususan, kupgina yukumli kasalliklarning oldini olish uchun profilaktika ishlarini kandy olib borish lozimligini uktirdilar.

Tibbiy xodimlarni tayyorlash soxasida boshka mamlakatlar ish tajribalarini urganishga xam aloxida urin ajratilgandir.

Xalkaro alokalar

Hamshiralik ishini islox kilishni takomillashtirish borasida xalkaro donorlik tashkilotlari bilan kator tadbirlar (Jaxon banki, Osiyo tiklanish (rivojlanish) banki, YuNISEF, «JICA» Yaponiya agentligi) utkazilib, unda kolledjlarni zarur ukuv va kurgazmali kurollar bilan ta'minlash, xamshiralarning malakasini chet ellarda oshirib borish kuzda tutilmokda.

Mutaxassislik assotsiatsiyalarini rivojlantirish.

Barcha yunalishlar buyicha xamshiralarni kullab- kuvvatlash maksadida Uzbekistonda soglikni saklash doirasida maxsus assotsiatsiya tashkil etilgan bulib, uning filiallari barcha regionlarda faoliyat olib bormokda.

Assotsiatsiya tomonidan ishning samarali kechishini ta'minlash maksadida xozirda barcha kursatgichlarni sifatini , axborot uzatishni yaxshilash, chora tadbirlari olib borilmokda.

Istikbollar

Butun dunyoda xashiralarga katta umidlar bilan karaladi, xamda ularning inson salomatligi yulidagi mexnati davlatning dikkat markazida turadi.

Xozirda xamshiralarning uzokni kura bilish, ishga mas'uliyati xar kungidan kura oshib borishi lozim. Chunki ularning ish sifati jamiyatning rivojlanishiga boglikdir.

1.3. Xamshiralik ishida shaxslararo munosabat .

Biz xammamiz suzlar yordamida muloqot qilamiz. Lekin o'ylab ko'ring, agar biz gapirayotgan suzlar, noverbal xarakterimiz bizning imo-ishoralarimiz bilan tugri kelmasachi?

Noverbal kunikmalar gapirilgan gapning asosiy ma'nosini kursatib beradi. Noverbal signallar suzlarga karaganda kuprok ma'no anglatadi. Siz kundalik xayotingizda aytayotgan gaplaringiz bilan noverbal signallar mos kelishini uz kuzatuvingiz ostiga olishingiz kerak.

Noverbal mulokot kunikmalari kuyidagi yullar bilan namoyon etiladi.

- Suxbatdoshingiz bilan oradagi masofa.
- Bemorni uziga yakin tutish.
- Tana xolati.
- Maxfiylik.
- Kuz orkali mulokot.

Xamshira va bemor munosabati

Tibbiyot deontologiyasi shifokorlarning burchi va odobi xakidagi fan bulib, vrachlar, xamshiralar xamda kichik tibbiy xodimlarning xatti-xarakatini belgilaydigan mafkuraviy va ma'naviy dasturamaldir.

Mazkur risolada biz deontologiyaning ma'lum bir jabxasi bulmish «Hamshira va bemor munosabatlari» xakida suz yuritimiz.

Tibbiyot deontologiyasi xamshiradan avvalo insoniy fazilatlarga ega bulishni takozo etadi. Bu fazilatlar bilimdonlik, odamiylik, jasorat, mexr-shafkat, xushmuomalalik, xalollik, pokizalik, insoflilik, sofdillik, ziyraklik, xozirjavoblik, bosiklik, kamtarlik, izlanuvchanlik, andishalikda kurinadi.

Bemor kasalxonada uz yakinlari va dustlaridan uzokda, kupincha, uzini yolgiz xis etadi, yangi sharoitga moslashishi kiyin buladi, shuning uchun xam xamshira kasallarga e'tibor bilan karab, gamxurlik kursatishi darkor. Bemorni, kupincha, bulimda uchraydigan kamchiliklar: davo muolajalarini uz vakgida bajarilmaganligi, bemorxonalarining sovukligi, ovkatning kechikib kelganlign va x.k. asabiy xolatga olib kelib, uzaro munosabatlarni chigallashtiradi. Bu esa davo natijasiga salbiy ta'sir kursatadi. Bu muammo-lar echimida xamshiraning tutgan urni, vazifasi bekiyosdir.

Tibbiyot olamida vujudga kelgan kuppina muammolarning xal kilinishi xamshiraning vijdoniga, axlokiy madaniyatiga va ma'naviyatiga boglik.

«Ma'naviyat» insonga nixoyatda zarur omil bulib, bu uning kalb kuzgu-sidir. Aynan hamshiralar ma'naviyatli, yukori madaniyatli bulmoklari zarur, chunki ular doimo el orasidadirlar. Ma'lumki, kishi ma'naviyatining asosi bilimdir. Yuksak bilim va malakaga ega bulgan ukuvli xamshira uta intizomli bulib, boshkalarga xam xar ish, xar yumushda ibratli bulsalar yarashadi. Ba'zilar muammolarni joyiga kuyib: «Amakijon, yaxshi uxlab turdingizmi? Kayfiyatlar yaxshimi? Ertalabki dorilarni iste'mol kilib oldingizmi? Kechagidan kura ancha tetiksiz, xudo xoxlasa, yakinda otday bulib ketasiz», -deb yupatadi. Bu ilik suzlardan kasalning chiroyi ochiladi. Ba'zi xamshiralar esa Xali xam yotibsizmi? Kulyuzni yuvdingizmi? Bunday kilsangiz dorining unumi bulmaydi», - deb kupollik kiladi. Bu albatta bemor ruxiyatiga yomon ta'sir kiladi. O'z bemoriga munosabat xam shu buldimi? Kani oddiy ma'naviyat? Kani oddiy odob, intizom tushunchasi? Ba'zan butun bir davo maskanida kator xamshira bulgan xolda birorta xamshira tomirga igna bilan tushish maxoratini bilmaydi. Goxida un turt joyingga igna kadab «tomiringiz kochib ketyapti» deb baxona kiladi. Bu esa asabga tegadi.

Yo deylik, bemorga xukna (klizma) kilish zarur bulib koldi. Darxol «Va-zeliningiz bormi?» - deb suraydi. Yuk desa, chala yuvilgan rezina idishni suvga bir chayib, ishni bajarishaveradi. Bu tugri emas. Hamshira, albatta kerakli narsalarni avvaldan tayyorlab quyishi lozim.

Ayrim xamshiralarda diagnostika xakida tushuncha yuk. Kupincha u «Bemor yomon bulib koldi» degan iborani ishlatadi. Shuningdek, xatto zuluk solishni xam bilmaydi. Naxotki bilim yurti talabalari ukish, urganish davomida tomirga tushish, zuluk solishni urganib olmasa. Bizning nazari-mizda, musikaga yoshdan tanlanganidek, shifokorlik, xamshiralik ishiga xam, kurik-tanlov orkali, alokida mexribon, e'tiborli, insonparvar odamlarni ukishga olish zarur. «Bu erda matematikasi yuk, ekan, kiraveray», -deydi-gan xudbin, uziga ortikcha bino kuygan odamlar tibbiyotga yaroksizdirlar.

Bizningcha, xamshira fakat shifokor aytgan ishni xotirjamgina, loqaydgina bajarishi tugri emas. Xamshira - oddiy ijrochi emas. U o'z shifokori yonida, garchi birovga buyurmasa, xam yana bir shifokorga aylanishi zarur. U - tibbiyot jabxasida millatimizning obrusi va madaniyatini kutaruvchi va ayni chogda uta mas'ul shaxsdir.

Jaxondagi yirik davlatlar katoridan joy olgan, axolisining yarmidan kupini ukuv yoshidagi bolalar va yoshlar tashkil kiladigan O'zbekiston, albatta, alo darajada ishlaydigan xamshiralar

«kushin» iga ega bulishi zarur. Bu «lashkar» xalk, sogligi uchun olib boriladigan sabr-tokat va izchillikni talab kiluvchi jabxalarda asosiy kuchdir. Bir narsani kuzda tutaylik: bemor vrachni kuniga fakat bir necha dakikagina kuradi, xamshira esa tunu-kun bilan doimo yonma-yon. Xamshira vrach kursatmalariga amal kilgan xolda bemorning sogligini tiklashga xarakat kiladi. Kasalxonada ish kizib turgan-da xam, xamma ishlar tugallanib, davolovchilar uy-uylariga ketganlarida, zim-ziyo korongilik tushganda xam bemorning oldida xamrox, va xamdard bulib koluvchi inson - yakkayu-yagona xamshiradir. Xamshira suzining uzi nixoyatda chukur mazmunga ega. Xamshira bir onadan sut emgan, degani. Demak, u xar birimiz uchun tugishgan opa va singil. Gap shundaki, xamshira ayni vaktida tibbiyotning rasmiy vakilasn. U vrach bilan bemorni boglab turuvchi va shu sababli dardini tugri aniklab, zarur dori-darmonlarni belgilashi mumkin. Lekin bu kursatmalarning kay tarzda ijro etilishi va binobarin, samarasi xamshiraga boglik. Xush, xamshira bemor bilan kanday suzlashgani ma'kul: uzokmi yoki kiska? Kasal bilan so'zlashish xajmi kupgina omillarga boglik bulib, xamshiradan juda nozik, uziga xos me'yorni talab etadi. Suxbat davomiyligi va mazmuni bemorning axvoli, uning madaniyat darajasi, fe'l-atvor xusu-siyatlariga bevosita boglikdir. Shunga kura, bemor bilan suxbatla-shayotganda xamshira me'yorni bilishi, kasalning suxbatdan kanday ta'sirlanayotganini sinchkovlik bilan kuzata olishi kerak. Barcha tushun-tirishlar lunda, anik, katiy, bemorlar uchun mutlako tushunarli bulmogi lozim. Ekimli va shirin suz bilan muroja-at kilishda, samimiy tabassumda xamshiraning uz bemorlariga gamxurligi va dikkat-e'tibori ifodalanadi. Birok, xamshiraning dikkat-e'tibori va samimiyligi xufiyona tarzda bu-lmasligi, xamshira bemorning urtadagi yakinlik munosabatlarini suiste'mol kilishiga yul kuymasligi va shunga muvofik uzining xatti-xarakatlarini tar-tibga solishi va bemorning xulk-atvorini kuzatib borishi kerak. Bemor bilan suxbatda uning kechinmalarini engillashtirishga intilish belgilangan dori-darmonlarga karaganda yaxshirok shifobaxsh ta'sir kursatadi xamda bemor tomonidan katta minnatdorchilikka sazovor buladi. Bemorni dikkat bilan tinglay olish kasal xakida zarur ma'lumotga ega bo'lishda yordam beradi. Hamshira ishga kelgani zaxoti o'zining barcha bemorxonalaridan xabar olishi va ish kuni yakunida xech bo'lmaganida juda qisqa muddatga barcha bemorlarining xonasiga qirib chikishi ya'ni muddao bular edi. Bu bemor ruxiyatiga bagoyat ijobiy ta'sir ko'rsatadi: bemorlar o'zlarini bir necha soat davomida hamshiraning uzluksiz kuzatuvi ostida sezadilar, hamshira ana shu vakt ichida o'zlariga xizmat ko'rsatishiga, uning juda ham ziyrak ekanligiga, kun davomida xastalardan bir necha marotaba xabar olishiga ishonch xesil kiladilar.

Erta bilan bemorlar yotadigan xonalarga qilingan tashrif 5-10 dakika davom etsada, bu ular uchun nakadar katta axamiyatga ega.

Tibbiyotda shunday bir ibora bor: «Yaxshi parvarishlangan bemor». Bunda bemorlarning yaxshi jismoniy, gigienik parvarishigina (yaxshi ov-katlanti-rish, joylashtirish, xona xavosini uzgartirish, kiyim-kechak va tu-shak anjom-larining tozaligi va x.k.) emas, avvalo moxirlik bilan olib boril-gan «ruxiy parvarish»: bemorga tugri ma'lumot berilgani, ruxiy axvoli yax-shiligi, asta-sekin tiklanayotganligi, xamshira bilan yaxshi munosabatda ekanligi tushuniladi. Ish kunining boshi va oxirida xamshiralarning palata-lariga kiska muddatli tashrifi davolash muassasalarida «ilik ruxiy iklimning» yaratilishiga asos buladi.

Hamshira bemor bilan uzaro munosabatda bular ekan, kasalning shaxsiy xususiyatlarini, kasallik keltirib chikarishi mumkin bulgan asabiy ta'sir-lanishini, madaniyat darajasini xisobga olishi va albatta shifokor sirini oshkor kilmasligi kerak. Shifokor siri deganda, asosan bemor tugrisidagi ma'lumotlar (bu ma'lumotlarni asosan bemorning uzidan olinadi), kasallik-ning noxush kechishi, psixologik (inson ruxiga) ziyon etkazuvchi tashxis tushuniladi. Tibbiyot xodimining faoliyatida kupincha shunday dollar buladiki, shifokor siri «aldash» bilan boglik, uni «mukaddas yolg'on» deb ataladi. Masalan, kasalligi ulimga olib boradigan bemorga uning kasalligi ogir ekanligini gapirmaslik kerak. O'limi anik bulgan bemorlarga ular sogayib ketishiga umid bildirib aytilgan suzlar ularga tasalli beradi. Kasallikning tarzi va uning kanday tugashi xakidagi ma'lumotlarnigina emas, shu bilan birga bemorlarning xufiyona xayoti xakidagi ma'lumotlarni

xam oshkor kilib bulmaydi, chunki bu xol ularga kushimcha azob-ukubat keltirishi va shifokor, xamshiraga bulgan ishonchga putur etkazishi mumkin.

Tibbiyot xamshirasi bemorga uning xakikiy tashxisini ma'lum kilishi yoki kilmasligi xakida fikr yuritishi zarur. Agar xamshira bemorga tashxisni bildirishga karor kilsa, uning boskichini, asoratlarni engil shaklda, bemorni asta-sekin tayyorlagan xolda boskichma-boskich aytishni uylab kurishi kerak. Tabiiyki, bemorga xamma narsani gapirib bulmaydi, lekin ziyoli, tushunadi-gan kishi bilan «sukut saklash» yoki ikkilanish, foydadan kura, kuprok, zarar keltiradi.

Bir kator kasalliklarda, jumladan, zararli usmalari bulgan xastalarga tashxis ma'lum kilinmaydi, onkologiya shifoxonasiga kelgan kasal uzidagi shishning «yomon» yoki «yaxshi» ekanligini aniklash iztirobini boshdan kechiradi va tabiiyki, buni vrachdan yoki xamshiradan surab bilishga xarakat kiladi. Onkologik kasallikka uchragan bemorlar psixikasi juda nozik va ta'sirchan buladi, bu xol, ayniksa, kasallikning yakinlashib kelayotgan okibatini xis kilganda namoyon buladi. Bunday sharoitda xamshiraning baland ovoz chikarib gaplashishi, kax-kaxa bilan kulishi bemorni ruxiy muvozanatdan chika-rib yuborishi mumkin. Bemorlarga tashxis, davolash, kasallikning asoratlari va kaytalashlari oldini olish bilan boglik bulgan kuppina ma'lumotlar bildiriladi, uz-uzidan yordam berish yullari kursatilib, maxsus eslatmalar bilan ta'minlanadi. Masalan, oddiy misol - kandli diabet kasalligini moxiyatini xamshira fakatgina tushuntirmay, balki - diabegga karshi parxez, in'ektsiyalarni bajarish texnikasini urgatishi, turli xil insulinlar va ichiladigan dorilarning xossalari, komadan oldingi xolat belgilari va boshkalar xakida ma'lumot berishi kerak. Shu tarika tushuntirishlar infarktadan keyingi kardioskleroz, xafakon kasalligi, aritmiyalar, oshkozoni-ichak yara kasal-ligi va boshka xastaliklari bulgan bemorlar uchun zarurdir.

Hamshiraning ulim extimoli bulgan ogir bemor tushagi yonidagi xatti-xarakatlari tibbiyot deontologiyasining muxim va mushkul masalasi bulib kelmokda. Masalan. bemorga ulim ex,timolini ma'lum kilish yoki kilmaslik, masalasi, agar bu xakda ma'lum kilish kerak bulsa, uni kaysi sharoitda va kay tarzda amalga oshirishdadir. Barcha zamonlarda bu masala mukarrar ravishda manfiy echimga ega bulgan. Buning uchun bir kator keskin asoslar va fikrlar mavjud. Bemorga mutlako najotsiz oxir-okibat tugrisidagi «achchik xakikatni» ma'lum kilish - bu avvalo uning xayotidagi eng muxim narsa-umidini tor-tib olish, oxirgi kunlari va soat-larini zimiston tunga, tubsiz kora jarlik-ka tushishga aylantirishdir. Bunday xollarda xamshira bemor kungliga sogayib ketish umidini solishi va unda kasallikka karshilik kursatish xissiyotini uygotishi zarur.

Hamshira bilan bemor urtasidagi munosabatning yana bir muxim tomo-ni bemorga tayinlangan individual tartib, parxez, dori-darmonlar bilan da-volanishi rejalarini tushuntirish va tugri tashkil etishdan iborat.

Hasrning tanikli olimi Ali Ibn Abbos Axvaziy uzining «Shifokorlar uchun ugitalar» asarida yozganidek, bemorlarni davolash jarayoniga e'tibor berish va davo uchun fakatgina dorilarni emas, balki tugri ovkatlanishni xam kullashga xarakat kilish zarur. Bemorlarga xavfli dorilarni buyurish, xuddi shuningdek, ularni u yoki bu xastalikni davolayotganda bemorlar orasida targib etish mumkin emas. Fakatgina tartib va ma'lum dorilarni kabul kilish, parxez tugrisida batafsil, katiy va ishontira oladigan darajadagi kursatmalarning uzigina emas, balki kayta alokani xam nazorat kilish zarurdir.

Deontologiyada «Yatrogeniya» tushunchasi bor. Bu vrachning yoki xamshira-ning farosatsizligi, nojuya kursatmalari, kupol xatti-xarakatlari, bilim-sizligi va lokaydligi, bir suz bilan aytganda, tibbiyot xodimining aybi bilan paydo bulishi mumkin bulgan yana bir kasallikdir. Bu buyuk tib allo-masi Bukrotning «Rgemum non nosege», ya'ni «Bemorga eng avvalo zarar keltirma» degan deontologik naklning buzilishi okibatidir. Bunday kasallik bugungi kunda uchraydigan xastaliklarning taxminan 10 foizini tashkil kiladi. Bu shifokorlar va xamshiralar orasida xali xam uz deontologik burchini tula tushunib etmaydiganlar borligidan darak beradi. Shuningdek, egrotogeniyalar, ya'ni bir xasta kishiga boshka bir bemor suzining salbiy ta'siri xam mavjud. Shifoxonalarda kupincha ba'zi bir bemorlarning uz xonasidagi xasta kushnisiga ma'lum darajadagi ta'siri sezilib, u ruxni tanglikni, xavotirni keltirib chikaradi. Bunday xolatni, uz fikricha

tibbiyot xod-imlaridan xam chukurrok bilimga ega bulgan, «azaliy» bemorlar keltirib chikarishlari mumkin. Ular, kasalxonaga kelgach, bemorlarga maslaxat va tavsiyalar beradilar. Aksariyat xollarda, uz tinglovchilarini ruxiy tushkunlik xolatiga olib keluvchi kayguli va mash'um «oldindan aytish fikrlari» bilan urtoklashadilar. Bu kabi egrotogeniyalarning oldini olishda aynan xamshiralarning bulim tartibi, bemorlarning ma'lum majburiyatlari, intizomi va bir-birlari bilan uzaro munosabatlari xakida tulik va mon-and axborot berishi, muntazam ravishda utkaziladigan suxbat va xabarlar katta axamiyatga ega. Bu urinda bemorga tanbex berish uslubi singari xusu-siy masala tugrisida tuxtalib utish xam foydadan xoli emas. Tanbex berish zaruriyati, kupchilik xollarda bemor shifoxona rejimi, intizomi, bulim tartibini buzganda yuzaga keladi.

Hamshira bunday xollarda bemor bilan juda ravshan, tushunarli, anik, ishontirib gaplashishi kerak. Bu suxbatning fakat natijasigina muximdir: bemor tanbexni tugri tushunishi va xamshira saboklarini tulik kabul kili-shi lozim. Shu bilan birga, bunday suxbat bemorning axvoliga xech xam yomon tasir kilmasligi darkor. Bemor xamshira bilan ilgaridek mexribon va yakin munosabatda ekanini, yotsirash yoki ziddiyat vujudga kelmaganini sezishi zarur.

Shu tarika, yukori deontologik kuchga ega bulish, xususan, bemorlar bilan munosabatda ukuvli bulish - xamshiralalar faoliyatidagi zaruriy kunikmadir.

Kommunikatsiya asoslari

O'kituvchi suzlash usuli bilan mavzuni tushuntira boshlaydi. Ayrim joylarda psixoterapevtik ta'sir barcha davo turlaridan ustun turadi. Shuning uchun mulokot xamshiralik ishida muxim rol uynaydi. Muomalalik bilimi xamshira uchun bemor bilan uning oilasi, shifokorlar va boshka mutaxassislar bilan birga davolash ishlarini samarali olib borish uchun kerak. Hamshira xushtabiat -liligina, bilimli, madaniyatli muomalasi bilan bemor xamda uning oilasining ishonchini va xurmatini qozonishga sazovor buladi.

Terminlar

Mulokot – o'tayotgan axborotlarning betinim uzatilishi, qabul kiluvchiga o'tib bo'ishi.

Noverbal mulokot (suzsiz) – imo-ishoraga qul va gavda xarakati muomalada bulishi.

Verbal mulokot (so'zli) – bir shaxsdan ikkinchisiga muomala davrida suz bilan uzatiladigan axborot.

Muloqotni 3 turga bo'lish mumkin:

1. Ichki shaxsiy mulokot – insonning uz-uzi bilan fikran mulokoti, rejalar tuzish, rivojlantirish, boshqa inson bilan mulokotga tayyorlanish.

Masalan: Ichki shaxsiy muloqotda uz-uziga eslatish: «Bemorga tomchi usulida dori yuborishni tekshirish kerak: Bu fikrni ogzaki aytmaydi.

2. O'zaro shaxsiy mulokot – 2 va undan ko'prok insonning suxbati. Masalan: Xamshira uz xamkasblari bilan fikr tajriba almashinuvi.

3. Jamoatchilik muloqoti – bir insonning ko'p kishilik guruxi bilan suxbati. To'g'ri muloqot inson bir-birini tushunishiga kuchaytiradi.

Muloqot texnikasi .

Samarali muloqot 5 elementdan tashkil topgan:

- yuboruvchi – ma'lumot yuboruvchisi

- ma'lumot – yuborilgan ma'lumot

- kanal – yuborilayotgan ma'lumot turi (ogzaki, yozma, qo'l xarakati).

- qabul kiluvchi – ma'lumot qaratilgan shaxs

- tasdiqlash – ma'lumot qabul qilinganligi xaqida tasdiq.

To'g'ri savol berish orqali muloqot samarali bo'lishi mumkin.

Savollar «yopiq» bo'lishi mumkin. Bu savollarga qisqa «xa» va «yo'q» javobi oli-nadi. «Ochiq» savollarga nisbatan «yopiq» savollarga to'lik javob olish mumkin. Masalan: «Siz qila olasizmi?», «Siz xoxlaysizmi?», «Sizda bormi?». «Ochiq» savollar: «Aytolmaysizmi?», «Menga ko'rsata olmaysizmi?», «Nima?», «Qachon?», «Qanday?» savol to'g'ri berilsa, muloqot samarasiz bo'ladi.

Tushunmovchilikning sabablari xar xil:

- ma'lumotning berilishi tushunarsiz yoki juda tez yoki juda past.

- ma'lumot berish noto'g'ri olingan (masalan, inson yomon eshitishni yoki yozma ravishda berilgan ma'lumotni o'qiy olmasa).

- yuboruvchi ma'lumotni olganligi yoki tushunganligi xaqida tasdik olmagan.

Verbal muloqotning 2 ta zarur elementi mavjud:

- nima gapirilayotganligi va qanday gapirilayotganligi. Nutk aniq va kiska bo'lishi lozim. Verbal muloqot quyidagi xolatlarda samarali bo'lishi mumkin.

- sekin suzlansa, nutq aniq bu'lsa, oson kiska jummlalar qullansa.

- maxsus terminologiya ko'p ishlatilmasa, bemor uchun terminologiya tushunarsiz bo'lsa, bemor terminologiya mazmunini so'rashga uyaladi va muloqot natijasiz bo'ladi.

- muloqot to'g'ri vaqt tanlansa, bemor xamshira bilan mulqotga xoxishi bulsa.

- sizdagi kayfiyatsizlik bemor bilan muloqotga ta'sir kiladi: gapdagi, so'zdagi tovush. Qayg'urish, farksizlik, qurquv, bemor bilan muloqotda namoyon qilmaslik zarur.

Yozma noverbal muloqotning xamshira uchun axamiyati katta. Bu mulqotda quyidagi ko'rsatkichlar inobatga olinadi:

- toza va chiroyli yozish.

- xarflarning tirik – maydaligiga va rangiga axamiyat berishi zarur.

- xabarnomaga barcha ma'lumotlar kiritilganligi xakida ishonch xosil kilish kerak.

- xatosiz yozishga xarakat qilish ma'qul.

Yozma muloqotning samaraligini bir necha omillari bor:

- uqiy olish

- tushunish

- qo'ra olish

- yozilgan ma'lumotni tushunib olish

Noverbal (so'zsiz) muloqotni ko'z, qul xolati bilan amalga oshirish mumkin. Odam kandy muloqotni tanlashidan qat'iy nazar ma'lumot berila-yotgan odamga tug'ri kelishi kerak. Ma'lumot ishonchli, ma'noli, yukori saviyali bo'lsa, ma'lumot qabul kiluvchi odamning ishonchi ortadi. Ayrimlar ishonch muloqotni agressiv muomala bilan almashtiradilar – bu noto'g'ri. Shuning uchun muloqot ancha uylab, tanlab va qanday ta'sir qilishi xaqida uylash lozim. Bemor bilan suxbatlashishda quyidagi kursatmalarga rioya qilish kerak:

- agar tilingizga kungilsiz suz kelsa, chikib keting,

- bo'lib utgan voqeani xurmat qilgan kishingizga ayting,

- suxbatdoshingizga qiziqish bilan qarash, bemor xamshira qizikishini sezishi lozim.

Muloqot o'rnatish

«Mulokot urnatish» tushunchasi katoriga kommunikatsiyaning asosi bu-lib xizmat kiluvchi xozir bulish sezgisi, eshitish maxorati, kabul kilish maxorati, xavotirni bildira olish, bemorga dilni ocha bilish, uzga karash-larni kabul kilish, birga kaygurish va uzgani xurmat kila bilish tushun-chalari kiradi.

Barcha odamlar mulokot urnatish uchun aynan shu komponentlardan ma'lum darajada boxabar buladilar. Xamshiralalar uchun tushunish va javob kaytarish jaraenidan maksad bemorning «Sir» ini

ochish emas, balki «sir» ni urganish, yani mulokot davomida insonning fe'l-atvorini urganishdan iborat. Bunday xarakterlar orkasidan Siz uzgalar va uzingiz xakida kuprok ma'lumotga ega bulasiz.

Kommunikatsiya - xamshiralik ishining asosidir. Insonni tushunish va u bilan mulokot kilish uchun xurmat va etibor talab kilinadi.

Uzaro mulokot kilish - kommunikatsiyaning asosiy komponentlari: xozir bulish sezgisi, xamshiraning eshitish maxorati, kabul kila olish maxorati, xavotirni bildira olish maxorati, uzga karashlarni kabul kilish, birga kay-gurish, samimiyluk va uzgalarni xurmat kilish.

Xozir bo'lish sezgisi - keng ma'noda uzga odam bilan uchrashuvni bildiradi, bu e'tiborning anik kurinishi bulib, kabul kilish va kizikish-dan iborat.

Esitish maxorati - buning uchun xamshiradan sezgirlik, tushunish, uzga odamni muxokama kilishdan uzini tiyish kabi xis-latlar talab kilinadi. Suz yuritilayotgan mavzuni chukur anglash uchun, shu xis-latlarni uzida rivojlantirish va yuksak darajaga chikarish talab kilinadi. Yaxshi tinglovchi bulish uchun esa butun fikrini uzga odamga jamlash, uz uy-fikrlarini sundira ola bilish kerak.

Xavotirni bilish maxorati - uzga odamga xavotirni bildirish, unga yordam berish kuzda tutiladi. Xamshiralik amaliyotida xavotirni bildirish maxorati muxim omil bulib xisoblanadi. Xamshira uchun bu xislat kup narsani anglatadi va bemor tugrisida tashvish tortish, xol-axvol surash, parvarish kilishni uz ichiga oladi.

Esitish maxorati - buning uchun xamshiradan sezgirlik, tushunish, uzga odamni muxokama kilishdan uzini tiyish kabi xis-latlar talab kilinadi.

Endi eshitish maxoratining bir necha samarali tamoyillarini kurib chikamiz.

- *Gapirishni bas qiling* - bu tugrisida yozish jiddiy emasdek tuyuladi, lekin suxbat davomida bir vaktida birgina odam gapiradi, ikkinchisi esa uni tinglaydi. Butun e'tiborni bemorga karating va uzingizga jalb eting. Uni savollar va muloxazalar bilan chalgitmay, buning urniga bemorga bor gapni suzlab berishga imkoniyat bering.

- *Chalgituvchi omillarning oldini oling* - bu omillar telefon kungiroklari, avtomobil va texnik jixozlar, odamlar shovkini bulishi mumkin. Gazeta ukiyotgan, kulida kalam uynatayotgan, derazadan tashkariga bo-kayotgan va shu kabi mashgulotlar bilan shugullanayotgan odam bilan suxbat kurish kiyin bulsa. Shuning uchun bunday xolatlarining oldini oling.

- suzlayotgan odamdan nigoxingizni olib kochmay.
- gapirayotgan odamga, uning suzlariga sizikishingiz borligini kursating.
- suxbatni asosiy mazmunini ilgab oling.
- insonning kaysi mavzuda gaplashishni istamasligini aniklang.
- bemor uchun kaygurmang.

Bemorning xayollari va xis-tuygularini bashorat kila ola bilish

Bemorning aytgan suzlarigagina emas, balki u ayta olmagan gaplarga xam e'tibor berish kerak.

Barcha ma'lumotlar 3 ta komponentdan iborat.

- *Empirik* - bemor kechinmalari tugrisida ma'lumot beruvchi komponent.
- *Bilishga oid* - bemorni yakindan bilish va uning nimalarga kodirliqi tugrisida ma'lumot beruvchi komponent
- *Affektiv* - bemor nimalarni xis etayotgani yoki kimning ta'siri ostida ekanligi tugrisida ma'lumot beruvchi komponent.

Bu komponentlar xoxlagan kombinatsiyada uchrashi mumkin.

- Fakat empirik komponentdan.
- Fakat bilishga oid komponentdan.
- Fakat affektiv komponentdan.
- Empirik va bilishga oid komponentdan.
- Empirik va affektiv komponentdan
- Bilishga oid va affektiv komponentdan
- Uchchala komponentdan xam.

Asosiy e'tibor, odatda, bemorning xistuygulariga karatiladi, bunda e'tibor bemorni tushunishda xal kiluvchi omil bulib xisoblanadi. Kupchilik muam-molar xis-tuygularga takaladi, kandaydir sabablarga kura bemorga kiyinchilik tugdiradi. Unga yordam berish uchun yoki uni kiynayotgan xis-tuygular-ni anglash uchun ularga konstruktiv yul bilan echim topish lozim. Xamshira shu tuygularni bildirishga imkoniyat berib, ularning batafsil aytilishiga yordam berish kerak.

Bemorning xistuygularini aniklashni xoxlagan xamshira bemorga: «Bu erda xis-tuygular tugrisida gaplashishimizga xech narsa xalakit kilmaydi. Xis-tuygularingizni men bilan baxam kurishingizni xoxlardim. Sizga yordam berishga xarakat kilaman» kabi gaplarni aytishi lozim. Shu paytda xamshira fakat aytilayotgan xistuygulargagina emas, balki ay-tilmayotgan tuygularga xam e'tibor berishi kerak. U bemorni diqqat bilan eshitib, bemor uylayotgan anik bir muammo tugrisida ma'lumot olishi uchun kalit bulib xizmat kiluvchi narsani kidiradi. Bemorning suzlari, kilikla-ri, xarakatlari, imo-ishoralari va mimikasi kalit bulib xizmat kilishi mumkin. Shularning barchasini bir birlikga jamlaganda bemor tugrisida kup narsani aytib berishi mumkin.

Bemorning suxbatda kaysi suzlarni tanlab gapirishi va bu suzlarni kanday aytishi, oxangi, tezligi, ovozning baland-pastligi uning gaplari ostida yotgan xis-tuygularini tushunish uchun kalit bulib xizmat kilishi mumkin.

E'tiborli xamshira suxbat paytida kaysi suzlar gapirilayotganda yoki kaysi suzlarni eshitganda bemor ruxiy, asabiy xarakat kilganini eslab kola-di. Tananing xolati, uning imo-ishoralari, xarakatlari xamshira uchun katta ma'lumot beradi.

Shulardan sung xamshira bemorga: «Men sizni aytmagan fikrlaringiz va xis-tuygularingiz tugrisida shunday fikrdaman. Fikrim tugrimi? Shunday bulsa, nega bu tugrisida gapirmayapsiz? Agar fikrim notugri bulsa, iltimos menga tugrisini ayting» kabi suzlar bilan murojaat kilishi lozim.

Tomirlardan chikkan kon plazmasidagi I omil (fibrinogen) fibringa aylanib koladigan bulgani munosabati bilan tez ivib ko-ladi. Kuyuk kon laxtasi xosil bulib, u shaklli elementlarni tutib turadi, ayni vaktida sarrish tusda buladigan tinik suyuklik ajralib chikadi, kon zardobi deb shuni aytiladi. Ana shuni nazarda tutib tekshirish kon plazmasi bilan olib borilayotgan, masalan I omil mikdori tekshirib kurilayotgan bulsa, konni ivib kolishdan saklash kerakligini esda tutish lozim. Buning uchun toza kuruk probirkaga bir tomchi geparin yoki oksalat eritmasi tomiziladi. Kon sentrifugalanib, plazmasi oxista tortib olinadi.

Zardob olish uchun konni probirkaga kuyilib, probirkaning orzi paxta tampon bilan bekitiladi va laxta xosil bulib, probirka devoridan ajralib tushmagunicha unga tukillatib urib turiladi. Zardob batamom ajralib chikishi uchun probirkani uy temperaturasida 1—2 soat shtativga kuyib kuyiladi. Zardob ajralib tushganidan keyin uni tekshirish uchun kuruk toza pipetka bilan olinadi. Xolodilnikka kuyib kuyilgan zardob 2—3 sutka sakla-nishi mumkin. Zardobni 60° S atrofida temperaturadagi suv xam-momida 30 minut davomida ilitib olingandan keyin (inaktiv-lashtirilgan zardob) yoki ilitmasdan turib (aktiv zardob) tekshiriladi. Umumiy oksilni, oksil fraktsiyalari, bilirubin, elektrolitlar, mochevinani aniklash singari bioximiyaviy analizlar uchun yoki serologik reaksiyalarni (Vasserman reaksiyasi va boshkalarni) kuyib kurish uchun kupincha venadan kon olinadi.

Venoz konni olish uchun avtoklavda sterillangan 5—20-grammli shpritslar, ignalar, pintset va probirkalar bulishi kerak. Markazlashtirilgan usulda sterillangan paketlardagi shpritslar bilan ignalardan xam foyda-laniladi. Shpritslar kupincha distillangan suvda 30—40 minut kaynatish yuli bilan sterillanadi. Shpritslarga kanday karab turish kerakligi yukorida tasvirlab utilgan. Shpritslarni sterillanganidan keyingina spirt yoki dezinfektsiyalovchi eritmada saklash mumkin.

Antiseptik eritmalar bilan sovuk usulda sterillash degan narsani kullinish va shprintsni uzgartirmasdan turib, alishtiriladigan ignalardan foydalanish mumkin emas.

Punktsiya kilishga muljallanayotgan joyning terisi obrabotka kilinadi: yorini ketkizish uchun efir yoki benzin bilan yuvilib, spirtga xullangan steril paxta yoki doka tampon bilan artiladi yoki unga yod nastoykasi suriladi. Qo'llar odatda maxsus xirurgik obrabotkadan utkazilmaydi, lekin shprints bilan ignalar esa gteril pkyatsst bilan ilinadi. Ignani shprints kanyulasiga ham pintset yordamida kiygaziladi. Punktsiya vaktida ignani sterillanmagan biror narsaga, jumladan kulga xam tegib ketmasligiga dikkat bilan karab boriladi. Punktsiya kilishga muljallanayotgan joyning yukoriro-giga rezinka jgut solinadi.

Tekshirish maksadiga karab kon olish texnikasi xar xil bulishi mumkin. Konni ignadan uz-uzicha okib chikayotgan maxalida yoki shprints bilan ignadan tortib olish yuli bilan olish mumkin. Zardob tarkibiy kismlarini tekshirish uchun kon kuruk igna va kuruk shprints bilan laboratoriyadan keltirilgan kuruk probirkaga olinadi. Ignada suv bulishi eritrotsitlarning erib ketishiga olib keli-qshi va tekshirish natijalariga ta'sir kilishi mumkin. Shprintsdan kon probirka devori buylab, kupiklar paydo bulishiga xamda shakl-li elementlar zararlanishiga yul kuymay, asta-sekin kuyib olina-di, chunki shaklli elementlar zararlanadigan bulsa, gemoliz ruy beradi.

Venopunktsiya kilinayotganda maxsus koidalarga amal kilish ke-rakligini esda tutish zarur. Venaga igna sanchilganidan keyin ig-nadan okib chikayotgan konni yigish uchun probirka ignaga turrilab yakin kilib ushlab turiladi. Shprints yordamida kon olinayotgan bulsa, shprintsni ung kulning bosh barmori bilan urta barmori orasiga olib tutib kursatgich barmok bilan kanyulasini bosib turiladi. Igna venaga tushganidan keyin porshenni extiyotlik bilan asta yurgizib, zarur mikdorda kon tortib olinadi. Punktsiya va kon olish vaktida ignaning venadan chikib ketmasligiga dikkat bilan karab borish kerak. Etarli mikdorda konni olib bulgandan keyin jgut echib olinadi, tezgina ignani chikarib olib, igna sanchilgan joyga spirtli paxta bosiladi. Kulni tirsak bukimidan bukir, yukorirok kutariladi (bemorning kukragiga kuyib kuyiladi).

Olinadigan konning mikdori kanday va nechta tek-shirishni utkazib kurish muljallanayotganiga borlik. xar bir tekshirish uchun urta xisobda 0,5—2 ml zardob va bundan 3 baravar kuprok mikdorda kon zarur bula-di, chunki zardob kon xajmining 3 kismini tashkil etadi. Bir nechta tekshirish uchun 7—10 ml kon olinadi. Omil I ni, konning fibrinolitik aktivligini tekshirish, formol sinamasini utkazish va mochevinani aniklash uchun konni aloxida-aloxida probirkalarga olish kerak; omil II (protrombin), geparinga tolerant-lik va rekaltsifikatsiya vaktini aniklash uchun 0,3 ml natriy sitrat bilan birga 3 ml dan, oksillar va oksil fryaktsiyalarini nefelometr (maxsus asbob) bilan aniklashda sitrat bilan birgalikda 3 ml; omil I, fibrinolitik aktivlik va koagulogrammani aniklash uchun 0,5 ml sitrat bilan birga 4,5 ml kon olnadi (probirka muzga kuyib kuyiladi); formol sinamasiga 0,3 ml sitrat bilan 3 ml, kon mochevinasini aniklashga 0,5 ml. sitrat bilan 4,5 ml kon kerak buladi.

Probirkani yaxshisi, sentrifugaga kuyiladigan xi-lini olish kerak, shunda kon laxtasi xosil bulishi kechikadigan bulsa, konning shaklli elementlaripi sentrafugalab olish mumkin buladi. Tekshirish uchun yangi kon talab etiladigan maxallarda kon olishdan avval probirkaga xar 5 ml kongga 0,01 yoki 0,1 ml xisobidan 10% li natriy yoki kaliy oksalat eritmasi yo 0,3 ml natriy sitrat eritmasi kushiladi. Kon olganda uni oksalat bilan 1—2 minut davomida oxista kupik xosil bulishiga yul kuymay aralashtirish kerak (oksa-latli kon). Sitrat kushilgan konni chaykatmasdan, balki probirka orzini barmok bilan bekitib turib, probirkani barmokka tunka-rish yuli bilan aralashtiriladi. Ba'zi tekshirishlar vaktida, masalan, gematokrit sonini aniklash uchun utkazilayotgan tekshirish vaktida kon ivib kolmasligi uchun geparin ishlatiladi —25 ml kongga 1 ml xisobidan 1—2% li geparin eritmasi olinadi. Konni geparin bilan aralashtirish uchun probirkani 1—2 minut davomida chaykatiladi.

Bemorlarni punksiyaga tayorlash

Punktsiya bu tashxis va davo maksadida biron bir bushlikni, azo va tukimalarni teshik igna (yoki troakar) bilan teshishdir. Xamshira kilinadigan punktsiya usulini bilishi, xar bir vaziyatda kerakli asboblarni, boglov va dori vositalarini tayyorlashi xamda uni bajarish vaktida shifokorga yordam berishi kerak.

Plevra punktsiyasi. Plevra bushligida suyuklik yigilib kolganda uni tashxis kuyish maksadida punktsiya kilish zarur buladi. Punktsiyani shifokor bajaradi. Bunda xamshiraning vazifasi asboblarni, bemorni tayyorlash va muolajani bajarish vaktida shifokorga yordam berishdan iborat.

Kerakli ashyolar: 20 ml li shprints, 7—10 sm li igna, 2—5 g li shprints (ogriksizlantirish uchun), 0,5 % li novokain eritmasi, probirka, spirt, yodning spirtagn eritmasi, kolloid va kleynkali flakon, steril paxta sharchalari, steril chuplar, pintset.

Muolaja algoritmi:

1. Plevra punktsiyasini shifokor bajaradi.
2. Xamshira barcha asboblarni, bemorni tayyorlaydi va muolajani bajarish vaktida shifokorga yordam beradi.
3. Muolaja odatda boglov xonasida bajariladi.
4. Bemor stulga teskari utkaziladi, kullari tirsak soxasida bukiladi va tekshiriladigan tomondan karshi tomonga egilish suraladi.
5. Shifokor bemorni kuzdan kechirib va rentgenoskopiyaga asoslanib, teshiladigan joyini tanlaydi.
6. Operatsiya maydoni zararsizlantiriladi, sungra teri, teri ostiga, kovurga plevrasiya novokain yuborish yuli bilan ogriksizlantiriladi.
7. Ogriksizlantirishdan sung teshishga kirishiladi.
8. Xamshira butun muolaja davomida bemorni kuzatishi lozim.
9. Muolajadan sung kerakli parvarishni amalga oshiradi.

Bemorni abdominal punktsiyaga tayyorlash

Abdominal punktsiya — korin bushligini davo va tashxis maksadida tekshirishdir. Punktsiyani boglov yoki muolaja xonasida utkaziladi. Muolajadan 1 kun oldin bemorga tozalov xuknasi kilinadi, bevosita muolajadan oldin bemor kovugini bushatadi.

Kerakli ashyolar: troakar, rezina naycha, kiskich, shprints, yod eritmasi, probirka, steril bint, salfetka, leykoplastir, paxta sochik, togora, novokain eritmasi.

Muolaja algoritmi:

1. Bemorga muolaja xakida axborot beriladi.
2. Xamshira barcha kerakli asboblar va boglov materiallarini tayyorlaydi.
3. 20—30 dakika oldin bemorga teri ostiga promedol kilinadi sung beli atrofi, oyoklarini yopadigan kleynka tushaladi.
4. Suyuklikni yigish uchun oyoklari orasiga togora kuyiladi.
5. Punktsiyani shifokor bajaradi, xamshira bemorni elkasidan ushlab, uning axvolini kuzatadi (teri rangini, tomir urishini, es-xushini va boshka xolatlarni).
6. Muolajadan sung bemor zambilda xonaga olib boriladi.

3.8.Nafas tizimi xastalıkları bor bemorlarni instrumental tekshirish usullari

Rentgenologik tekshirish

Rentgenologik tekshirish rentgenoskopiya (ob'ekt tasvirini ekranda xosil kilish) va rentgenografiya (tekshirilayotgan ob'ekt tasvirini yorurlik sezadigan materialga tushirib, rasmini olish)ni uz ichiga oladi. Rentgen apparati rentgen trubkasi, shtativ, kuchlanish transformatori va yukori voltli transformatoridan iborat bulladi. Shishadan tayyorlanadigan va ballon shaklida

buladigan rentgen trubkasiga ikkita elektrod: katod va anod kavsharlangan. Katodda volfram spiral bor, u transformator yordamida 2500°C ga kadar kizdiriladi. Kizdirish natijasida katoddan ehektronlar uchib chikadi, bular katod bilak anod urtasidagi kuchlanish katta bulgan-ligidan xarakati kuchayib, juda katta tezlik oladi. Elektronlar anod moddasiga urilib, keskin tormozlanadi, shuning natijasida kiska tulkinli elektromagnit nur — rentgen nurlari xosil buladi. Rentgen apparati vrachni shu nurlar ta'siridan saklash uchun ximoya-lovchi sistema bilan ta'minlangan.

Rentgen tomonidan 1896 yilda kashf etilgan shu nurlarning uchta xossasi bor: ular kuzga kurinadigan nurlar mutlako uta olmaydigan jismlar orkali utib ketaveradi va ularga kisman yutilib koladi; ba'zi moddalarning porlashiga (shu'la sochishi, flyuorestsentsiyaga) sabab buladi; fotografik plenka va plastinkalaridagi kumush bro-midini parchalaydi. Bu nurlarning shu xossalari rentgenoskopiya bilan rentgenografiyaga asos buladi. Tananing nurga solib kuri-lishi kerak bulgan kismalari nur manbai bilan ekran orasida turi-shk kerak. Ekran shu'lananuvchi (flyuorestsentsiyalanadigan) modda bilan koplangan kartondir.

Odam organizmidagi turli organlar va sietemalarni rentgenologik yul bilan tekshirish rentgen nurlarining xar xil zichlikdagi muxitlar orkali xar xil darajada utish xossasiga asoslangan. Kanday bulmasin biror organ-ning zichligi nechogli yukori bulsa, rengenoskopiya maxalida ekranga tushadigan yoki rentgenografiya maxalida rentgenogrammaga tushadigan soyasi shuncha kuyukrok buladi.

Odamning tukima va organlari xar xil zichlikda bulib, rentgen nurla-rini xar xil darajada yutadi. Zich jismlar, tanalar xammadan kura katta, yumshok tushima va xavo xammadan kam zichlikka ega buladi. Shu munosabat bilan suyaklar purga solinganda ekranga ancha kora bulib tushsa, tomirlar dastasi, jigar kuyuk soya beradi.

Xavo rentgen nurlarini juda kam yutadi. Shuning uchun ichida xavo buladigan organlar nurga solinganida yorur joylar xosil bu-ladi. Ularning nechorli yorur bulishi xavo mikdoriga borlik: xavo kanchalik kup bulsa, usha joy shunchalik yorur buladi. Suyuklik xam rentgen nurlarini kup yutadi: suyuklikdan tushadngan soya kuyukligi uning mikdoriga turri proporsionaldir.

Odam tanasining kaysi bulimlarida kushni organlar xar xil zichlikda bulib, shu tufayli bu organlarni oson ajratib olishga imkon ochadigan tabiiy kontrastlik yuzaga keladigan bulsa, usha bulimlarni rentgenologik yul bilan tekshirish xammadan kura kuprok ma'lumot beradi. Kukrak kafasi rentgenoskopiya kilin-ganida ana shunday tabiiy rentgenologik kontrast kuriladi, bunda zich buladigan yurak va yirik tomirlar tukimasi ichida xavosi bor, ya'ni zichligi kam buladigan upka bilan uralib turadi, shuningdek skelet rentgenoskopiya kilinganida xam shunday xodisa kuzatiladi, tarkibida mineral tuzlar buladigan zich skelet suyaklari zichligi kamrok buladigan muskullar bilan uralib turadi. Shunday kilib, yurak bilan upkani turridan turri ekranda yoki rentgenogrammada tekshiraverish mumkin. Zichligi jixatidan atrofidagi organ va tukimalardan fark kilmaydigan organ va sietemalarni rentgeno-logik tekshirishga kelganda ish kiyinrok buladi. Bu gap korin bushliri organlari bilan kizilungachni, kalla ichini tekshirishga taaluklidir. Bunday .xollarda sun'iy kontrastlash usulidan foydalaniladi.

Rentgenokonstrast moddalar rentgen nurlari kashf kilinga-nidan keyin kup utmay taklif etilgan. Bu usul - bilan avval xazm organlari tekshiriladigan buldi, keyin boshka organ va sietemalar xam tekshirila boshladi. Rentgenodiagnostikada ishlatiladigan rentgeno-konstrast moddalar ikki gruppaga bulinadi.

1. Nisbiy zichligi yukori buladigan rentgenokonstrast moddalar, bular rentgen nurlarini tutib kolib, tekshirilayotgan organning uning atrofidagi tukimalardan ancha kuyukrok buladigan soyasini tushiradi. Xozirgi vakt da asosan yod va bariy birikmalari kulla-, -niladi.

2. Nisbiy zichligi tekshirilayotgan organdan kam buladigan va rentgen nurlarini oson utkazib yuboradigan rentgenokonstrast moddalar, bu moddalarning rentgen nurlarini shu tarifa oson utkazib yuborishi ular» ning fonidagi boyagi organni kurishga im-kon beradi.

Bularga kislorod, geliy, azot (II)-oksid, karbonat angidrid gazi kiradi. Amalda kisloroddan xammadan kura kuprok foydalaniladi.

Kontrastlash usullari rentgenokonstrast moddaning kay tarika yuborilishiga karab 3 gruppaga bulinadi: 1) rentgenokonstrast mod-da odam tanasining ta-biiy teshiklaridan yuboriladi; 2) rentgeno-konstrast modda kon okimiga yuboriladi; 3) rentgenokonstrast modda turridan turri tukimalarga, organlarga va tutash bushliklarga yuboriladi. Kontrastlash usuli xazm organlarini (kizilungach, me'da, ingichka va yuron nchakni) tekshirish uchun kullaniladi, buning uchun bariy sulfatning suvdagi emulsiyasidan foydalaniladi, bemorga shu emulsiya ichiriladi yoki klizma kilib yuboriladi. Traxeya bilan bronxlar (bronxografiya), kovuk, (tsisto-grafiya), kuks oraliri (mediastinografiya), burim bushliklari (artrografiya), burun oldi bushliklari (ku-shimcha bushliklar) xam shu usul bilan tekshiriladi.

Organizmdagi kuppina kushni organlar bir xil zich-likka ega buladi. Odatdagi rentgenoskopiyada bularning soyalari bir-biriga kushilib ketadi, bu tekshirishning foydasini kamaytirib yuboradi. Lekin shunday xollarda xam tekshirilayotgan organga rentgeno-konstrast modda yuborish yuli bilan shu organ bilan atrofidagi organ xamda tukimalar urtasida rentgen ekrani yoki rentgeno-grammada keskin tafovut xosni k,ilish mumkin. Ichi bush, kovak buladigan organlarga — me'da, ichak, korin bushliriga ba'zan xavo yuboriladi, bu — xavoli organ bilan kushni joylar urtasida kon-trast xosil kilishga imkon beradi.

Organlar kupincha xar xil satxlarda kavat-kavat bulib joy oladi yoki bir-biriga zich takalib turadi. Bunday xollarda nur berilla-digan bulsa, barcha organ-larning kulankasi tushaveradi. Mana shu kulanka bir-biriga zich takalib turgan organlar soyalarinipg kushilib ketishi natijasidir. Masalan, upka nurga solib kurilganda pastki bulimlari uchlaridan kura yorurrok. bulnb kuzga tashlanadi, lekin bunda yorishishning sababi ikkala xolda xam bitta, ya'ni xavodir. Upka uchlarishjg kamrok yorishib kurinishi xavo mnkdoriga borlik bulmasdan, balki elka muskullarining nalingina kavat bulib turishiga xam borlikdir.

Soyalarning ustma-ust tushishiga yul kuymaslik uchun rentgenologii tekshirish kiyshik yoki yonlama proektsialar (yunalishlar) da olib boriladi. Kiyshik proektsiyada tekshirishda nurga solinayotgan joyning katta-kichikligini, shuningdek undagi patologik uzga-rishlarni aniklab olsa buladi. Bu shunga asoslanganki, tasvirlanayotgan organ kattaligi undan ekrangacha bulgan masofaga borlik, nurga solinayotgan ob'ekt ekrandan nechogli uzokda turadigan bulsa, organ soyasi shuncha katta bulib tushadi. Nurga solinayotgan organlarning olgan joylarini aniklash uchun xam turli proektsiyalarda tekshirish usullari kullaniladi.

Rentgenografiya tekshirilayotgan ob'ektning yorurlik sezuvchi materialga (kumush bromidn bilan koplangan plenkaga) tushi-rilgantasvirini olishdan iborat Rentgen nurlari kumush bro-midini parchalaydi. Tananing kaday bulmasin biror kismini rentgenografiya kilish uchun rentgen nuri manbai bilan kurndigan nurlardan ximoyalangan fotomaterial urtasiga surati olinadigan ob'ekt kuyiladi; surati olinayotgan ob'ektning turli muxitlari (xavosi, tukimalari) orkali utib, xar xil darajada susaygan rentgen nurlari kumush bromidiga xar xil ta'sir utkazadi, shuyaga kura fotomaterialda bu birikma xar xil tarzda parchalanadi. Surat olingandan keyin fotoplenka yoki plastinka ochirilib, fiksatsiya kilinadi. Rentgenogrammada zich tukimalar srug, yumshok tukimalar bilak lavo esa kora bulib kurinadi. Rentgenogramma arzimas patolognk uzgarishlarning ancha batafsil tasvirni olish kerak bulgan maxallarda kilinadi. Bunday uzga-rishlar nurga solib kurish vaktida vrach nazaridan chetda kolishi, lekin rentgenogrammada aks etadigan bulishi mumkik. Turli vaktlarda olingan reyatgenogrammalar protsessning dinamikasini urganishga imkon beradi.

Rentgen nurlari fazoda sochnladi, shunga kura nurga solinayotgan joy tasvirining razmerlari tekshirilayotgan ob'ektning chin razmerlaridan katta buladi. Tasvir razmerlarini tekshirilayotgan organning tabniy kattaligiga yaknlashtirish uchun rentgenologik tekshirish paytida organi ekranga yoki plastinkaga yakinrok kilib kuyish zarur. Shunday silingapda soya kontrasti xam anikrok bulib chikadi. Tekshirilaztgan organning katta-kichikligi turrisida ancha anik ma'lumotlar

olyash maksadyada o r t o d i a g r a f i ya kullanyladi. Tasvir olksh uchun nurkiag sochilib tarkalmaydigan, markaziy dastasidan foydalapish kerak. Shu maksadda tekshirilayotgan organ shaklini tushirib olishga imkok beradigan moslama maxsus ekranlardan foydalaniladi.

Flyuorografiya kiska muddatda ommaviy rentgenologik tekshirish olib borishga imkon beradi. Flyuorografiya yordamida olingan rentgenografiya flyuorografiya deb ataladi. Upkada zimdan utayotgan sil protsessini aniklash uchun flyuorografiya keng kullanyladi. Flyuorografiya moxiyat e'tibori bilan shundan iboratki, upkaning ekrandagi rentgen tasviri «FED» apparati bilan rasmga olinadi, keyin esa bu raem filmoskopga kuyilib, tekshirib urganiladi. Bir soat mobaynida 100 ta atrofida surat olish mumkin. Upkaning sil bilan kasallangani topilganida «aniklashtirib beradigan» rentgenogrammalar olinadi.

Xarakat kilib turadigan organlar — yurak, me'da, yirik tomirlar, kovurralar, diafragma funktsiyasi» sungi ynlarda rentgenokimografiya yordamida urganilmokda.

Ko'krak qafasi organlarini rentgenologik yo'l bilan tekshirish

Rentgenoskopiya ko'pchilik hollarda ko'krak qafasi organlarini rentgenologik yul bilan tekshirishning dastlabki boskichi bulib xisob-lanadi. Diagnostni aniklashtirish uchun rentgenografiyadan foydalaniladi.

Nurga solib kurishning asosiy va xammadan kura kuprokraem bulgan metodi bevosita rentgenoskopiya (ortoskopiya)dir. Ortoskopiya deganda tik xolatda turgan bemorni nurga solib kurishni tushunish raem bulgan. Bemor xar xil yunalishda nurga solib kuruladi, ya'ni xar xil proektsiyadan — turri, yonlama va knyshik. proektsiyalardan foydalaniladi. Zarur bulsa, bemorlar yuz tuban, chalkancha, yonboshlab yota oladigan maxallarda ularni yotik, gorizental xolatga kuyib tekshirib kuruladi.

Kukrak kafasi nurga solib karalغانida upka normada yorur may-donlar kurinishida buladi, bularda tomirlar, bronxlarning soyalaridan iborat turlar kuzga tashlanadi. Yorug upka maydonlarini kovurralardan tushadigan kora soyalar kesib utgan buladi. Normal upkaning rentgen tasvirida upkaning chetki tomonlari (periferiyasi) upka ildizidan kura yorugrok, uchlari esa ulardagi xavo katlami yupka xamda kul kamari (elka kamari) ustki kismi muskullarining soyasi ustiga tushib turadigan bulganidan, korarok bulib kurinadi. Odam chukur nafas olganida upkaning pastki bulimlari, ulardagi xavo katlami kalinlashuvi xisobiga yanada yorurrok bulib koladi. Bronxlarning kesmalari kora xoshiyali yorur tugarakchalar kuri-nishida buladi. Upkani rentgenologik yul bilan urganish ba'zi kasalliklarda upka maydonlari tinikligining uzgarib kolishiga asoslangan. Upkada xavo mikdori kupayib kolgan maxallarda upka maydoni tinikligi ortadi. Yorur bulib turadigan joylar emfizema, pnevmosklerozda keng, tarkok bulsa, kaverna, abstsessda cheklakgan buladi. Upkadan xavo sikib chikarilgan va usma, suyuklik bilan almashinib kolgan xollarda upka nakshi tinikligi tarkok yoki chekli ravishda kamayadi yoki yorur buladigan maydonlar korayib kurinadi. Bronx orkali atrofda xavoga tutashib turadigan abstsesslar va sil kavernalari bor maxallarda upkada suyuklik xosil buladi:bu abstsess va kavernalar xoshiyali kora kosachalarga uxshab kuzga tashlanadi, shu kosachalar ichida suyuklik mikdoriga karab xar xil balandlikda buladigan gorizental satx va buning ustida xavo pufagiga turri keladigan yorur joy buladi.


Rentgenografiya kukrak kafasi organlarining axvoliga taallukli bir kancha muxim tafsilotlarni aniklab olishga imkon ochadi, chunki rentgenografiya rentgenoskopiya Karaganda axvolni kuprok oydinlashtirib bera oladi. Rentgenoskopiya mayda uchokli soyalar, upka nakshining ba'zi uzgarishlari va boshkalarni kuz ilgamay kolishi yaumkin. Kukrak kafasi organlarining tula

rentgenologik tekshiruvi rentgenoskopiyani xam, rentgenografiyani xam uz ichiga oladi. Kukrak kafasi rentgenogrammalari turri, yonlanma va kiyshik proektsiyalarda olinadi .

Kukrak kafasi rentgenoskopiyasi bilan rentgenografiyasi upkadagi zichlashib kolgan joylarni (masalan, upka raki yoki silida, zotiljam va boshkalar vaktida) topib olishga, emfizemaday pkaning ortikcha xovo bulib kolganini, ichida xavo bor tuzilmalarni (abstsess, kavernani), upkada biriktiruvchi tukima tortmalari paydo bulgani (pnevmoskleroz), plevra bushligida suyuklik yoki gaz borligini aniklab olishga imkon beradi.

Nafas organlarini rentgenologik yul bilan tekshirish bron-xografiya yordamida olib boriladi, bronxografiya bronxial da-raxtni uning yuliga rentgenokonstrast modda yuborilganidan keyin tekshirishdir. Bronxografiya metodi kuyidagidan iborat. Xalkum anesteziya kilinganidan keyin tekshirilayotgan bronxga kateter orkali rentgenokonstrast modda — yodolipol yuboriladi,

Upka rentgenogrammasi.



keyin esa upka surati olinadi. Bronxografiya bronxoektazlar, usma boryukliginn aniqlab beradi. Brolxo ektazlarda rentgenokonstrast modda bushlikni tuldiribu suratda ularning tasvirini kursatib beradi. Bronx yulshsh bekitnb turgan usma bulsa, bronx tasvnri tuda bulib chikmaydi. Bronx «amputatsiyasi» yoki «chultori» deb shunday xollarni aytiladi. Bronxografnyada yuborilgai rentgenokonstrast o`odda 1—2 kundan keynn surilib ketadi, yutal bilan tashkariga chikarib yuboriladi..

Tomografiya rentgepodagnostikada sungi pillarda juda katta axamiy-atni kasb etdi. Tomografiyada rentgenogrammada butui ob'ektnkng tasviri xosil bulmay,. balki ma'lum bir kavati, shunda xam vrachni kiziqтира-yotgan chukurlikdagi kavatning tasviri xosil buladi. Tomografiya, rentgenstrafiyaning garchi xususiy bir xoli bulsada undai ancha fark kiladi.

Rentgen trubkasi bilan ob'ekt urtasidagi masofani uzgartirib va xar xil satxlardan bir nechta rentgenogramma olib, ketma-ket tushirilgan bir kancha tasvirlar xosnl nilish mumkinki, bularda ob'ekt uzunasiga yoki kundalangiga karab guyo ayrim bulaklarga kesib kuyilgandek bulib chikadi. Tomografiya uchup xozir-bir yula 4—5 ta plenka joylashgan kassetalar kullaniladi, bu—bir nechta kavatlar tasvirini bir yula tushirib olishga imkon beradi.

Tomografiya asosan upkani tekshirishda kullaniladi. Interstitsial fibroz uzgarishlar tagida yoki plevradagi katta-katta tuzilmalar orkasida yashirinib turgan upka raki, kuks oraligi usmasi, kaverna, abstsess,. sil, silikoz bronxoektazlar uning yordamida topib olinadi. Tomografiya kuzga kurinmaydigan bushliklar topografiyasini anik bilib olishga imkon beradi. Uning yordamida kasallangan joylargina emas, balki ularning kanday chukurlikda joylashgani xam aniklanadi.

Bemorlarni bronxografiyaga tayyorlash

Bronxografiya — traxeya va bronxlarning ichki yuzasini kontrast modda bilan tuldirib, rentgenologik tekshirish usulidir.

Bronxografiyaga kursatmalar: turli bronx va upka kasalliklarida patologik jarayonning joylashuvini aniklash, bronxoskopiyada kurishning imkoniyati bulmagan bronxlar yuzasini tekshirish, upkada utkaziladigan jarroxlik muolajasi xajmini aniklash va boshkalar.

Bemorni tayyorlashda quyidagilarga amal kilinadi:

1. Bemor organizmining tarkibida yod tutgan vositalarga javob reaksiyasini aniklash uchun oldindan sinama kuyiladi (bemorga 2—3 kun davomida 1 osh koshikdan kaliy yodidning 3% ti eritmasidan beriladi).
2. Bemorga tekshiruvning maksadi va moxiyatini tushuntiriladi.
3. Yiringli balgam bulganda 3—4 kun tekshiruvdan oldin bronxlarni tozalanadi.
4. Tekshiruvdan 30—60 dakika oldin teri ostiga fenobarbital (0,1 g), atropin sulfat (0,1 %li—1ml), pipolfen (0,025 g) yuborish buyuriladi.

Kerakli anjomlar

Bronxoskop , steril stol, spirt, salfetka , sovun, in`eksion ignalar , kateter, paxta ushlagich, kiskichlap, 0,1%li tremaikain, dikain, 10% li novokain.

Tekshirishning maksadiga karab narkoz yoki maxalliy ogriksizlantirishdan foydalaniladi. Maxalliy ogriksizlantirishga 2% li dikain, 3—5%li novokain eritmalaridan foydalaniladi.

Bronxlarni kontrast modda bilan tuldurish maksadida egiluvchan zondlardan, boshkariladigan kateterlardan foydalaniladi. Tekshiruvni shifokor utkazadi.

3.9. Nafas a'zolari tizimi xastaliklari.

Bronxiial astma.

Bronxial astma – nafas yo'lining surunkali yallig'lanishli kasalligi bo'lib, qaytar bronxial obstruksiya va bronxlar giperreaktivligining ortishi bilan xarakterlanadi. Kasallikning yalliglanishli tabiati har xil omillarning ta'siriga bogliq b'lib, bronx devorining morfologik o'zgarishlari eozinofilli infiltratsiya, kiprikli hilpillovchi epiteliyning disfunktsiyasi va destruksiyasi, qadaqsimon hujayralar va shilli qavatlarning gipertrofiyasi k'yrinishida kuzatiladi. Yallig'lanish jarayonida semiz hujayralar, limfotsitlar, makrofaglar ishtirok etadi. Ta'kidlangan y'zgarishlar mikrotsirkulyatsiyani buzilishiga bronx devori skleroziga va oqibatda bronxospozmni shilliq qavatlarni shishini shakllanishiga shilimshiqni sifati va miqdorini o'zgarishiga olib keladi. Nafas qisishning xuruji o'tkir jadallikda rivojlanadi. O'pka ventilyatsiyasi buziladi. Nafas aktida nafas mushaklarini yuqori elka, ko'krak, qorin mushaklari ishtirok etadi. Nafas chiqarish davomli bo'lib, hansirash ekspirator tipda uchraydi.

Asmatik status.

Tashxis simptomlarga asoslanib qo'yladi.

Ayrim bemorlarda bo'g'ilish xurujidan ilgarigi belgilar-bosh og'rig'i va vazomotor rinit, ko'krak qafasini siqilishi, qichish va boshqalar kuzatiladi. Bronxial astma xurujidan ilgari iztirobli yo'tal bo'ladi. Xurujning boshlanishida bemorni o'zi yo'talni paydo bo'lishi bilan nafasni qiyinlashganligini, nafas chiqarishni qiyinlashib, chq'zilganligini sezadi. Sekin asta bo'g'ilish hissi paydo bo'ladi. Nafas xirillashli, shovqinli bo'ladi. Bemorni yonidan turib ko'krak qafasidagi shovqinlarni distantsion xirillashlarni eshitiladi. Bemor yuqori yelka kamarini maxkamlab, nafas mushaklari ishini yengillatish uchun maxsus vaziyatni egallaydi. Bunda o'mrov usti va osti chuqurchalari botadi, bo'yin qiasqarib chuqur botganday qiyofaga kiradi.

Nafas soni o'zgarmasligi mumkin, ba'zida bradi-, taxipnoe bilan almashinadi. Xuruj yo'talning avjlanishi paytida hamda boshida quyuuq, keyinchalik suyuq balg'am ajralishi bilan tugaydi. Ba'zida balg'am bronxial suyuqlik hoida yo'tal bilan chiqarib tashlanadi.

Xuruj paytida bemorlarni tekshirilganda o'pka emfizemasi belgilarini – ko'krak qafasini kengayganligini, perkussiyada quti tovushini o'pka chegaralari pasayganligini, o'pka ekskursiyasi pasayishini aniqlanadi. Auskultatsiyada vezikulyar nafasning pasayganligini, quruq hushtaksimon, g'ijjillaydigan xarillashlarni nafas chiqarish fazasida eshitiladi.

Bronxial astma xuruji ayrim hollarda astmatik statusga o'tadi yoki bronxial astmaning og'ir darajasida ko'rinadi.

Astmatik status yuqori jadallikdagi bo'g'ilish xurujining kuchayib borishi va odatdagi bronxolitik vositalar yordam bermasligi bilan xarakterlanadi. Bunda yo'tal samarasiz va mahsulotsiz holda kuzatiladi.

Astmatik statusning patogenetik mexanizmida V-adrenergik retseptorlarning funktsional blokadasini, kortikosteroidlarni bekor qilinganda yuzaga keladigan sindrom yoki nafas yo'llarining virusli bakterial zararlanishi yotadi.

Astmatik statusning 3 ta bosqichi farqlanadi: 1 bosqich – bronxial astma xurujining cho'zilishi. Buning farqli xususiyati shuki, bunda beriladigan ksantin guruhidagi vositalarni va simpatomimetiklarni ingalyatsiyasini bronxlarni bo'shashtiruvchi ta'siri pasayib boradi. O'pkani auskultatsiyasida quruq hushtaksimon xirillashlar eshitiladi, buning jadalligi yo'talganda va nafas chiqarganda kuchayadi.

2- bosqichda o'pkaning ayrim qismlarida xirillashlar va nafas shovqinlari yo'qoladi (gung, gapirmaydigan o'pka) bu bronx yo'lining quyuq sekret bilan bekiilib qolishi tufayli sodir bo'ladi. Auskultatsiyada ayrim uchastkalarda ventilyatsiya yaxshi, ayrimlarida yomonlashadi, oqibatda 3 bosqich gipoksik va giperkapnik koma rivojlanadi.

Bemor atrof muhitga befarq bo'ladi, gipoksik koma belgilari zo'rayadi, ketidan nafas va yurak faoliyati to'xtaydi.

Tashxis qo'yish.

Tashxis qo'yishda analitik ma'lumotlarga asoslaniladi: Oilaviy anamnezning xosligi va anamnezida allergik kasalliklar (vazomotor rinit, dermatit, eshakem, Kvinke shishi), o'pkani kasalliklari (surunkali bronxit, tez-tez pnevmoniyaga chalinishi va b.) mavjudligiga va xurujlarni klinik kechishini xosligiga.

Tashxis qo'yishda anamnestic ma'lumotlardan: oilaviy anamnezda moyillik borligiga asoslaniladi. Differentsial tashxis. Yurak astmasidan farqlash kerak. Yurak astmasida bemorni gorizontol holatga o'tkazilganda hansirash keskin kuchayadi, hamma vaqt taxipnoe bilan kechadi. O'pkani tekshirilganda emfizema topilmaydi. Ko'pincha o'pkada pastki bo'laklarda nam xirillashlar eshitiladi, keyinchalik hamma yuzasida paydo bo'ladi. Shuningdek, yurak astmasida bronxlarni devorini va interstitsial to'qimani shishi tufayli quruq xirillashlar eshitiladi. Biroq uni xarakteri o'rta va past tovushli bo'ladi.

Yurakni auskultatsiyasida nuqson melodiyasi, aritmiyani eshitish mumkin. Aralash astma bronxial astma qari kishilarda yurak qon tomir kasalliklari bilan birgalikda rivojlanganda tashxis qo'yishda qiyinchiliklarni tug'diradi.

O'pkaning bir qator surunkali kasalliklari (diffuz pnevmoskleroz, o'pka emfizemasi, bronxoektaz kasalligi, pnevmokonioz, xususan silikoz, o'pka raki)da hansirash zo'rayib boradi. Ekspirator xarakterga ega bo'ladi, bemorni tinch holatda bezovta qiladi, bunday bemorlarni nafasi paytida hushtaksimon xirillashlar aniqlanadi.

Chuqur o'zgarishlari bo'lgan jarayonlarda ularni diffuz pnevmoskleroz bilan asoratlanganida hansirash astmatik xarakterli b'ladi, iztirobli yo'tal bilan qiyin balg'am ajraladi. Astmatik xurujlarni farqlashda anamnez ma'lumotlarni, davolash samaradorligini, balg'am ajralishining bug'ilishini jadalligiga ta'sirini hisobga olish lozim.

Balg'am ajralishi yurak astmasida bemorga engillik bermaydi, u faqat bronxial astmada bemorga biroz engillik beradi. Bug'ilish xuruji mediastinal sindromning og'ir simptomlaridan biri bo'ladi. har xil patologik jarayonlar tufayli bronxni bosilishi va deformatsiyalarida zo'rayib boruvchi hansirash kuzatiladi. Bunda bug'ilish xuruji va sianoz kuchli yo'tal bilan birga keladi.

Katta bronxlarni bosilishi oqibatida stridoroz nafas paydo bo'ladi. Tashxisni ko'ks oralig'i a'zolarini bosilishini belgilariga yuqori kovak vena sindromi bo'yin va ko'krak venalarining

kengayishi, yuz va bo'yin shishi va sianozga asoslanib qo'yiladi. O'pka venalarining bosilishi sindromi (o'pka gipertenziyasi belgilari)ni namoyon bo'lishiga asoslaniladi.

Adashgan nervni bosilishida bradikardiya, ekstrasistoliya, hiqichoq tutishi, qusish, qaytuvchi nervni bosilishida tovushni bug'ilishi, diafragmal nervni bosilishida diafragmani falaji kuzatiladi.

Davolash:

Davolashda bemor uchun qulay sharoit yaratish, uning atrofida tinchlik osoyishtalikni saqlash, issiq holdagi qaynatilgan suvni ichirish muhim. Engil holatlarda bemor bronxial astma xurujini bartaraf qilish uchun ilgari ishlatgan vositalarni qo'llash lozim.

Yengil darajadagi bronxial astma xurujlarida astmaga qarshi tabletka ko'rinishidagi vositalar, eufillin 0,15-0,3g tabletkasi, antastman, teoferin beriladi, biroq salitsilatlarini qabul qilolmaydigan bemorlarda bu ikkala vositani berib bo'lmaydi. Shuningdek, uzaytirilgan noofillinlar – teobid, teopek, eufilong, teodur ham qo'llaniladi.

Aerozol shaklidagi simpatomimetiklar keng qo'llaniladi astmopent (alupent), adrenostimulyatorlar salbutamol, berotek 2 martadan xuruj paytida ingalyatsiya qilinadi.

Ingalyatsiya uchun suyuq vositalar – euspiran – 1% - 0.1-0.2 mldan, novodrin – 1%- 0.8 mldan, izadrin – 0.5%- 1 mldan beriladi.

O'rta va og'ir darajadagi bronxial astmani davolashda mahalliy ta'sir qiluvchi ingalyatsion glyukokortikosteroidlar – beklometazon dipropionat, bekotid, bekodisk, budesonid, ingakort, beklomet, pulmikort, fliksotid muhim o'rin egallaydi.

Qator holatlarda teri ichiga ("limon po'stlog'i" singari) adrenalini eritmasini yuborish foydali bo'ladi. Xurujni davomli bo'lishida shuningdek, og'ir kechishida eufillinni eritmasini vena ichiga yuboriladi. Eufillinni 10 ml dozada venaga yoki 10 ml izotonik natriy xlorid eritmasida suyultirilib venaga yuboriladi, og'ir xurujlarda 200 ml natriy xlorid izotonik eritmasida yoki 5% li glyukozada suyultirilib venaga tomchilab yuboriladi. Ko'p miqdorda balg'am ajralishida (bronxeyada) 0,5 ml – 1% ml atropin yoki 0,2%-1 ml platifillin teri ostiga yuboriladi.

Agar davolash engillik bermasa bu astmatik holatni rivojlanishidan darak beradi. Bunday holatlarda bemorlarni kasalxonaga yotqiziladi.

1.bosqichdagi astmatik statusda 2,4%-10-15ml eufillin eritmasi 200 ml-0,8 ml izotonik natriy xlorid eritmasida suyultirilib yoki 90-120 mg prednizolonni 200 ml natriy xloridni izotonik eritmasida suyultirilib venaga yuboriladi. Dorini har soatda takror yuboriladi. Samara bo'lmasa glyukokortikosteroidlar – prednizolon 10 mg, triamtsinolon, polkortolon, kenakort, urbazon – 8 mgdan, deksametazon 2-4 mgdan beriladi. Vositalar yuqorida ko'rsatilgan dozalarda har 2 soatda balg'am ajralib bemorni ahvoli engillashganiga qadar beriladi. Ko'p miqdorda 1-2 IG`sutka miqdorida suyuqlikni diurezni nazorat qilgan holda beriladi. Bu sodir bo'ladigan degidratatsiya bilan bog'liq bo'ladi, balg'amni qovushqoqligiga ta'sir qiladi. Namlangan kislorod, vibromassaj buyuriladi.

Astmatik ctatusni 2- bosqichida gormonal vositalarni venaga yuboriladi, tabletkalarni 1-2 marta dozasi oshiriladi, eufillin eritmasi venaga yuboriladi. Atsidozga qarshi kurashish uchun 4%-200 ml natriy gidrokarbonat eritmasi venaga yuboriladi.

Suyuqlikni qo'yishni davom ettiriladi, diurez nazorat qilinadi, oksigenoterapiya o'tkaziladi. Astmatik statusni davolashda adrenalini va boshqa simpatomimetiklarni yuborish ta'qiqlanadi, bu "rikosheta" samarasini chaqiradi, bunda bronxospazmni birdaniga kuchayishi V-adrenoretseptorlarni funksional blokadasi bilan bog'liq bo'ladi.

O'tkazilgan davo choralarni samarasi bo'lmaganda, bemorni intensiv terapiya yoki reanimatsiya bo'limiga nafas funksiyasi va yurak qon tomir faoliyatini monitor nazorat qilish uchun hamda o'pkani qo'shimcha ventilyatsiya qilish, bronxoskopik lavaj qilish uchun o'tkazadilar.

Astmatik statusni 3-bosqichida – gipoksik komada reanimatsiya yoki intensiv terapiya bo'limi sharoitida o'pkani sun'iy ventilyatsiya qilish o'tkaziladi. Gormonal vositalarni, bronxolitiklarni yuborish davom ettiriladi, nafas etishmovchiligi, kislotatashqor muvozanatini buzilishi bartaraf qilinadi.

Bemorni umumiy ahvolini yaxshilashini mezonlari bo'lib bo'g' ilish sezgisini pasayishi, balg'amni ajralishini osonlashishi, bemorni xotirjam bo'lishi hisoblanadi. O'pkada quruq xirillashlarni kamayishi, «gapirmaydigan o'pka» bosqichida xirillashlarning paydo bo'lishi bemorni ahvolini yaxshilanganligidan darak beradi.

Bemorni astmatik statusdan chiqargandan so'ng glyukokortikosteroid terapiya boshqa davolash vositalari bilan reja asosida beriladi. Prednizolonni sutkalik dozasi yaqin kunlarda 20-30 mg, triamtsinolon, polkortolon, kenokort, urbazon - 16-20 mg, deksametazon 12-16 mg, 500 ml geparinli (10000 TB geparin) 5% li glyukoza, eufillin 5-6 mgG`kg daqiqa ichida, keyin 0,6 mgG`kgG`soat (chekuvchilarda 0,9 mgG`kgG`soat) dozada ahvoli yaxshilanguniga qadar 2 (gG`sutka)dan ortiq bo'lmagan dozada beriladi.

Prednizolon 1-2 mgG`kg venaga yuboriladi, har 60-90 daqiqada xuruj bartaraf qilingunga qadar takrorlanadi. Hidrokarbonat natriyni 2,5% -100 ml eritmasi 30% kislorod eritmasi 30% kislorod 2-4 IG`daqiqa niqob yoki burun kateteri yordamida beriladi.

Yaqqol ruhiy emotsional qo'zg'alish holatlarida va dorili davolash samarasiz bo'lganda azot oksidi narkoz vositasi qo'llaniladi.

Bemorni shifoxonaga yotqizish: intensiv terapiya bo'limiga bemorni zambilda o'tirgan holda qabulxona bo'limini chetlab o'pkani sun'iy ventilyatsiya qilish uchun yotqiziladi. Ambulator sharoitda davolashdan samara bo'lmasa, darhol statsionarga yotqiziladi. Bemorni tashishda o'tirgan vaziyatda bo'lishi kerak.

O'pkaning yalliglanish infiltrati sindromi.

O'pka abstsesslari va gangrenasi upkaning infeksiyon destruktiviyasi degan umumiy nom bilan birlashtiriladigan kasalliklar guruxiga kiradi va patogen mikroorganizmlar ta'siri natijasida upka parenxemasining jonsizlanishi va parchalanishi bilan xarakterlanadigan patologik jarayon xisoblanadi.

Upka abstsessi – upka tukimalarining yiringli erishidan iborat bulib, yakka yoki kup sonli bushliklar xosil kiladi. Ular chegaralangan (gangrenadan farkli ravishda) buladi va kupincha yalliglanishli infiltratsiya (biriktiruvchi tukima kapsulasi) bilan uralgan.

Upka gangrenasi – upka tukimasining jonsizlanishi, chirib parchalanishi bulib, badbuy balgam ajralishi bilan utadi. Unda upka tukimasining parchalanishi anik ajralib turadigan chegaralarga ega buladi.

Etiologiyasi. Upka yiringlanishi rivojlanishida kuyidagilar muxim axamiyatga ega: bakterial flora:

- streptokokklar, pnevmokokklar, stafilokokklar, Fridlender diplokokklari, ichak tayokchasi, inflyuentsta tuyokchasi va b. (abstsesslarda);

- anaerob flora: spirallar, anaerob streptokokklar, (upka ganrenasida);

mikroorganizm xolati: reaktivlik, moyillikni keltirib chikaradigan omillar:

- bronx-upka sistemasi kasalliklari, xronik infeksiya uchoklari borligi;

- sovkotish, charchash, nokulay mexnat va turmush sharoitlari va b.;

- mayda bronxlarning tikilib kolishi, atelektazlar paydo bulishi, upka tukimasida kon aylanishi va oziklanishning buzilishi.

Patogenezi. Upka yiringlashi jarayonining rivojlanishi bronxlar drenaj funktsiyasining, xamda kon bilan ta'minlanishining buzilishi va upka tukimasining nekrozi, infeksiyalar kushilishi, makroorganizm reaktivligining pasayishi bilan boglik.

Upkada infeksiyalar turli yullar orkali tushadi. Asosan upkani yiringlanish jarayoni zotiljamdan, shuningdek bronxoektazlardan keyin rivojlanadi, bu esa barcha upka yiringlashlarining 68 % ini tashkil etadi. Bu ikkilamchi upka abstsessi deb nomlanib, infeksiyalar bronxial yul orkali tarkaladi. Birlamchi upka abstsessi odatda kukrak kafasi jaroxatlarida, yot jism aspiratsiyasida, yukori nafas yuli operatsiyalarida, tonzilektomiyadan keyin kelib chikadi.

Abstsess gematogen yoki limfogen yul orkali rivojlanishi xam mumkin, bu kachonkim organizmning olis yiringli uchogidan infeksiyalar upkaga tushishi ruy bersa kuzatiladi.

Upka yiringlanish jarayoni rivojlanishining turli yullari farklanadi:

- Postpnevmatik
- Gematogen – embolik
- Aspiratsion
- Travmatik

O'pka abstsessi va gangrenasining klassifikatsiyasi.

Patogenezi	Klinik anatomik ta'rifi	Kechish xarakteri	Asoratlari
Postpnevmonik Gematogen– embolik	Periferik: massiv empiema bilan asoratlangan, chegaralangan empiema bilan asoratlangan, asoratlanmagan	Utkir Xronik	Upkadan kon okishi Taranglashgan klapan pnevmotoraksi
Aspiratsion Travmatik			
Xronik pnevmoniya okibatida	Markaziy: yakka-yakka, kup sonli Gagrena: empiemasiz, empiema bilan		Piopnevmotoraks Septikopiemiya Ikkilamchi bronxoektozlar Amiloidoz

Klinikasi. O'pka abstsessining klinikasida 2 ta davr tafovut kilinadi: 1) abstsess yorilguncha bulgan davr, 2) abstsess yorilgandan keyingi davr.

Birinchi davr, abstsess shakllanishi urtacha 10 – 12 kun davom etadi. Kasallik boshlanishida bemorlar umumiy darmonsizlikka, xolsizlikka, kaltirashga, kam balgamli yutalga, kukrak kafasidagi ogrikka shikoyat kiladilar. Boshlangich isitma birmuncha yukori, keyinchalik kaytalanma xarakterda buladi. Xatto uncha katta bulmagan abstsesslarda xam xansirash, yuz va oyok-kullarda engil sianoz kuzatiladi.

Ko'krak kafasini palpator tekshirganda kasal kismning kovurgalararo soxasida ogrik aniklaniladi. Bu simptom kovurgalar plevrasi va kovurgalararo asab-tomir tutamlarining jarayonga

tortilishi bilan bogliq. Periferik joylashishida tovush titrashi kuchaygan, chuqur joylashishida esa uzgarmagan. Kukrak kafasining kasal yarmi nafas aktida orkada koladi.

Perkussiyada kasallangan soxada perkutor tovushning tumtoklanishini aniklash mumkin.

Auskultatsiyada nafasning kattikligi, yoki bronxial tUSDaligi mayda pufakchali nam va kuruk xirillashlar aniklanadi.

O'pka abstsessi diagnostikasida kon kursatkichi muxim ob'ektiv mezon xisoblanadi. Neytrofilli leykotsitozning chapga siljishi (15000 – 20000 mm³da) va EChTning birmuncha kuchayishi xarakterli. Siydikda kup bulmagan oksil topilishi mumkin (0,33% gacha).

Rentgenogrammada chetlari noanik karongilashish uchoklari aniklaniladi.

Ikkinchi davr yiringli jarayonning bronxlarga yorib utishidan boshlanadi. Aksariyat abstsess yorilishidan oldin birinchi davrning asosiy klinik belgilari kuchayadi – birmuncha yukori xarorat, yutal va ogrik sezgilari kuchayadi, natijada bemorlarning umumiy axvoli keskin yomonlashadi. Abstsessning bronxga yorilishi yutal kuchayishi bilan utadi – bu yorilishning asosiy alomati. Sutkalik balgam mikdori 200 grammdan 1-2 litrgacha buladi. Balgam turgan joyida 3 kismga ajraladi: ustki – kupiksion seroz suyuklik, urta – tarkibida erirotsitlar, leykotsitlar, turli xil bakteriyalar bulgan suyuk kismi, pastki – yiringli kismi. Ob'ektiv tekshirganda bemor majburiy vaziyatda buladi. Asosan jarayonga plevra tortilganda zararlangan tomonda perkutor tovushning tumtoklashishi, katta va yuzaki abstsesslarda esa timpanit aniklanadi.

Auskultatsiyada kattik bronxovezikulyar yoki bronxial nafas eshitiladi. Odatda ayrim chegaralangan soxada baland nam xirillashlar eshitiladi.

Neytrofilli leykotsitoz, EChT kuchayishi aniklanadi. Ogir xollarda temir tankisligi, kamkonlik rivojlanadi. Uncha kup bulmagan albuminuriya xam kuzatilishi mumkin.

Davolash:

- bemorlarni kasalxonaga joylashtirish: urinda yotish rejimi, ovkatlanish, uyku rejimiga amal kilish, bemorlarni etarlicha parvarishlash lozim, ovkat oksillarga, A,S,D.va V gurux vitaminlariga boy bulishi kerak.

- drenajni tiklash va zararlanish uchogidagi yiringni tugatish: bronxial shoxni Karlens naychasi orkali yuvish, davo bronxoskopiyalarini kullash (bronxoskop orkali fiziologik eritma, kaliy permanganat, furatsillin eritmalari bilan yuvish, bronxoskop orkali bronxial shoxga proteolitik fermentlar, bronxolitiklar, antibiotiklar yuborish, transtorakal punktsiyalari, aerezol terapiyasi va b.);

- antibakterial terapiyani antibiotiklarga sezuvchanlikni oldindan aniklab olgandan keyin utkaziladi: penitsillinning katta dozalari (sutkasiga 3 – 4 – 8 mln.gacha) va boshka antibiotiklar: streptomitsin, eritsiklin, levomitsetin, terramitsin, sigmamitsin, morfotsiklin va boshkalar; sulfanilamid preparatlar (norsufazol, sulfadimezin va ta'siri uzaytirilgan boshka sulfanilamidlar) kullaniladi;

- intoksikatsiyaga karshi kurash: gemodez, poliglyukin, plazma, 5 % li glyukoza eritmasi, fiziologik eritma kuyiladi, kichik dozalarda insulin tayinlanadi va b.;

- abstsess stafilokokk etiologiyali bulganda: antistafilokokkli y-globulin, antistafilokokkli plazma, stafilokokkli anatoksin kullaniladi;

- organizmning ximoya kuchlarini oshirish uchun umuman mustaxkamlaydigan preparatlar, kon, plazma, oksil preparatlari kuyish, anabolik gormonlar; V gurux vitaminlari, askorbin kislota; kaltsiy xlorid;

- balgam kuchiruvchi dorilar, bronxolitiklar;

- kursatmalar buyicha – yurak dorilari, siydik xaydovchi dorilar, tomirlarga ta'sir kiladigan vositalar.

- yukori kaloriyali vitaminlangan ovkat (15 sonli parhez);

- jarroxlik davolash usuli upkadan kon okkada, piopnevmotoraksda, upka empiemasida, surunkali abstsesslarda, shuningdek usmaga shubxa bulganda utkaziladi;

- dispanser kuzatuvi (surunkali abstsessga utganda).

Profilaktikasi: turli xil bronx-upka sistemasi kasalliklarini uz vaktida davolash, surunkali infektsiya uchoklarini bartaraf qilish; shikastlanish, yaralanish, kattik lat eyish xollarida uz vaktida tegishli yordam kursatish, turli operatsiyalardan keyin bemorlarni tugri parvarish qilish, antibiotiklarni profilaktik yuborish.

Surunkali branxit.

Ta'rif. Surunkali bronxit-bronxlar shillik pardasi va ular devorining birmuncha chukur katlamlarining diffuz yalliglanishi bulib, vakti-vaktida kuzishi va uzok muddat kechishi bilan ajralib turadi. Bu anchagina keng tarkalgan kasallik sanaladi. Jamlangan statistika ma'lumotlariga kura (20 dan ortik mamlakat) Surunkali bronxit umumiy kasallanishlar sonidan 1,9 foizni; Avstriyada 12 dan ortik foizni tashkil kiladi.

1-jadvalda Butunittifok terapevtlar jamiyati prezidiumi tasdiklagan (1973 Surunkali bronxitlar klassifikatsiyasi keltirilgan. Klinik ma'lumotlar va nazariy bilimlarga asoslanib, talaba kuyidagilarni bilishi kerak.

1) taxminiy tashxis kuyishi va uni patologik jarayonning joylashgan urni (upka, plevra, kuks oraligi, bronxial shox, kichik kon aylanish doirasidagi dimlanish) va xarakteri (yallig'li, usmasimon, funksional) nuktai nazaridan asoslab berishi;

2) taxminiy tashxisga asosan bemorni tekshirishning asoslangan rejasini tuzishi (eng zamonaviy tekshiruv usullarini kullangan xolda) va bronx-upka tizimining boshka kasalliklari bilan differentsial tashxis utkazishi;

3) tashxisni ta'riflay olishi (kechishini, vrachlik-mexnat ekspertizasi talabalarini, kushilib keladigan kasalliklarni, kasallik boskichlarini va asoratlarini xisobga olgan xolda), etiopatogenetik terapiyasi, profilaktikasi, prognozni va surunkali bronxitli bemorlarni mexnatga layokatini aniklash rejasini tuzishi.

Etiologiyasi va patogenezini. Etiologik omillar kup, biroq ulardan eng muximlari kuyidagilar:

-atmosferaning ifloslanishi (zararli moddalar ta'siri, xavoda azot oksidi va sulfid gazi kontsentratsiyasining uzgarishi, tutun ta'siri va boshk.);

-toksinli moddalar, kasb-korga alokador zararli moddalar, tabiatan organik (paxta, un changi) va noorganik turli-tuman chang zarrachalari (kumir, kvarts, sement va boshk.) ta'siri, shuningdek issik sexlarda yukori xaroratni ta'siri va xokazo;

-tamaki chekish. Tamaki tutuni kup sonli tarkibiy kislarni saklaydi (piridin asoslari, ammiak, nikotin va boshk.). Epidemiologik tekshiruvlarda bronxit bilan kasallanish chastotasi bilan chekiladigan sigaretalar soni urtasidagi uzviy bog'liklik aniklangan.

Passiv chekishga (uzi chekmasa-da chekuvchi yonida bulganlarga) xam katta axamiyat beriladi: chekuvchi odamlar oilalarida surunkali bronxit kasalligi chekmaydigan oila a'zolari urtasidagi odamlarga karaganda, ayniksa bolalarda kuprok topiladi;

-mikrob florasi (streptokokk, stafilokokk, diplokokk, inflyuentsa tayokchasi, pnevmokokk va boshk.), viruslar (gripp, kizamik, kuyutal va boshkalar kuzgatadigan), yukori nafas organlari infektsiyalarining surunkali uchoklari, burun xalkum kasalliklari (rinit, gaymorit, tonzillit, utkir respirator kasalliklar va boshk.) roli;

-iklimga (nam, sovuk, keskin kontinental), fonga (upka, yurak kasalliklari, surunkali buyrak etishmovchiligi va nafas sistemasi ximoya mexanizmlarining buzilishi bilan utadigan boshka xolatlar), endogen omillarga («oilaviy, bronxitlar, konstitutsional, irsiy moyillik, birlamchi immunitet tankisligi buzilishlari va boshk.), shuningdek allergik omillar (oksil tabiatli va oksilsiz allergenlar ta'siri)ga ma'lum darajada axamiyat beriladi.

Surunkali bronxitlar klassifikatsiyasi

Etiologiyasi buyicha	Patogenezi buyicha	Klinik bronxologik va morfologik ta'rifi	Boskichlari buyicha			Asoratli buyicha
			I	II	III	
Virusli	Yalliglanish	Morfologik funksional	Endo-bronxit: obstruktiv, obstruktiviyali	Mezo-bronxit: obstruktiv, obstruktiviyali	Pan-bronxit obstruktiv bilan	Asoratlanmagan
Bakterial	Toksik					
Ximiyaviy va fizikaviy ta'sirlarda	Ekssudativdistrofik a) dimlanish b) meta-koniotik	Rentgenologik (jumladan bronxografiya)	Pnevmo-fibroz yuk	Pnevmo-fibroz yuk yoki ifodalgan	Pnev-Mofibroz, distelektazlar, emfizem	Asoratlari: a) astmatik sindrom; b) perixondrit (utkir pnevmoniyaga utish extimoli bor); v) upka emfizemasi emfizematoz bronxit)
Changtuzonli	Allergik. Autoimmun Metaplastik Aralash	Bronxoskopik (tarkalganligi buyicha)	Kisman Diffuz, bir yoki ikki tomonlama	Kisman Diffuz, bir yoki ikki tomonlama	Aksariyat Diffuz, bir yoki ikki tomonlama	

Patogenezi. Surunkali bronxitning rivojlanish patogenezi asosan quyidagilar bilan izoxlanadi:

-nospetsifik ta'sirlovchilar (chang, chekish, gazlar, alkogol va boshk.) ta'siri;

-bronxlar devorining infeksiyon-allergik zararlanishi;

- bronxial devorda nerv boshkarilishining buzilishi;
- bronxlar diskineziyasi va bronxial utkazuvchanlikning buzilishi;
- doimo ta'sir kilib turadigan uchokli infeksiyalar borligi va boshkalar.

Kursatib utilgan va boshka kup sonli omillar shillik parda barer funktsiyasi va immun xossalarning pasayishiga, tomirlar utkazuvchanligining oshishiga, bronxial bezlar sekretsiasini kuchayishiga, mayda bronxlarda sekret yigilishiga olib keladi, natijada mikroorganizmlar bronxlar devoriga kiradi va u erda yalliglanish jarayoni rivojlanishi uchun kulay sharoitlar vujudga keladi, keyinchalik shillik parda xalok buladi, atrofiyaga uchraydi, biriktiruvchi tukima rivojlanadi, asab tolalari shikastlanadi va x.k.;

- bronxlarning shakli uzgarishi, kiyshayishi obstrutsiyasi va chandikli uzgarishlar yuz berishi, upka emfizemasi manzarasi paydo bulishi extimolliigi buladi;
- patologik jarayon yuza bulishi yoki xamma katlamlarni zararlantiradigan-bronxiolalar va upka parenximasini tulik destruksiya kiladigan darajada chukur bulishi mumkin (pnevmoskleroz, pnevmonik fokuslar) va boshk.,

Klinik manazarasi. Klinik kurinishlarining ruy-rost yuzaga chikkanligi yoki anikligi dastavval kuyidagilarga:

- jarayonning kechish xarakteriga (latent, kuzishi, remissiyasi);
- tarkalganligi, lokalizatsiyasi va bronxial shoxning zararlanish darajasiga (endo-panbronxit, peribronxit);
- turli-tuman asoratlar borligiga (pnevmoniya, emfizema, pnevmoskleroz, bronxoektazlar);
- nafas (upka) va upka-yurak etishmovchiligi borligiga;
- bronxial utkazuvchanlik xolatiga;
- kasallik etiologiyasiga va boshkalarga boglik.

Surunkali bronxidlarning A.N.Kokosov va V.A.Gerasin (1984) buyicha klasifikatsiyasini keltiramiz:

A.Yalliglanish jarayoni xakteri buyicha :

- kataral,
- yiringli.

B.Funktsional xarakteristikasini xususiyatlari buyicha:

- obstruktiv,
- obstruksiyasiz.

V.Kasallik fazasi buyicha:

- kuzish,
- remissiya.

Asoratlari borligi, nafas (upka) va yurak etishmovchiligi yuzaga chikkanlik darajasi xam kursatiladi.

1.Sub'ektiv ma'lumotlar. Bemorni shikoyatlari:

- aksariyat ertalablari kuchayadigan kuruk yutal (kasallikning boshida vakti-vakti bilan), ba'zan yiringli yoki shillimshik yiringli balgam kuchishi bilan utadi. Yutal bilan balgam kiyinlik bilan kuchishi, iztirobli bulishi yoki balgam kuchmaydigan bulishi mumkin;
- xavo etishmasligi sezgisi, nafas kisishi yoki bugilish (ayniksa allergik, obstruktiv bronxitda);
- tana xaroratini kutarilishi (jarayon kuziganda);
- kon tuflash yoki balgamda kon ipir-ipirlari bulishi mumkin (odatda gemorragik bronxitda yoki bronxoektazlar bulganda);
- yurak urishi, oyoklarga shish kelishi, ung kovurgalar ostida ogrikni bulishi, diurez buzilishi va boshk.(upka-yurak etishmovchiligi kushilganda);
- umumiy xolsizlik, kup terlash, darrov charchab kolish, turli xil mushak guruxlarida yutal bilan boglik bulgan ogriklar, injiklik, yaxshi uxlamay olmaslik, oriklab ketish, ish kobiliyatining pasayishi va boshk.;

-kasallikning yoki jarayon kuzishining tez-tez «shamollash», «gripp», sovkotish, tamaki chekish va ichkilik ichish (kunt bilan anamnez yigilganda aniklanadi), ob-xavo sharoitlarining yomonlashishi va surunkali bronxit etiologiyasida kursatilgan boshka sabablar bilan boglikligi.

II.Sub'ektiv ma'lumotlar taxlili (bemor shikoyatlari, surunkali bronxit rivojlanishiga olib keladigan va mazkur kasallik diagnostikasida axamiyati bulgan xamma omillar xisobga olingan anamnez).

Sh.Ob'ektiv ma'lumotlar .

Umumiy kuzdan kechirish:

-umumiy axvoli, jarayonning ogir-engilligiga boglik xolda bemorning urnidagi vaziyati (remissiya davrida va kasallikning boshlangich boskichlarida konikarli, kuzigan choglarida urtacha ogirlikda, kasallikning asoratlar bilan utadigan uchinchi boskichida ogir);

-lab, kulok , yuz, kul-oyoklar sianozi, teri koplamlarining namligi, kechikkan boskichlarida ifodalangan akrotsianozi, kamdan-kam xollarda oriklab ketish;

-nafas kisishi (aksariyat aralash), bugilish yuz berishi extimol (bu obstruktiv bronxitda, allergik kelib chikadigan bronxitda kuzatiladi);

-kasallikning kechikkan boskichlarida kukrak kafasi shakli uzgargan, emfizematoz, u nafas aktida etarlicha ishtirok kilmaydi, shuningdek kukrak kafasining elastikligi, rigidligi, nafas olish aktida kushimcha mushaklarning ishtiroki pasaygan, oyoklarga shish kelgan va upka emfizemasi, pnevmoskleroz, upka-yurak dekompensatsiyasini boshka kurinishlari (upka-yurak)yuzaga keladi;

-jarayon kuzigan davrda tana temperaturasining subfebril rakamlargacha va bundan yukoriga kutarilishi kuzatiladi.

Nafas sistemasi:

-kasallik kechishining latent, engil xollarida upka tomonidan patologik siljishlar bulmasligi mumkin, ular jarayon kuzigan davrda, ayniksa upka emfizemasi va surunkali bronxitning boshka asoratlari kushilganda aniklanadi;

-perkutor usulida: tinik upka tovushi yoki kutichani urganda chikadigan tovush bilan almashinadigan tumtoklanish uchastkalari, upka ekskursiyasining cheklanishi, kuyi chegarasining pastga siljishi;

-auskultativ usulda: kuzish davrida kattik nafas yoki aksariyati nafas chikarilishi uzaygan nafas, tarkok kuruk yoki (gijillaydigan, xushtakli, shipillaydigan), jarangsiz nam (yirik-, urta- va mayda pufakchali) xirillagan tovushlar eshtiladi, bunda oxirgilari upkaning asosan orka-pastki bulimlarida eshtiladi.

Upkadagi kursatib utilgan fizikal siljishlar doimiy emas.Ular kasallikning davriga (remissiya, kuzish), jarayonning joylashgan urni va tarkalganligiga, zararlangan bronxlar kalibriga, upka tukimasining jarayonga tortilish darajasiga kura topiladi.

Boshka organlar:

-yurak tomonidan buladigan patologik uzgarishlar uzok muddatli gipertenziya natijasida yurak etishmovchiligi (ung korinchadagi) rivojlanganda kuzatiladi – bu ung korincha va ung bulma gipertrofiyasi xisobiga yurak chegarasining kengayishi, upka arteriyasi ustida II ton aktsenti (kichik kon aylanishi doirasida kon dimlanishi), xanjarsimon usik asosida sistolik shovkin (uch tavakali klapaning nisbiy etishmovchiligi) eshtiladi, EKG da tegishli uzganishlar («Kushimcha tekshirish metodlari» bulimida tasvirlangan)yuzaga keladi;

-jigar tomonidan buladigan uzgarishlar xam yurakning ung bulimida dimlanish rivojlanganda (ung korincha etishmovchiligi), katta kon aylanishi doirasida topiladi va ung kovurgalar ostida yokimsiz sezgi yoki ogrik bulishi, jigarning kattalashuvi, uning ayrim funktsiyalari buzilishi bilan utadi;

-buyraklar- diurezni uzgarishi, biroz proteinuriya, mikrogematuriya va boshk.«dimlangan buyrak»);

-me'da ichak faoliyatining buzilishlari (dispeptik xodisalar va boshk.)

surunkali bronxitning upka va upka-yurak etishmovchiligi (upka-yurak), katta kon aylanishi doirasida dimlanish bilan ogirlashuvi yoki kushilib keladigan kasalliklar borligi bilan xam boglik. -periferik konni tekshirish: urtacha leykotsitoz, neytrofilez chapga siljish bilan, EChTning oshishi, eozinofiliya (astmatik bronxitda), eritrotsitoz va gemoglobinning oshishi (nafas etishmovchiligi okibatida);

-bioximiyaviy siljishlar: disproteinemiya – albuminlar mikdori kamayishi, α_1 , – va α_2 , – globulinlar xisobiga globulinlar darajasini oshishi (albumin-globulinni koeffitsientini pasayishi), chukma reaksiyalarining (timol, sulema sinamasi va boshk.) musbat natijalari va S-reaktiv oksilga sinamalar, difenilamin sinamasi, upkaga karshi antitelolarning yukori titrlari, shuningdek lipidlar, β -lipoproteidlar mikdorining pasayishi, letsitin-xolesterin koeffitsientining orta borishi, α - lipoproteidlarning oshishi va boshkalar;

-balgami tekshirish: u shilimshikli, shilimshik-yiringli, ba'zan kon aralashgan yoki gemorragik, chirindili bulishi mumkin, shilimshikli yoki yiringli tikinlar, bronxlarning nusxa (iz) lari topiladi; reaksiyasi ishkoriy, neytral yoki kistlotali; mikroskopiya kilganda – kup mikdorda neytrofil leykotsitlar, bronxial epiteliy xujayralari, makrofaglar, shuningdek eozinofillar, Kurshman spirallari, Sharko-Leyden kristallari (bronxial astmada) borligi aniklanadi;

-rentgenologik tekshirish: kasallik boshlanayotganda siljishlar kupincha bulmaydi yoki noanik ifodalangan; kasallikning birmuncha kechikkan boskichlarida tursimon pnevmoskleroz belgilari, upka tasvirining yirik katakli deformatsiyasi, bronxlar devorining kalin tortishi, upka maydonlari tinikligining diffuz oshishi, emfizematoz bullalar, diagfragmaning pastda turishi, yurakning markaziy joylashuvchi, mayda periferik tomirlar kalibrining kichrayishi- «kalibr sakrashi» simptomi (upka gipertenziyasi bulganda) va surunkali bronxitning boshka kurinishlari, upka emfizemasi va upka-yurak etishmovchiligi aniklanadi;

-elektrokardiografik uzgarishlar upka- yurak etishmovchiligi rivojlanishi bilan boglik (ung korincha gipertrofiyasi, R tishchasi baland, utkirlashgan, elektrik uk ungga siljigan, I ulanishda S tishchasi chukur va II xamda III ulanishlarda R tishchalari baland. Gis tutami o'ng oyokchasida blokada belgilari, S-T intervalining pasayishi, II va Sh ulanishlarda T tishchasi manfiy);

-bronxografiya, bronxoskopiya jarayonining tarkalganligi, aktivligi va chukurligini aniklash uchun, shuningdek biopsiya materiali va mikroflorani tekshirish va ularning atibiotiklarga sezuvchanligi aniklash uchun zarur;

-tashki nafasni aniklash yordamida (spiroografiya , pnevmotaxometriya) nafas etishmovchiligi borligi va uning darajasi aniklanadi, fizikal va rentgenologik metodlar bilan esa emfizema va pnevmoskleroz borligi diagnostika kilinadi.

Surunkali bronxit uchun, ayniksa u surunkali, kupincha kaytalanib kechganda, kasallikning kechikkan boskichlarida tashki nafas funksiyasining xar xil darajada buzilishlari xos, upkaning xayotiy sigimining (UXS), maksimal ventilyatsiyasi (UMV), tezlashgan UXS ning pasayishi kuzatiladi.

Surunkali bronxitning kechishi. Surunkali bronxitning klinik kechishi ogir-egilligiga kura uch daraja (engil, urtacha ogirlikdagi, ogir)ga bulinadi:

-engil turida (I boskich, endobronxit) ertalablari odatdagi yutal (kuruk yoki shilimshik-balgamli) va urtacha pufakchali nam xirillashlar (kuzish davrida), nafas kisishi va tashki nafas funksiyasining buzilishi kuzatiladi. Jismoniy xarakatda nafas chastotasi 1 dakikada 26 martagacha etadi, mexnat kobiliyati saklanib kolgan buladi. Kuzish davrida yutal kuchayadi, balgam ajralishi kupayadi, temperatura, leykotsitoz oshadi ($12,0 \cdot 10^9$ gacha), I darajali upka etishmovchiligida kasallikni kuzishi yiliga 2-3 marta kuzatiladi;

-urtacha ogirlikdagi turida (II ,boskichi) shilimshik-yiringli balgam ajraladigan doimiy yutal kuzatiladi; kup terlash, tashnalik, nafas kisishi va sianoz arzimagan jismoniy xarakat kilganda orta boradi, upka ekskursiyasi cheklangan, tarkok kuruk, jarangdor, gijillaydigan xirillashlar eshitiladi.

Eritrotsitoz, EChTning oshishi (soatiga 20mm gacha) kuriladi. Tashki nafas funktsiyasining buzilishi upka etishmovchiligining II darajasiga muvofik keladi. Remissiya davrida ish kobiliyati cheklangan. Kuz yoki baxor faslida, xar yili yoki yiliga bir necha marta kuzib turadi, klinik va boshka kursatkichlari birmuncha ifodalangan va davomli kechadi.

-ogir darajasida (Sh boskichi, panbronxit) upka va yurak (ung korincha) etishmovchiligining xamma belgilari kuzatiladi. Upka-yurak, upka (nafas) etishmovchiligining Sh darajasiga muvofik keladi.

Surunkali bronxit kechishining ogir-engillik darajasini aniklashda sub'ektiv va ob'ektiv ma'lumotlar, zararlanishning tarkalganligi va bronxial shoxning, umuman bronx-upka sistemasining nechoglik zararlanganligi, yurak va upka etishmovchiligi borligi va uning darajasi, laboratoriya, bioximiyaviy, rentgenologik tekshirishlar, utkazilayotgan davolashning samaradorligi va boshkalar xisobga olinadi.

Asoratlari. Surunkali bronxit asoratlari: astmatik sindrom; bronxial astma (infektsion-allergik formasi); utkir pnevmoniyalar; kon tuflash, upkadan kon okishi, bronxoektazlar; rakka aylanish (bronxogen rak); pnevmoskleroz, upka emfizemasi; surunkali upka-yurak etishmovchiligi; nafas etishmovchiligi sanaladi.

Diagnostikasi. Surunkali bronxitni diagnostikasi ba'zan katta kiyinchilik tugdiradi, bu uzok vakt (bir necha yillab) kasallikni latent kechishi (ayniksa birmuncha mayda bronxlar zararlanganda-distal bronxit), kuzish davrlarining anik ifodalanmaganligi, shuningdek kasallikning yutal, balgam ajralishi va nafas kisishi singari etakchi simptomlarining sust yuzaga chikkanligiga boglik.

Diagnostikada kasallikning paydo bulishiga olib kelgan sharoitlarning mutlak xammasini xisobga olib, kuyidagilarga diqqat bilan axamiyat berish zarur.

-bronxitning eng minimal kurinishlari (tez-tez shamollab turish, «grippoz xolat» uchokli infektsiyalar, vakti-vakti bilan yutalib turish, jismoniy xarakat vaktida xarsillash, kuz-kish faslida axvolning durust bulmasligi, tamaki chekish, ichkilik ichish);

-mexnat va turmush sharoitlarini ogirligi;

-zarurat bulganda laboratoriya, rentgenologik va boshka instrumental tekshirish metodlarini kullanish;

-kuzish sababini, patologik jarayon darajasi va chukurligini aniklash muxim;

Surunkali bronxit mustakil nozologik forma sifatida bronx upka tizimining boshka patologiyasi ustiga kelib kushilishi mumkinligini unutmazlik lozim (masalan, bronxoektatik kasallikka, upka emfizemasi, ayniksa katta yosh guruxidagi shaxslarda).

Surunkali bronxitni tugri diagnostika kilish etarli darajada tulik differentsial diagnostika utkazib, keyinchalik olingan ma'lumotlarni bronx- upka tizimining etakchi belgilari yutal, balgam ajralishi va nafas kisishi bilan kechadigan kasalliklari, xususan bronxial astma, upka emfizemasi utkir bronxit bilan; ,bronxoektatik kasallik, rak va upka sili bilan; sarkoidoz, pnevmokoniozlar, upka mikrozlari va boshkalar bilan taxlil kilishga kup jixatdan boglik.

Diagnozning taxminiy ta'rifi: 1) Surunkali bronxit, pnevmofibroz bilan asoratlangan II boskichi bronxospazm bilan: 2) Surunkali bronxit (toksik), upka emfizemasi va kon aylanishi buzilishi (NIB) bilan asoratlangan Sh boskichi.

D a v o l a s h

1. Jarayon kuzigan davrda kasalxonaga yotkizish kerak. Davolash uz vaktida, xar kimning uziga xos (individual) (etiologiyasi, astmatik sindromni, kasallikning xar xil asoratlari borligi, bronx-upka va yurak-tomirlar sistemasiningi funktsional xolatini xisobga olgan xolda) va uzluksiz bulishi kerak.

2. Urinda yotish rejimiga rioya kilish. Bemorning ovkatlanishi muayyan axamiyatga ega. Vitaminlarga boy, xom sabzavotlar, mevalar va ularning sharbatlari, pivo achitkisi kiritilgan

parhez ovkatlar tavsiya kilinadi. Upka-yurak etishmovchiligi bulganda oksillar, yoglar, osh tuzi, suyuqlik chegaralangan va kaliy xamda vitaminlar mikdori oshirilgan 10-sonli parhez tayinlanadi. Antibakterial terapiya:

antibiotiklar (penitsillin, streptomitsin, ta'sir doirasi keng antibiotiklar-tetratsiklinlar, ampitsillin, levomitsetin va b.) kasallik kechishining ogir-engilligiga boglik xolda parenteral yoki aerezollar kurinishida tayinlanadi. Antibiotiklarni ingichka kateterlar yordamida endobronxial yul bilan yuborilganda eng yaxshi natijaga erishiladi (bu tanlangan usullardan xisoblanadi).

3. Ta'siri kiska (norsulfazol, sulfadimezin) va uzaytirilgan (sulfadimetoksin, sulfapiridazin, sulfalen) sulfanilamidlar naxorda ovkatdan 30-40 dakika oldin va ovkatdan kamida 3-5 soat keyin tayinlanadi, sungra davolashda tanaffuslar kilishga yul kuymaslik lozim va faol yalliglanish jarayoni bosilgandan keyin bu vositalarni 3-5 kungacha kabul kilish kerak;

Antibiotiklarni uzok vakt kullanilgandan yuzaga keluvchi zamburugli asoratlarni profilaktika kilish va davolash maksadida nistatin yoki levorin tavsiya kilinadi. Nistatinning natriyli tuzini aerezol kurinishida yuborish maksadga muvofik.

4. Bronxlarning drenaj funktsiyasini yaxshilash yoki tiklash maksadida quyidagilar tavsiya etiladi:

balgam kuchiradigan moddalar: termopsis damlamasi, damlamalar va ekstarktlar kurinishidagi altey ildizi; mukaltin tabletkalari, 3% li kaliy yodid eritmasi, intratraxial yoki mushaklar orasiga yuboriladigan fermentlar (tripsin, ximotripsin va b.), mukolitiklar ingalyatsiyasi, kup mikdorda issik ichimlik, tarkibida ishkor bulgan mineral suvlar;

bronxolitiklar: efedrin, novodrin, astmopent, alupent, solutan, atropin, eufillin, atrovent, teofedrin, fenoterol (berotek). Ayni vaktida antibiotiklar, bronxo- va mukolitiklar, aerezollar kurinishidagi balgam kuchiradigan vositalar kullanilganda davolash ta'sirchanligi birmuncha oshadi.

5. Kursatma bo'yicha (kasallikni faol kechishida, tez-tez bronxospazmlar bulishida, bronxial astmada) quyidagilarni kullanish maksadga muvofik;

kortikosteroidlar (prednizon, prednizolin, deksametazon) kiska davo kursi kurinishida ichishga yoki parenteral;

immun sistemani idora kiladigan vositalar: levamizol (dekaris), prodigiozan, pirogenal va b.; desensibilizatsiya kiladigan va antigistamin preparatlar (kaltsiy glyukonat, atsetilsalitsilat kislota, suprastin; pipolfen, dimedrol, geparin, lagoxilus va b.);

shifobaxsh bronxoskopiya: bronxlarni Ringer, furagin yoki soda eritmaları bilan yuvish va bronxial shoxga dori vositalar (antibiotiklar, garmonlar, fermentlar va b.) yuborish;

postural drenaj yopishkok yiringli balgan ajratadigan va yutalganda balgam ajratmaydigan bemorlarga tayinlanadi. Kuniga 2-marta-ertalab va kechkurun gavda vaziyatini balgamning kuprok ajralib chikishiga imkon beradigan kilib uzgartirib bajariladi (oldindan bronxiolitik preparat va balgam kuchiradigan vositalar, shuningdek katta mikdorda issik choy-400-500 ml kullaniladi);

yutalga karshi vositalar (yutal ximoya drenaj funktsiyasini bajara olmagan xollarda): kodein, dionin, yutalga karshi morfinsiz preparatlar (libeksin, baltiks).

6. Fizioterapevtik davolash: sollyuks, kukrak kafasini ultrabinafsha nurlar bilan nurlantirish, ultratovush, induktotermiya, UVCh, Vermel buyicha yod elektroforezi, ninabargli va xloridli vannalar, davolash gimnastikasi, massaj va b.

7. Sanator-kurort sharoitida davolash (Krimning janubiy soxili, Kislovodsk, , maxalliy sanatoriylar- Zomin, Oktosh) monelik kiladigan kursatmalar (tez-tez bronxospazm bulib turishi, jarayonning kuzishi, upka-yurak etishmovchiligi) bulmaganda tavsiya kilinadi.

8. Bemorlar ustidan dispanser kuzatuvini iloji boricha erta boshlash kerak, bu tadbir aktiv jarayonni davolashni batamom nixoyasiga etkazish, kasallik zurayishining, xar xil asoratlarning va boshka kasalliklar kushilib kelishining oldini olish uchun zarur.

Surunkali bronxitli bemorlarni remissiya fazasida davolash uzluksiz bulishi kerak. Davolash gimnastikasi, balgam kuchiradigan vositalar, postural drenaj, bronxolitiklar, umuman

mustaxkamlaydigan vositalar izchillik bilan tayinlanadi. Shuningdek kasallikning kaytalanishiga karshi kurslar: sanator-kurort sharoitida davolash, fizio- va aerozol terapiya, massaj, endobronxial sanatsiya, immun modulyatorlar utkaziladi. Surunkali bronxitlarning kaytalanishiga karshi davolashning bir necha sxemalari (kompleksi) ishlab chikilgan. V.V.Dubiley va uning muallifdoshlari (1980) jismoniy mashklar, dori-darmonlar bilan davolash va chiniktiradigan muojojalaridan tashkil topgan kaytalanishga karshi kompleks davolashni tavsiya kiladilar, O.I. Korol va O.V. Korovina esa (1978) standart stafilokokk vaktinasini vaktinatsiya kilish usuli bilan bemorlar organizmining nospetsifik rezistentligini oshirishni tavsiya kiladilar. Remissiya fazasida uchokli infektsiyalarni davolash tayinlanadi. Surunkali bronxit ogir kechganda (upka yurak etishmovchiligini asorati rivojlanishi bilan) bemorlar mexnatga layokatsiz bulib koladilar va nogironlikka chikishga muxtoj buladilar.

Surunkali bronxitni profilaktika kilish maksadida kuyidagilarni amalga oshirish lozim:

-bronx-upka sistemasining utkir kasalliklari, grippning oldini olish, surunkali infektsiya uchoklarini bartaraf kilish va b.;

chang tuzon, gazlar va ishlab chikarishdagi boshka zararli moddalarning ta'sirini kamaytirish, korxonalarda va kishlok joylarda profilaktik kuriklar utkazishni yulga kuyish va izchillik bilan olib borish, organizmni chiniktirish, umumiy gigienik tadbirlarga amal kilish, chekishga, ichkilikbozlikka karshi kurashish;

-nafas organlarining surunkali kechadigan kasalliklariga uz vaktida tashxis kuyish va uni davolash kerak.

EKSSUDATIV PLEVRIT

Ko'pincha quruq plevrit asta-sekin rivojlanib, ekssudativ (suyuq) plevritga aylanadi. Bunda bemorni bezovta qilayotgan og'riq kamayadi va bemor shikastlangan tomonda ko'krak kafasida og'irlik hissini va shu joy to'lishayotganini seza boshlaydi. Umumiy quvvatsizlik zo'rayadi. O'pka varaqlari orasiga suyuqlik to'planganda (o'tkir kechganda) tana harorati keskin ko'tarilib, bemor ahvoli tez orada og'irlashadi. Suyuqlik asta-sekin yig'ilib borsa, tana harorati uncha baland ko'tarilmasdan bemor faqat umumiy quvvatsizlikdan shikoyat qilishi mumkin.

Hansirash ekssudativ plevritda asosiy shikoyatlardan biri bo'lib, uning jadalligi yig'ilayotgan suyuqlik miqdoriga bog'liqdir. Ayni paytda yo'tal paydo bo'ladi, unga sabab — yig'ilgan suyuqlikni bronxlar devorini siqib reflektor yo'l bilan uning qo'zg'aluvchanligini kuchaytirib yuborishidir. Og'riqning kuchli yoki sust bo'lishi yig'ilayotgan suyuqlikning miqdoriga va nerv tolalarining qisilishiga bog'liqdir. Bundan tashqari, ishtaha yo'qoladi, tana vazni kamayib, uyqu buziladi. Bemorni umumiy ko'zdan kechirganda terining rangi ko'kimtir (tsianoz) rangdaligini, bo'yin sohasidagi qon tomirlarning bo'rtib chiqqanligini ko'rish mumkin.

Bemorning ko'krak qafasi ko'zdan kechirilganda suyuqlik yig'ilgan tomonning bo'rtib chiqqanligini va shu tomonning nafas olganda orqada qolayotganini ko'rish mumkin. Ko'krak qafasini tuqillatib ko'rganda suyuqlik yig'ilgan jarayon ustida son bo'g'iqligi tovushi eshitiladi. Tuqillatish usuli bilan suyuqlikning chegarasini aniqlash mumkin, bu chegara Damuazo chizig'i bo'ylab o'tadi.

Fonendoskop orqali eshitganda suyuqlik yig'ilgan jarayon ustida nafas shovqinlari haddan tashqari susaygan yoki umuman eshitilmasligi mumkin. Damuazo chizig'iga yaqin joylarda krepitatsiya yoki plevra varaqlarining bir-biriga ishqalanayotganidan paydo bo'ladigan shovq'inlar qayd qilinadi.

Tashxisi. To'g'ri tashxis qo'yishda rentgen orqali o'pka varaqlari orasiga suyuqlik to'planganini aniqlash va shu suyuqlikni laboratoriyada tekshirib ko'rish ahamiyatlidir. Yig'ilgan suyuqlik miqdori 500 ml dan kam bo'lmasa, tashxis aniq qo'yilishi mumkin. Agar suyuqlik boyagi

miqdordan kam bo'lsa, bemorni qulay (zararlangan) tomonga yotqizib o'pkani rentgen orqali tekshirmoq lozim.

Agar o'pka varaqlari orasida suyuqlik yig'ilgan bo'lsa, rentgenogrammada bu jarayon qorong'ilashib, chegarasi Damuazo chizig'i bo'ylab aniq ko'rinadi. Ko'ks oralig'i a'zolari o'pkaning soglom tomoniga suriladi. Plevra punktsiyasi suyuqlik yig'ilganini aniq tasdiqlab beradi. U laboratoriyada tekshirib ko'rilganda xastalikning etiologiya sabablarini aniqlasa bo'ladi. Agar aniklangan suyuqlikning nisbiy zichligi baland bo'lsa (1018 dan baland), tarkibidagi oqsil miqdori 3 foiz ko'p bo'lsa, Rivalent sinamasi musbat bo'ladi, LDG ortganda ekssudat borligi aniq bo'ladi. Agar suyuqlikning solishtirma zichligi 1015 dan past bo'lsa, tarkibidagi oqsil miqdori 2% dan kam bo'ladi.

Rivalent sinamasi manfiy bo'lsa, LDG kam miqdorda bo'lishi transsudat yiqilganidan darak beradi.

Suyuqlik tarkibidagi hujayralarni mikroskopda tekshirish aniq tashxis quyishda ahamiyatlidir. Limfotsitlar soni ko'p bo'lsa, bu sil yoki o'simta borligidan guvohlik beradi. Neytrofillar soni ko'p bo'lsa, yalliglanish (zotiljam, abstsess) rivojlanayotganidan dalolat beradi. Neytrofillar juda ko'p mihdorda b'lib, haddan ziyod parchalanayotgan bo'lsa, bu yig'ilgan suyuqlik yiringlaganidan guvohlik beradi.

Eritrotsitlar soni ko'payganda o'pka infarkti bor yoki ko'krak qafasi zararlangan deb hisoblanadi. Agar atipik hujayralar topilsa, bu — o'pkada yoki plevra varaqlarida o'sma borligini bildiradi. O'pka rentgenda tekshirilganda suyuqlik ikkala o'pkaning plevra varaqlari orasida yig'ilgan bo'lsa, bu — yurak etishmovchiligidan yoki sistemali qizilcha borligidan dalolatdir, yohud yurak infarktidan asorat qolgan deb hisoblanadi.

Kechishi. Yigilgan suyuqlikning mihdoriga va jarayoniga qarab xastalik o'tkir, og'ir, surunkasiga va uzoq vaqt kechishi mumkin.

Asoratlari. Agar yiringlanishga sabab bo'lgan suyuqlikka mikroblar qo'shilsa, oddiy plevrit yiringli plevrit, plevra empiemasiga aylanishi mumkin. Bu jarrohlik kasalligi, shu sababli bemorlarni jarrohlik b'limida davolash lozim.

Davosi. Ko'pgina hollarda plevrit ikkilamchi dard b'lgani uchun eng avvalo uning kelib chiqish sabablarini aniqlash, tegishli davo tayinlash va organizmning umumiy reaktivligini tiklash lozim. Buning uchun infeksiya o'chog'ini bartaraf etish uchun antibiotiklar va zamonaviy kimyoterapiya xossalari bo'lgan dorilar buyurilishi kerak. Plevra bo'shlig'ida yig'ilgan suyuqlikni s'rib olib, sanatsiya qilish lozim. Plevradagi yallig'lanish reaksiyasini kuchsizlantirish uchun desensibilizatsiyalovchi va yallig'lanishni pasaytiruvchi muolajalar bajarilishi lozim.

Buning uchun kuniga 1—2 mln. dan penitsillin, 1 g dan streptomitsin 4—6 oy mobaynida mushak orasiga, 0,5 g ftivazid 2 mahal, PASK, izoniazid va boshqa dorilar buyuriladi. Agar plevritni keltirib chiqargan sabablar noma'lum bo'lsa, sil kasalligida o'tkaziladigan muolajalar amalga oshirilishi lozim.

Yallig'lanish jarayoni va organizmning ortiqcha sezuvchanligini susaytirish uchun atsetilsalitsilat kislota (kuniga 2—3 g), amidopirin (kuniga 2 g), butadion (0,15, 3 mahal), kaltsiy xlorid (10% li eritmasi bir osh qoshiq dan 4—5 mahal) beriladi.

Bemorning immun tizimini tiklash uchun kortikosteroidlar beriladi (kuniga 10—20 mg prednizolon).

Bemor og'ir ahvolda b'lishini nazarda tutib, plevra punktsiya qilinishi lozim. O'pkada uzoq vaqtdan beri yig'ilgan suyuqlik ko'krak bo'shlig'ida joylashganda muhim a'zolari zararlantiradi, suyuqlik esa asta-sekin yiringlay boshlaydi. Plevra punktsiya qilinganda suyuqlik uzun punktsion ignali shprits orqali tortib olinadi. Bunda birinchi marta 1,5 l dan ortiq suyuqlikni so'rib olmaslik kerak, chunki kollaps rivojlanishi mumkin. Bundan tashqari, organizmdan hayotiy muhim oksillar ham chikarib yuboriladi. Shuning uchun suv kamroq yig'ilishi uchun bemorga kamroq suyuqlik ichirish lozim. Kursatma buyicha siydik haydovchi dorilar bergan ma'hul. Oqsil va suv-tuz muvozanatini tiklash uchun venaga oqsil preparatlari, elektrolit eritmaları, glikoza, qon va

boshqa dorilar buyurilishi mumkin. Ekssudat tortib olinganidan sŷng plevra bo'shlig'iga antibiotiklar (1 mln. penitsillin, 500 ming streptomitsin), gidrokortizon (80—125 mg) shprints orqali yuborilishi kerak.

Ekssudativ plevritni davolashda gigiena va fizioterapiya muolajalari ham ko'p foyda beradi.

Bemorga osoyishtalik yaratish kerak, buning uchun xonani tez-tez shamollatib turish, uni har kuni yig'ishtirish, bemor yotgan joy quruq va issiq bo'lishi kerak.

Bemor o'zini yaxshi his qilsa, og'riqi bosilib, tana harorati me'yorda bo'lsa (boshqa ko'rsatkichlar soz bo'lsa), nafas gimnastikasini tavsiya qilish kerak, chunki plevra varaqlari orasida chandiqlar hosil bo'lishi mumkin. Keyinchalik o'pka funktsiyasini tiklash uchun massaj (qo'l bilan yoki apparat orqali — vibratsion massaj) qilish, ultratovush bilan davolash tavsiya etiladi. Bunda parhez taomlarning ham ahamiyati katta bo'ladi. Bemorlarga vitaminlar, ayniksa vitamin S ga va oqsillarga boy taomlar tayyorlab berish lozim. Suyuqlik ichishni chegaralash, sho'r ovqatlarni iste'mol qilishni keskin cheklash kerak.

Bemor kasalxonadan chiqqanidan keyin mahalliy yoki markaziy shifoxonalarda (sanatoriya-kurortlarda) davolanishi mumkin (qrim, Oqtosh va boshq.). Sil sababli plevritga uchragan bemorlar sog'aygandan keyin ham 2 yil mobaynida silga qarshi dispanser nazoratida bo'lishi kerak. Oqibati. Plevritlar (kuruq va ekssudativ) ning kechishi asosiy xastalikni qanchalik samarali davolashga ham bog'likdir.

Profilaktikasi asosiy kasallikni o'z vaktida va batamom davolashdan iborat.

O'PKADAN QON KETISHI

O'pkadan qon ketishi – nafas yo'llaridan yo'tal paytida toza qonni yoki uni balg'am bilan aralashib kelishi kuzatiladi. O'pkadan qon ketishi – nafas a'zolarining har xil nospetsifik va spetsifik yallig'lanishli kasalliklarini shuningdek xavfli o'sma va o'pkani shikastlanishlarini og'ir va xavfli asorati bo'lib hisoblanadi. O'tkir yallig'lanishli kasalliklarda o'pka tomirlarida tromb hosil bo'lishiga ulgurolmaydi va o'pka to'qimasini parchalanishida o'pkadan qon ketishi boshlanishi mumkin.

Odamlarda surunkali yallig'lanishli kasalliklarda o'pka tomirlarida degenerativ o'zgarishlar rivojlanadi, tomirlar deformatsiyalanadi, anevrizmatik kengayishlar hosil bo'ladi. Ularda o'pkadan qon ketishi tomirlarni yorilishi yoki devorining arrosiyasi natijasida yuzaga keladi.

Bundan tashqari o'pkani surunkali kasalliklari bilan og'rikan bemorlarda bronxial va o'pka arterialari o'rtasidagi anastomozlarda keskin gipertrofiya kuzatiladi.

Oqibatda o'pkada qon aylanishi buziladi, bronxial tomirlarda bosim ortadi va qon ketishga moyillik ortadi. qon tomirlar yorilmasa, qonni shaklli elementlarini diapedezi yuz beradi. Klinik jihatdan bu qon tupurish ko'rinishida bo'ladi.

Qon tomir yorilganda qon ketish boshlanadi. O'sma kasalligi bor bemorlarda qon ketish o'sma to'qimasini parchalanishi yoki xavfli ŷsma tufayli qon tomirlarning arrosiyasi bilan bog'liq bo'ladi.

Ko'krakni travmatik qisilib shikastlanganida yoki o'pkani yorilib qon tomirni zararlanganida o'pkadan ko'p qon ketish kuzatiladi. O'pkadan qon ketishni sababi traxeyada bronxda, o'pkada yot jismni bo'lishi uni o'pkani jaro'atlashi yoki ?on tomir devorini arrosiyalashi bŷladi.

Bronxoskopiya qilinganda qon ketish o'smani qon tomir kuchli rivojlangan joyidan biopsiya olinganda yoki traxeya, bronxni devoriga yot jismni suqilib qolgan joyidan uni ekstraktsiyasi paytida kuzatiladi. O'pkadan qon ketishi bilan yurak qon tomir tizimi kasalliklari ham asoratlanadi. O'pkadan qon ketishi tug'ma va orttirilgan yurak nuqsonlarida va kichik qon aylanishi doirasida qonni dimlanishida ko'zatiladi, qonni kichik qon aylanishi doirasidan o'tkazilishini qiyinlashuvi kengaygan bronxial venalarning yorilishi bilan tushuntiriladi.

O'pkadan ko'p qonni birdaniga ketishi aorta anevrizmasini traxeya yoki bronx ichiga yorilgan paytida, o'pka arteriovenoz anevrizmasini yorilishida, nafas yўlining shilliq qavatlarini venasini varikoz o'zgarishlari tufayli bo'ladi. qon kasalliklari (gemofiliya) bilan og'riqanlarda o'pkadan qon ketishi gemorragik diatezlar bilan bog'liq bo'ladi. Ba'zida u bronxoektaz, Gudpascher sindromi, endometriozni asoratga olib keladi, gemokoagulyatsiyani buzilishi antikoagulyantlarni qabul qilish natijasida yuzaga keladi. Bundan ko'rindiki, o'pkadan qon ketishini sabablarini ko'p.

Shunisi ajablanarlilik – o'pkada qo'pol destruktiv o'zgarishi bor kishilarda u kam uchraydi. Buning oqibatida zararlangan joyda tomirlar trombozga va obliteratsiyaga uchraydi. O'pkadan qon ketishi 1 marta qon ketishi miqdoriga kam 100 ml ortiq bo'lmagan, o'rta 100-500 ml kўp 800 mldan ortiq miqdorda qon ketishi aytiladi.

Diagnostikasi. O'pkadan qon ketigi birdaniga yoki qisqa muddatli prodromal holatdan keyin: “qon tupurish, og'riq sezish, ko'krakda” issiq qo'yilishi”, “qaynash” kuzatiladi. Agar qon ketishi kechasi bo'lsa bunda bemor uyg'onadi.

QON KETISHINING KLINIK BELGILARI.

Qon ketishining jadalligiga, hajmiga qarab aniqlanadi.

Agar qon ketish kam bo'lsa, qonli balg'am yoki toza qon og'izdan yo'tal paytida keladi. Bir vaqtda bemor og'zida shur ta'mni sezadi.

O'rtacha qon ketishda qon og'izdan yo'talganda sinxron ravishda va burundan sizib oqadi. Ko'p qon ketishida qon og'izdan qo'yilib va burundan uzluksiz oqib chiqadi, o'tkir anemiya belgilari bilan birga rivojlanadi.

Ko'p qon ketishi ba'zida yashin tezligida bo'ladi, shuning uchun terapevtik choralarni ko'rish uchun vaqt etmaydi. Chiqqan qon pushti qizil rangda ko'pikli, ivimaydi, muhiti ishqoriy bo'ladi. Agar kon o'pka bo'shlig'larida (abtsess, kista, kaverna) ushlanib qolinsa bunda to'q jigarrang tusda qon tupurish bo'ladi, ba'zida quyqalar yumshoq massali bo'lib qizil ko'pik aralash bo'ladi. Qon ketish paytida bemorlar qo'zg'algan qo'rquv bosgan, oqargan bo'ladi. Tezda ularda hansirash, taxikardiya, qon bosimini pasayishi kuzatiladi. O'pkada har xil kalibrli nam xirillashlar eshitiladi. Boshlang'ich bosqichlarda qon ketayotganda o'pkada ularni mavjudligini ilg'ash mumkin. Bemor kuchli yo'tal bilan qonni tupirishi bilan, xirillashlarni o'rni o'zgaradi.

Rentgenologik tekshirishda qon ketish paytida o'choqli dog'li qorayish zararlangan tomonda qonni mayda bronxga oqib utishi va rivojlangan tukima atelektazi tufayli kўrinadi. Ba'zan nofaol atelektaz xarakterli rentgenologik belgi bo'ladi. Kam va o'rtacha darajali qon ketish natijasida qon tarkibi kam o'zgaradi. Ko'p qon ketishda esa qon tarkibi o'zgarishga uchraydi qisqa muddatli qonni quyquqlashishi, eritrotsitlar sonini, gemoglobinni pasayishi, neytrofil leykotsitozni kuzatilishi xos bo'ladi.

Og'izdan va burundan qon ketishining har bir holatlarida qonni qaerdan ketayotganligini bronxial tizimdan, og'iz bo'shlig'idan yoki qizilo'ngachdan ketayotganligini aniqlash lozim. Og'iz bo'shlig'idan va burun- halqumdan qonni ertalab ketishida yo'tal va qusish bo'lmaydi. Og'iz bo'shlig'ini ko'zdan kechirilganda shilliq qavatlarni shikastlanganligi, o'smalar hamda tishni olingandan keyingi qoldiqlari qon ketishga sabab bo'lishi mumkin.

Burun- halqum va kekirdak oynada qaralganda nafas yo'lining bu qismidan qon ketish manbasini aniqlash mumkin. Qizilўngachdan qon ketsa kekirish yoki qusish bilan birga keladi, yo'tal bilan kelmaydi. U kofe quyqasiga o'xshab, quyqalar hamda ovqat mahsulotlari bilan aralashib kislotas reaksiyasi bo'lib keladi.

Agar bemorda “yara anamnezi” bo'lsa oshqozondan kon ketish tugrisida, jigarni zichlashishi, taloqni kattalashganligi aniqlansa qizilўngach venalaridan qon ketayotganligidan darak beradi.

O'pkadan va oshqozondan qon ketishini farqlash qiyinlashsa (oshqozondan ketgan qon aspiratsiya qilinsa yoki o'pkadan kelgan qon yutilsa) unda ketma-ketlikda ezofagogastroskopiya va traxeobronxoskopiya qilinadi.

Jigarni kattalashgani, bo'yin venalarining bo'rtishi, oyoqlarda shishlarni paydo bulishi, yurakdagi shovqinlar dimlanish oqibatida qon ketayotganligidan dalolat beradi. Siydikni, qonni tahlili balgamni sitologik tahlili, koagulogrammani tahliliga qarab koagulopatiya yoki Gudpascher sindromi tipidagi immunopatologik holatni aniqlanadi.

Oz miqdorda qon yo'qotilsa, bemorni ahvoli kam o'zgaradi. Bolalar qonni yoq otilishiga sezgir bo'ladi, ularda yurak-qon tomir tizimini kompensator imkoniyatlari rivojlanmagan bo'ladi. Xuddi shu sabablar tufayli qari kishilar yurak qon-tomir kasalliklari xususan, miokardni zararlanishi va aterosklerozga chalanganlar kon yo'qotishga sezgir bo'ladilar. Bemor uchun o'pkadan qon ketishdan ko'ra uning oqibatlari og'ir hisoblanadi. Ko'plab qonni aspiratsiyasi hayot uchun xavfli bo'ladi.

Qon ketishdan keyin aspiratsion pnevmoniya va obrutatsion atelektaz rivojlanib o'pka absessi bilan asoratlanadi.

Texnikasi. Qon ketishini aniqlashda uning manbaini aniqlash muhim. Buning uchun bemorni rentgenologik tekshirishlar to'g'ri va yon tomondan rentgenografiya, qavatma-qavat tomografiya qilish, koagulogramma o'tkazish zarur. Ko'pchilik bemorlarda bu ma'lumotlar bo'yicha tashxis qo'yish va qon ketishning manbaini aniqlash mumkin.

O'pkaning ikki tomoni zararlangan va o'pkada patologik o'zgarishlar topilmagan bemorlarda qon ketish manbasini topish qiyin bo'ladi. Bunday hollarda maxsus tekshirishlar muhim. Bronxoskopik tekshirishlar yordamida yarali endobronxit, o'sma kasalliklarini, traxeya va bronxlarning o'smasini topish mumkin.

Bronxoskopiya yordamida qon ketayotgan bronxnini ajratish mumkin bo'ladi.

O'pkasidan qon ketayotgan hamma bemorlar shifoxonaga yotqiziladi, chunki qon ketishning oqibatlarini oldindan ko'rish qiyin. Bundan tashqari faqat statsionar sharoitda bemorni chuqur tekshirishga va davolashning samarali usullarini qo'llashga imkoniyat bo'ladi. Chunki, qon ketishda yakuniy tashxis qo'yishni va davolashni yuqori malakali tibbiyot xodimi maxsus uskunalar yordamida amalga oshiradi, bunda hamma bemorlar maxsus pulmonologiya yoki o'pka, torakal jarrohlik bo'limiga yotqiziladilar.

Davolash. Qon ketishni erta to'xtatish va ko'p miqdordagi yo'qotilgan qon o'rmini to'ldirishga qaratiladi. Bunda qonni ivish tizimini kuchaytiruvchi vositalar keng qo'llaniladi. Qon ketishi qonni ivishi va tromb hosil bo'lishi tufayli mustaqil to'xtashi ham mumkin.

Gemostozni prostetaz ingibitorlari va aminokapron kislotadan boshlash lozim, bunda kontrikal (trasilol) 10 000-20 000 TBni 100 ml natriy xloridning izotonik eritmasida, ketidan 5%-100 ml aminokopron kislota venaga tomchilab yuboriladi. Antiproteaz vositalar (tripsin, ximotripsin, plazmin va b.) proteolitik fermentlar faolligini bog'laydi. Aminokapron kislotasi qonni fibrinolitik faolligini pasaytirib, xususan, fibrinoliz kuchaygan bemorlarda spetsifik qonni to'xtatuvchi ta'sir qiladi.

Atropin qorin bo'shlig'i a'zolarini qon tomirini kengaytiradi, qon bu a'zolarida to'planib, o'pkadan kelishi kamayadi.

Proteaza ingibitorlari va aminokapron kislotasini takror yuborish mumkin. Kaltsiy xloridni yoki uning analogi kaltsiy glyukonatni qo'llash asoslangan. Kaltsiy ionlari qon ivishi uchun, qon tomir devorini mahkamlash va o'tkazuvchanligini oshirish uchun muhim.

Kaltsiy xloridni 10%-10 ml suvli eritmasi venaga yuboriladi. U 5-6 soatgacha ta'sir qiladi. Shuning uchun har 6 soatda takror yuborish mumkin. Gemostaz maqsadida vitamin K, uning sintetik analogi vikasol qo'llaniladi, u protrombinni hosil bo'lishida ishtirok qilib, konni normal ivishiga olib keladi. Bu vositalar mushak orasiga 1% 1,0-1,5 ml sutkada 1 ma'al 3-4 kun davomida beriladi. Vikasolning ta'siri organizmga yuborilgandan 12-18 soatdan keyin boshlanadi.

Kamfora eritmasi 3-4 mldan har 4 soatda teri ostiga yuboriladi. Kamfora ta'sirida yurak faoliyati yaxshilanadi, periferik qon aylanishi ortadi, o'pkada dimlanish pasayadi. kamforani qonni ivish tizimiga ta'siri isbotlanmagan, shuning uchun gemostaz maqsadida berilmaydi.

O'pkadan qon ketishda ganglioblokatorlar (benzozeksoniy, pentamin, gangleron va b) qo'llaniladi. Ular qon bosimini pasaytiradi, shu jumladan bronxlarda ham. Shu yo'l bilan qon laxtalari va tromb hosil qilinishi uchun sharoit tug'diriladi. Gangliblokatorlarning ta'siri xavfsiz emas, shuning uchun ularni kursatma bo'yicha beriladi.

Yaqin paytlargacha qonni to'xtatish maqsadida qon quyilgan, bu retsipient qonini tezda ivishiga olib kelgan. Hozirgi kunda OITS, virusli gepatit kabi kasalliklarni keng tarkalayotganligi tufayli gemostaz maqsadida qon qo'yilmaydi.

Ko'p qon yo'qotishlarda gemotransfuziyani qo'llamasdan qutilib bo'lmaydi. Toza konservalangan qonni to'ldirish maqsadida quyiladi. Donor qoni plazmasidagi fibrinogen gipoafibrinogenemiya bilan kechadigan qon ketishlarda samarali bo'ladi. U qonni ivishini tugatilishiga, laxtani xosil bulishiga olib keladi. Dorini in'ektsiya uchun Q25-300S li suvda eritilib yuboriladi, dozasi 0,8 dan 8 grammgacha, o'rtacha 2-4 g, k'rsatmaga qarab olinadi.

Fibrinogen eritmasini venaga filtr orqali struyali yuboriladi. Boshqa antigemorragik yoki gemostatik vositalar (gemofobin, trombin, etanzilat, vitamin K va b.) buyuriladi. Biroq gemostatik terapiya faqat qon tupurishda yoki oz miqdorda qon ketishlarda samarali bo'lib, o'rta yoki ko'p miqdorda qon yo'qotishlarda kam samarali bo'ladi. Bunday qon ketishda patogenetik davolash samarali bo'lib, bunda sababni bartaraf qilish muhim. Mana nima uchun o'tkir o'pka yallig'lanish kasalliklarida va pka silida gemostatik vositalarni buyurish bilan birgalikda yalli?lanishga ?arshi davo jadal ytkaziladi.

O'pka silini ochik formasida qon ketishni to'xtatish uchun davolovchi pnevmotoraksni o'tkazish maqsadga muvofiq, agar alevral bo'shliq ko'chgan bo'lsa, pnevmoperitoneum qilinadi. O'pkadan qon ketishda qon aspiratsiya qilinib, pnevmoniya va atelektozga olib kelishi mumkin, shuning uchun qonni to'xtagandan so'ng bronxoskop yordamida bronxlar tozalanib, keyinchalik yallig'lanishga qarshi davolanadi.

SPONTAN PNEVMOTORAKS

To'ssatdan bo'ladigan (spontan) pnevmotoraksda – havoni o'pkadan plevral bo'shliqqa o'tishi kuzatiladi. Sababi bo'lib o'pka to'qimasini yorilishi, ko'pincha plevra ostidagi emfizematoz "bulla"- yupqa pardali havoli o'pka kistasini yorilishi hisoblanadi. O'pka sili, abtssesi, raki, ko'krak qafasining shikastlanishida sodir bo'ladi.

Diagnostikasi, bemorlarda yoki zarar ko'rganlarda ko'krak qafasida birdaniga kuchli og'riq paydo bo'ladi, nafas olganda, harakatlanganda kuchayadi, hansirash, quruq yo'tal, yurak o'ynashi, darmonsizlik, qon bosimi pasayishi, sianoz paydo bo'ladi. Og'riq ko'pincha davomli, nafas yuzaki, tezlashgan bo'ladi. Ko'krak qafasini zararlangan tomoni nafas aktida orqada qoladi. Perkussiyada timpanik tovush aniqlanadi. Ko'ks oraliq'i a'zolari sog'lom tomonga siljiydi. O'pkani zararlangan tomonida timpanik tovush kuchayadi, shuning uchun nafas hamma vaqt eshitilmaydi. Tashxis kasallikning klinik belgilariga, anamnestik ma'lumotlarga asosan qo'yilib, rentgen tekshirish yordamida tasdiqlanadi.

Taktika. Spontan pnevmotoraksli bemorlarni ko'krak qafasi jarrohligi bo'limida yotqiziladi.

Davolash. Statsionar sharoitda davolashda bemorda oq'riq sindromini bartaraf qilish uchun droperidol, promedol, fentanil mushak orasiga qilinadi. Tomir tonusiga ta'sir qiluvchi vositalar (kordiamin, mezaton) qilinadi. Plevral punktsiya qilinib, havosi tortib olinadi. Plevrada asab tolalarining ko'pligi uchun shokni paydo bo'lish xavfi yuqori bo'ladi.

O'tkir nafas etishmovchiligi (UNE) patologik holat bo'lib, hayotiy muhim a'zoni faoliyatini ortishiga qaramasdan, to'qimalarni kislorod bilan ta'minlanishi va karbonat gazlarini chiqarilishi etarli bo'lmaydi. 2 ta asosiy ventilyatsion, parenximatoz turi farqlanadi.

Ventilyatsion UNE – o'pkani hamma gaz almashinuv zonalarini ventilyatsiyasini etishmovchiligi nafas yo'lining o'tkazuvchanligini turli buzilishlarida, nafasni boshqarishning markazini hamda nafas mushaklarining faoliyatini pasayishida kuzatiladi .

Parenximatoz UNEda – ventilyatsiya va qon aylanishi o'rtasida nomuvofiqlik o'pka parenximasini har xil bo'limlarida bo'lib, arterial gipoksemiyaga, gipokapniyaga, o'pkani gaz almashinuvi zonalarida kompensator giperventilyatsiyasi bilan kechadi.

UNEni sabablari – o'pka parenximasining kasalliklari, o'pka shishi, bronxial astmaning davomli xuruji, astmatik status, pnevmotoraks, nafas yo'lining birdaniga siqilishi (kekirdak shishi, yot jism, traxeyani tashqaridan siqilishi), qovurg'alarni bir nechtasini sinishi, nafas mushaklarini zararlanishi bilan kechadigan kasalliklar (miasteniya, FOB - fosfororganik birikmalari bilan zaharlanish, poliomielit, stolbnyak, epileptik status), hushsiz holat (uyqu dorilar ta'sirida yoki miyaga qon qo'yilishi oqibatida) kiradi .

UNE ni 3 ta darajasi farklanadi .

1.daraja – nafas etishmovchiligi belgilaridan shikoyat qiladi. Bemorlarda sarosimalik, eyforiya, terini oqarganli, namligi, akrotsianoza kuzatiladi. Nafas soni – 25-30 ta daqiqada, taxikardiya, arterial gipertenziya kuzatiladi.

2.daraja – bemorlar qo'zg'algan, vahimaga tushgan, gallyutsinatsiya, ifodalangan sianoz, nafas soni 35-40 marta, daqiqada. Teri nam (ter bilan qoplangan), yurak qisqarishlar soni 120-140 marta daqiqa arterial gipertenziya o'sib boradi.

3.daraja – bemor koma holatida klonik, tonik talvasalar tutadi, terida dog'li sianozlar, qorachig'ni kengayishi kuzatiladi, nafas soni 40 marta 1 daqiqada (ba'zida 8-10 marta daqiqada), nafas yuzaki bo'ladi. Puls aritmik, tez-tez, zo'rg'a seziladi, arterial gipotenziya.

Davolash: nafas yo'lining o'tkazuvchanligini erkin darajada ta'minlash (tilni ketishi, yot jismni bartaraf qilish), bemorni yonbosh tomonga, iloji boricha o'ng yonboshga yotqizish, havo o'tkazuvchi nayni qo'yish. Traxeyani intubatsiyasi yoki traxeostomiya yoki konikotomiya yoki 1-2 ta yo'g'on (diametri – 2-2,5 mm) ni nani qalqonsimon tog'aydan pastga sanchish. Oksigenoterapiya: namlangan kislorodni 4-8 l/daqiqalarda yuborish, parenximatoz UNEda. urtacha giperventilyatsiya 12 l/daqiqagacha qilinadi.

Shifoxona sharoitida davolash: 1,2 darajali UNE da bemorlarni boshqarishni yuqorilab ko'tarilgan holda o'ng yonboshda tashiladi, 2-3 darajada albatta o'pkani sun'iy ventilyatsiyasi o'tkaziladi.

IV. Yurak qon – tomir tizimi kasalliklarida bemorlarni tekshirish usullari.

4.1. Yurak qon – tomir tizimi xastaliklarida bemorni so'rab-surishtirish (interrogatio)

So'rab – surishtirish .

Shikoyatlar .

Yurak qon – tomir tizimi kasalliklarida bemorlar hansirashga, yurak sohasida va to'sh ortida og'riqqa , yurak o'ynashiga , qon tupurishga , shishlarni paydo bo'lishiga o'ng qovurg'a ostida og'riqqa , dispeptik uzgarishlariga shikoyat qiladi .

Hansirash (dyspnoe). Bu grekcha soʻzdan kelib chiqqan dys – buzilgan va pnein – nafas olish , ya'ni nafasni ogʻir buzilishi boʻlib xisoblanadi .

Hansirash – yurak etishmovchiligining eng koʻp uchraydigan belgisi boʻlib , har xil darajada boʻladi . Uning paydo boʻlish vaqtini (doimiy , xurujli) jismoniy zoʻriqish bilan bogʻliqligi , tinch holatda paydo boʻlishi kuzatiladi . Bemor hansirashni engillashtirish uchun vaziyatni oʻzgartirishi kuzatiladi .

Yurak kasalliklarida hansirash dastlab jismoniy zoʻriqishda , yurganda , zinadan koʻtarilganda va biroz vaqtdan keyin oʻtib ketadi .

Yurak nuqsonlarida dekompensatsiya davrida hansirash paydo boʻladi . Xususan mitral stenozda , aterosklerozli kardiosklerozda eksudatli plevritda va yurakni boshqa kasalliklarida boʻladi . Yurak kasalliklarida chap qorincha etishmovchiligida boʻgʻilish xurujli koʻpincha tunda paydo boʻladi . Bu xurujlar oʻta iztirobli boʻladi . Bemor tunni uyqusiz oʻtkazadi , kresloda ertalabgacha oʻtirib chikadi, xuruj davom etadi . Yurakni bunday xurujlari yurak astmasi (astma cardiale) deyiladi . U yurak klapanlari nuqsonida dekompensatsiya davrida xususan mitral stenozda , aortal nuqsonda , miokard infarktida , chap qorincha anevrizmasida , kardiosklerozda va katta qon aylanish doirasini yaqqol ifodalangan gipertoniya rivojlanadi . Klapan nuqsonlarida dekompensatsiya davrida , miyada mahalliy qon aylanishini ateroskleroz tufayli mahalliy buzilishida nafasni Cheyn – Stoks tipida buzilishi aniqlanadi .

Yurak soxasida ogʻriqqa shikoyat kiladigan bemorlarni soʻrab surishtirishda quyidagilarni aniklashtirish lozim. 1) ogʻriklar qaysi sharoitda paydo boʻladi(jismoniy zoʻrikishda, xayajonganlanda va b.) 2) ogʻrikni anik joyi (yurak choʻkkisi, toʻsh orti) 3) uni xarakteri (sikuvchi oʻtkir, ogʻirlik sezish, toʻsh ortini bosilishi va b.) 4) ular doimiy yoki xurujsimon boʻlishi. 5) uning davomiyligi 6) uni kaerga tarkalishi 7) nimadan pasayadi, yoki oʻtib ketadi. Shunday aniklashtirish diagnostikada yordam beradi.

Stenokardiyada ogʻrik xurujli yurak mushaklarini vaktinchalik ishemiyasini koronar tomirlar spazmi va unda kon aylanishini buzilishidan kelib chikadi.

Miokard infarktida ogʻrik stenokardiya dan fark kilib boshka xarakterda boʻladi. Uning jadalligi yukori buladi, uzok muddat davom etadi, bir necha soatgacha, xatto kunlarga chuzilishi mumkin. Ogʻriklar jismoniy zoʻrikish yoki xayajonlanish natijasida kelib chikadi unda , qon tomirlarni kengaytiruvchi dorilar yordam bermaydi.

Perikarditlarda ogʻrik perikardial varaklarda fibrinni oʻtishi okibatida xosil boʻladi, doimiy xarakterda boʻladi, jadalligi turli xil boʻladi. U validol va nitroglitserin tabletkasidan keyin bartaraf boʻlmaydi. Ogʻriklar endokarditlarda va oʻtkir miokarditda xam boʻladi, biroq miokard infarktidagi kabi oʻtkir boʻlmaydi. Yurak nevrozlarida oqʻriq toʻsh ortida boʻlmaydi, yurak choʻkkisida boʻlib, tarkalmaydi, doimo bemorni bezovta kiladi, xar xil emotsiyalar bilan bogʻlik boʻladi.

Aortaning xar xil sifilitik mezoaortit, aorta anevrizmasi, gipertoniya da aortani kengayishida zararlanishlarida bemorlar toʻsh orti soxada ogʻriqqa shikoyat kiladilar. Qon aylanishining buzilishida, yurak nuksonlarida va boshka yurak kasalliklarida bemorlar jigarda qonni keskin dimlanishida va Glisson kapsulasini choʻzilishi natijasida oʻng kovurgʻa ostida ogʻrik sezadi.

Yurak oʻynashi yurakni tez kiskarishlarini bemor yurak oʻynashi sifatida xis qiladi. U normada sogʻlom kishilarda jismoniy zoʻrikishlarda uchrashi mumkin (yugurganda, zinadan tez koʻtarilganda, ogʻir yukni kʻyarganda va x.). Yurak ʻynashi xarorat koʻtarilganda, infeksiyalarda, xar xil poroklarda (yurak klapanlari nuksonida dekompensatsiya davrida, oʻtkir miokarditlarda, miokard infarktida, tireotoksik yurakda va x.). Yurak oʻynashining oʻtkir xuruj koʻrinishida xosil boʻlishi paroksimal taxikardiyalar uchun xarakterli boʻladi.

Qon tupurish (haemoptae). Kichik qon aylanish doirasida dimlanishni yurakni mitral nuqsonida , xususan mitral stenozda , shuningdek miokard infarktida va boshqa yurak qon tomir

kasalliklarini chap qorincha etishmovchiligi bilan kelganda bemorlar balg'am bilan qon kelishidan shikoyat qiladi .

Qon tupurish mitral stenoz, miokard infarkti, chanoq yoki oyog'larning venalarini tromboflebiti bilan og'rigan bemorlarda o'pka tomirlarini emboliya yoki mahalliy trombozga uchrashi natijasida o'pka infarkti rivojlanganda kuzatiladi . Qon tupurish bunday hollarda oz miqdorda balg'am bilan qonni chiqishi yoki o'pkadan qon ketish ko'rinishida bo'ladi.

Yurak astmasi uchun ko'pikli pushti rangdagi balg'am ajralishi xos bg'lib, dimlanish va tomirlar o'tkazuvchanligining ortishi bilan bog'liq bo'ladi .

Shishlar . Yurak kasalligiga chalingan bemorlar oyog'laridagi shishlarga shikoyat qiladi. Shishlar kechqurun yurgandan keyin paydo bo'ladi , keyinchalik ko'payadi . Ba'zida oyog'da shishlar doimiy bo'ladi . So'rab – surishtirilganda shishlarni jismoniy zo'riqishlar va qabul qilingan suyuqlik bilan bog'liqligini aniqlash muhim .

4.2. Yurak-qon tomir tizimi kasalliklarida bemorni umumiy ko'zdan kechirish

Yurak kasalliklari bilan bilan og'rigan bemorlarni tashqi tomondan ko'zdan kechirish bir qator belgilarni ilg'ab olishga imkon beradi , bu bemorlarni ahvolini baholash va tashxis qo'yish uchun muhim ahamiyat kasb etadi .

Ko'zdan kechirishni bemorning egallagan vaziyatini baholashdan boshlanadi , keyin terini , shilliq qavatlarni rangiga , shishlarga, yurak sohasiga , qo'l va oyoqlardagi periferik qon tomirlarga qaraladi .

Bemorning vaziyati . Yurak kasalliklari bilan og'rigan bemorlar qon aylanishi engil darajasida kompensatsiya davrida erkin harakatlanadi , shikoyat qilmasliklari mumkin . Yurak etishmovchiligining yaqqol keskin rivojlanishlarida bemorlar yotoqda bosh tomonini yuqori qilib, boshni ostiga ko'plab yostiqlar qo'yib yotadilar yoki ularga maxsus bosh ostiga qo'yiladigan moslama beriladi , yarim o'tirgan holatni egallaydi va ahvoli biroz engillashtiriladi . Bemorlar chalqancha yoki o'ng yonbosh tomonga yotqiziladi , yurakdagi noxush sezgilardan qutulish maqsadida chap yonboshga yotqizilmaydi .

Yurak etishmovchiligi yaqqol ifodalangan hollarda, ayniqsa chap qorincha etishmovchiligida uni yurak astmasi xurujiga olib kelishida bemorlar xarkaterli majburiy holatni egallaydi . Ular kresloda yoki to'shakda o'tiradi , oyoqlarini pastga osiltirib , boshini yostiqa qo'ygan holatda bo'ladi . To'shakda yotishga urinish ularda bo'g'ilish xurujiga sabab bo'ladi . Ba'zan ular haftalab o'tirishadi , tunda uxlamaydi , toki yurak va siydik ayiruv faoliyatini yaxshilaydigan vositalarni samara bergunga qadar kutadi .

Bemor majburiy vaziyatni egallaganda hansirashni kamayishi oyoqlarni pastga tushirilganda qonni pastki qismga harakati tufayli kichik qon aylanish doirasida dimlanishni kamayishi , diafragmani ekskursiyasi ortishi bilan bog'liq bo'ladi. Bunday holat yurak klapanlari nuqsonlarida, kardiosklerozda chap qorincha anevrizmalarida ularni miokard infarkti yoki boshqa kasalliklar fonida paydo bo'lib yurak faoliyatining pasayishi bilan kechishlarida kuzatiladi .

Eksudatli perikarditlarda bemorlar tizza – bilak vaziyatini egallaydi yoki yarim egilgan holatda o'tiradi , majburiy holatni egallab o'ziga biroz engillik yaratadi . Stenokardiya xuruji paytida bemor y'tirishni ma'qul ko'radi .O'tkir yurak etishmovchiligi (shok, kollaps) da bemorlar gorizontol holatda yotadi . Bemorning turish uchun intilishi obmorokka sabab b'ylishi mumkin .

Teri va shilliq qavatlarni ko'zdan kechirish . Yurak kasalliklari bilan og'rigan bemorlarni ko'zdan kechirishda teri va shilliq qavatlarning rangiga e'tibor qaratiladi , yurak kasalliklarida keskin ifodalangan oqarish yoki ko'karish kuzatilishi mumkin . Teri va shilliq qavatlarda gemorragik toshmalarning uchrashi diagnostik ahamiyat kasb etadi . Sianoz (cyanosis) yurak kasalligiga chalingan bemorlarda qon aylanishining etishmovchiligida teri va shilliq qvatlarning sianotik (ko'karish) belgilari kuzatiladi .

Ko'karishning jadalligi har xil bo'ladi . Engil sianotik rangdan to qora ko'k ranggacha bo'ladi . Kasallikning boshlanishida sianoz lablarda, burun uchida, yonoqlarda , qo'l barmoqlarida terisi yupqa bqo'lgan joylarda bo'ladi, keyinchalik uni rangi jadallanib , qo'l terisini ko'k rangga kiritadi (akrotsianoz) , hattoki gavda ko'k tusga kiradi . Sianoz mitral nuqsonlarda , asosan mitral stenozda uchraydi . Bunda yonoqni o'ziga xos ko'k rangga kirishi facies mitralis (mitral nuqsonli bemorning yuzi) deb nom olgan .

Tsianozning keskin yuqori darajasi tug'ma yurak nuqsonlarida (o'pka arteriyasini torayishi va b. yurak nuqsonlarida) . Shuningdek o'pka arteriyasining sklerozi (Aerza kasalligi)da uchraydi . Bunday holatlarda sianoz keskin darajada ortadi , bu kasallik morbyus coeruleus (ko'k kasallik) nomini oladi .

Tsianoz o'pka yurak etishmovchiligida o'pkaning surunkali kasalliklari (pnevmoskleroz va b.) da bronxoektaz kasalligi, o'pka enfizemasida ham uchraydi . Ba'zan sianoz hpka arteriyasi emboliyasi, pnevmotoraksda tusatdan rivojlanadi . Sianoz qonda qaytarilgan gemoglobinning miqdorini ortishi bilan ifodalanadi, uni rangi oksigemoglabinga nisbatan to'q rangda bo'ladi. Sianotik rangni shakllanishida venoz dimlanishlar, venalarni kengayishi kuzatilib, u yurak o'ng qismining etishmovchiligi tufayli kelib chiqadi. qaytarilgan gemoglobinning qonda ortishiga bir necha xil sabablar bo'ladi.

Markaziy sianozda o'pkaning xar xil kasalliklari tufayli qonni normal arterializatsiya jarayoni buziladi, shundan so'ng ypkadan oqib boradigan qon kislorod bilan to'yinmaydi. Boshqa turdagi sianoz periferik bq'lib qon xarakatining sekinlashuvi va kislorodning atrofidagi to'qmalarga ko'plab sarflanishi tufayli kuzatiladi. Bunday xolatlarda qon tarkibida norma nisbatan yuqori darajada qaytarilgan gemoglobin aniqlanadi. Periferik sianozning sabablari yurakni xar xal kasalliklari oqibatida qon aylanishining buzilishi bo'lishi mumkin. Aralash turdagi sianozda ikkita sababchi kasalliklar bir vaqtda uchraydi. Yurak kasalliklarida sianoz ko'pincha aralash xarakterli bo'lada. Sianozning mexanizmlari qo'llanmaning umumiy bo'limida yoritilgan.

Tsianoz shuningdek mahalliy ham bo'lishi mumkin . U qo'l va oyoqlarning tromboflebitlarida kuzatilib bu tomirlarda venoz oqimning qiyinlashuvi bilan bog'liq bo'ladi . Mahalliy sianoz kattalashgan limfa tugunlari yoki chandiqlar tufayli venalarning bosilishidan paydo bo'lishi mumkin. Ba'zida mahalliy sianoz alohida ko'k dog'larni qorin devorida ko'rinishi holida o'tkir pankreatitlarda kuzatilishi ham mumkin .

Oqarish. Teri qoplamlari va shilliq qavatlarining oqarishi odatda aortal yurak nuqsonlarida uchraydi , mitral nuqsonlarda esa ko'karish kuzatiladi . Asosan ifodalangan oqarish aorta og'zi stenozida , qorincha sistolasi paytida tomirlarni qonga kam to'lishida hamda diastola payti ularni reflektor spazmida kuzatiladi .

Teri qoplamlarining oqarishi aorta klapanlarining etishmovchiligida diastola paytida prekapiyarning etarlicha bo'lmagan holda qonga tulishishi natijasida yuzaga keladi.

Yaqqol oqarish endokarditlarda og'ir qaytalama va cho'ziluvchan septik endokardit natijasida eritrotsitlarni gemolizga uchrashi tufayli anemiya yuzaga keladi .

Kollapsda qon – tomir etishmovchiligi rivojlanib bemorda teri qoplamlarining oqarishi kuzatiladi .

Teri qoplamlarining va shilliq qavatlarining sag'ish rangga kirishi mitral paroklarning yaqqol ifodalangan dekompensatsiya davrida , hamda yurakning boshqa o'ng qorincha etishmovchiligi bilan kelgan kasalliklarida po'st shox pardasining va teri qoplamlarining engil ikterikligi aniqlanadi . Bunday hollarda engil sarg'ayishlarning paydo bo'lishi jigardagi dimlanishlarning mavjudligi bilan bog'liq bo'lib, rivojlanayotgan sirrotik jarayonlar (kardial jigar serrozi) dan darak beradi .

Cho'ziluvchan septik endokarditlarda teri qoplamlarining oqarishi bilan ularning engil darajada sarq'ayishi kuzatiladi . Terining bunday tusga kirishi "kofe bilan sut"("caffe au lait") deyiladi . Yurak kasalliklarida teri va shilliq qavatlarining rangining o'zgarishi bilan birgalikda

petixial , gemorragik toshmalarni teri va kon'yuktivida kuzatish (Lukin simptomi) mumkin . Bu simptom cho'ziluvchan septik endokarditlar uchun xarakterli bo'ladi .

Teri osti qavati . Uzoh muddat qon aylanishining buzilishida , asosan klapan nuqsoni bor bemorlarda birdaniga ozish bilan birgalikda shishlar kuzatiladi . Ushbu xolatdagi qon aylanishining buzilishini bunday kurinishi yurak nuksonining kaxektik bos'ichi deyiladi . Bunga ?arama – ?arshi bulgan ?olat yurakni yo? bosishi ?on aylanishini buzilishiga olib keladi .

Shishlar (oedema) . Yurak kasalligiga chalingan bemorlarda shishlar yurak etishmovchiligining belgisi sanaladi , eng asosiysi o'ng qorinchani unda venoz bosimni ortishi tufayli qonni harakati sekinlashishi va kapilyarlar o'tkazuvchanligining ortishi to'qimaga suyuqlikni transudatsiyasi kuchayadi . Yurak shishlarining rivojlanishini asosiy sababi kapilyarlardagi gidrostatik va onkotik bosimning o'zaro muvofiqligini buzilishi hisoblanadi . Ma'lumki gidrostatik bosim onkotik bosimdan yuqori bo'lsa , qonning suyuq qismini atrof to'qimalarga transudatsiyasi va buni teskarisi ro'y beradi . Bu quyidagida ko'rinadi . Me'yorda kapilyarning arterial oyoqchasida gidrostatik bosim 400 – 450 mm suv ustun bo'lib plazmaning onkotik bosimidan oshadi , u erda bosim 350 mm suv ustuniga teng buladi. Bu me'yorda qondagi suyuqlikni to'qimaga o'tishiga imkon beradi . Kapilyarning venoz oyoqchasida gidrostatik bosim normada yuqoridagiga teskaricha , plazmadagi onkotik bosim taxminan 170 mm suv ustuni bo'lib , suyuqlikni to'qimadan qayta qonga transudatsiyasiga o'tishiga olib keladi. Bu sharoit normada suyuqlikni qondan to'qimaga transudatsiyasini muvofiqlashtiradi va to'qimadan qayta qonga o'tishiga olib keladi . O'ng qorincha etishmovchiligida asosan mitral nuksonlarda , uch tabaqali klapan etishmovchiligida , o'pka yurak etishmovchiligida aterosklerotik kardiosklerozda va yurakning boshqa kasalliklarida katta qon aylanish doirasi venalaridan o'ng qorinchaga qonni kelishi qiyinlashadi , venalarda va kapilyarlarda gidrostatik bosimni oshishiga olib keladi . Buning oqibatida kapilyarlarning arterial oyoqchalaridan ty?imalarga suyuqlikni kelishi ortadi va to'qimadan venoz kapilyarga qaytadigan suyuqlikni oqishi sekinlashadi . Bu to'qimada suyuqlikning to'planishiga , shish hosil bo'lishiga olib keladi . Kapilyar venoz oyoqchasining kengayishi , undagi qon harakatining sekinlashuvi , uni devorini oziqlanishini buzilishiga , uni ytkazuvchanligini ortishiga va shishni rivojlanishiga olib keladi .

Shishlarning paydo bo'lishiga bo'yракka qon kelishini pasayishi tufayli ayiruv funktsiyasining buzilishi ham zamin hozirlaydi . To'qimada almashinuvni buzilishi chala oksidlangan mahsulotlarning va xlorid natriyning to'qimalarda suyuqlikni saqlab holinishiga olib keladi . Oqibatda, qon onkotik bosimni pasayishi yurak nuksonlarini kaxektik bosqichida uchraydi , shishlarning rivojlanishida ma'lum rol o'ynaydi . Yurak kasalliklarida bemorlarda shishlarning paydo bulishi gidrostatika qonunlariga bo'ysunadi , bo'yрак shishlaridan farq qilib uzoq va pastga joylashgan bo'ladi , boshida tovonda asosan kechqurun ko'p yurganda paydo bo'ladi , dam olgandan so'ng ertalab ketadi . Keyinchalik shishlar ko'payadi va tizza , son, bel , jinsiy a'zolar , qorinda(ascites) plevral bo'shlig'da (hydrothorax), perikardda (hydrothorax) kuzatiladi tarqoq , ko'p miqdordagi shishlar anasarka (anasarca) deb nomlanadi .

Ta'kidlash lozimki , yurak shishlari og'irlik kuchi ta'siri natijasida o'rmini o'zgartirishi mumkin – chalqancha yotganda ular dumgaza sohaga yo'naladi , yonbosh yotganda yotqizilgan tomonga yo'naladi . Yurak shishlari buyrak shishlaridan farqli bo'lib, teri qoplamlari ko'kimtir rangda bo'ladi . Teri osti qavatlariga suyuqlik to'planishi bilan parenximatоз a'zolarida , jigarda, buyrakda , oshqozon – ichaklarda sezilarli shish paydo bo'ladi .

Ba'zi bir kasalliklarda – qo'l va oyoqlarning tromboflebitlarida , tomirlarni kattalashgan limfa tugunlari bilan siqilishida , mahalliy qon aylanishini buzilishi rivojlanadi va maqalliy chegaralangan shishni paydo qiladi . Eksudativ va yopishuvchan perikarditda yuqori kovak venani ko'ks oralig'idagi o'smasi bilan siqilishida yuzda , bo'yinda keskin ifodalangan shishlar rivojlanadi bu stoks yoqasi deyiladi . Gemiplegiyalarda falajlangan qo'l va oyoqlarda shish kuzatiladi .

Shishlarni ko'zdan kechirib, keyin palpatsiya yordamida katta barmoq bilan tovon sohaga os tibiasini ichki yuzasiga, dumg'azaga va tananing boshqa qismlariga bosib aniqlanadi . Bosilganda chuqurcha hosil bo'ladi , keyinchalik sekinlik bilan silliqiladi . Shishlar bo'lsa teri yaltirab ko'rinadi , boshida yumshoq , uzoq muddatdagi shishlarda qattiqlashadi , qiyinchilik bilan bosiladi . Katta shishlarda ba'zan pufaklar paydo bo'ladi , yorilib ichidan suyulqik chiqadi . Qorinning teri osti kletchatkasini keskin shishlari yorilib undan chandiq hosil bo'ladi , xuddi qomiladorlikdan keyingi chandiq (striae gravidarum) ga o'xshaydi .

Shishning kamayishi yoki kŷpayishini aniqlash uchun diurezni aniqlash va bemorni tarozida o'lchash tizimli ravishda bajariladi . "Nog'ora tayoqchalari" belgilarini topilishi tug'ma yurak nuqsonlari va cho'ziluvchan septik endokarditdan darak beradi .

Yurak sohani va periferik tomirlarni kŷzdan kechirish .

Tug'ma va orttirilgan yurak nuksonlariga chalingan bemorlarni ko'zdan kechirganda ko'krak qafasini yurak sohasini bo'rtib chiqqanligini yurak bukriligini aniqlanadi . Bunday burtib chiqish perikarditda ko'p miqdorda eksudat to'planishi natijasida ham bhladi (eksudativ perikarditda) ko'krak qafasining deformatsiyasi aortani anevrizmida uni to'shni birikkan qismiga va qovurg'ani tog'ay qismiga doimiy bosim ta'siri natijasida rivojlanadi . Bunda ko'krak qafasini mahalliy bo'rtishi uni bu sohada bir vaqtda pulsatsiyasi bilan birgalikda ko'rinadi . Oxiri ko'krak qafasini kifoskloliozida deformatsiyaga uchrashi kichik qon aylanish doirasida qon aylanishi uchun normal bo'lmagan sharoitni hosil qiladi , kifoskoliotik yurakni rivojlanishiga olib keladi . Sog'lom kishilarda yurak sohani ko'zdan kechirish o'rtacha rivojlangan teri osti qavati bo'lganda , yurak chŷqqisi sohada ko'krakni oldingi davrda aniq ritmik pulsatsiyasi ko'rinadi , bu yurak turtkisi deb nomlanadi . Yurak uchi turtkisi normada V qovurg'a oraliqida chap o'rta o'mrov chizig'idan 1-2 sm ichkarida joylashadi, ba'zan ko'zga tashlanadi.

Ozg'in kishilarda qovurg'aaro oraliq keng bo'lganda yurak uchi turtkisi yaqqol ko'rinadi. Semiz kishilarda, qovurg'alarora oraliq tor bo'lganda u ko'zga tashlanmaydi. Tashxis qo'yishda asosan cho'qqi turtkisini tashqi tomonga siljishi muxim . U chap qorinchaning dilyatatsiyasida, asosan aortal nuksonlarda va gipertoniya kasalligida uchraydi. Cho'qqi turtkisini tashqi tomonga siljishi mitral klapan etishmovchiligida, kardiosklerozda va o'ng qorinchani kengayishida chap qorinchani chapga siljitadi. Chŷqqi turtkisi eksudativ plvritda , pnevmotoraksda, gidrotoraksda xam siljiydi.

Yurak sohasini ko'zdan kechirishda ba'zan aniq ifodalangan tarqoq pulsatsiya ko'rinadi . U ko'pchilik holatlarda yurakni sezilarli kengayishlarida o'ng qorinchani katta yuzasi ko'krak devoriga bevosita yotganida (yurak turtkisi) kuzatiladi . Bunday tarqoq yurak sohadagi pulsatsiya orqa ko'ks oralig'i o'smasida va boshqa kasalliklarda yurakni biror sabab bilan oldinga siljishida kuzatiladi .

Yurak xastaliklariga chalingan bemorlarni tashqi tomondan kŷzdan kechirishda diqqatni bo'yin , qo'l – oyoqlar va periferik tomirlarga qaratiladi , bunda tashxis uchun ahamiyatga ega simptomlar topiladi . Qalqonsimon bezni o'lchamini kattalashishi bo'yinni ko'zdan kechirishda aniqlanadi , bu usul bemorlarda taxikardiya, aritmiya va yurakni kengayishidan darak beradi . Bo'yin sohani ko'zdan kechirishda uyqu arteriyasini yaqqol pulsatsiyasi aniqlanadi . Bu simptom "korotid o'yini" nomini olgan bo'lib, aortal klapan etishmovchiligidan darak beradi , u maksimal va minimal arterial bosim o'rtasida keskin tebranishni bildiradi . Bu simptom ba'zan Bazedov kasalligida keskin ifodalangan taxikardiya va gipertoniya uchraydi .

Aorta klapani etishmovchiligida o'ziga xos fenomen belgini boshni chayqalishi (Myusse simptomi) ni ko'rinadi u uyqu arteriyasini keskin pulsatsiyasi va maksimal va minimal bosimni keskin pasayishi natijasida yuzaga keladi .

«Karotid q'yini» simptomi klapan etishmovchiligida odatda periferik tomirlarni (art. Subclavia, brachialis, radialis va boshqalar) pulsatsiyasi bilan birgalikda keladi . Hamma tomirlarni bunday keskin pulsatsiyasi Homopulsans (pulsatsiya qiluvchi odam) deb nomlanadi .

Bo'yinda uyqu venalarining pulsatsiyasi va bo'rtib chiqishi o'ng bo'lmachaga venoz qonni quyilishini qiyinlashishi oqibatida yuzaga keladi .

Normada sog'lom kishilarda yotgan vaziyatda venalarning bo'rtib chiqishi ko'rinishi mumkin , lekin bu vertikal vaziyatda to'liq ketadi . Agarda bunday vaziyatda venani bo'rtib chiqishi kuzatilsa unda o'ng qorincha etishmovchiligini shubha qilish mumkin , eksudativ plevrit o'pka emfizemasi, pnevmotoraks va b . natijasida rivojlanadi . Bo'yin va qo'l venalarining keskin kengayishi bilan bir vaqtda bo'yinda va qo'lda shish bo'lishi (Stoks yoqasi) yuqori kovak venani o'sma bilan aorta anevrizmasi bilan bosilishi yoki yuqori kovak vena trombozi tufayli yuz beradi .

To'shni pastki qismida va qorin oldingi devorida venalarning kengayishi ko'ks oralig'i o'smalari natijasida chuqur venalarning bosilishi oqibatida yuzaga keladi . Uyqu venalarining pulsatsiyasini qorinchalar sistolasi bilan birga kelishi (ijobiy vena pulsi deb nomlanadi) uch tabaqali klapani etishmovchiligini xarakterli belgisi hisoblanadi . Bunday hollarda venani barmoq bilan bosilganda uni pastida pulsatsiya aniqlanadi . To'liq yopilmagan o'ng atrioventrikulyar teshikni qorinchalar sistolasi davrida qonni retrograd harakati natijasida yuzaga keladi . Ko'krak qafasini ko'zdan kechirganda qovurg'alararo arteriyani kengayishini va pulsatsiyasini aorta bo'ynini torayishi oqibatida (stenosis ustus aortae) yuzaga keladi . Epigastral sohada pulsatsiya bo'lishi kengaygan va gipertrofiyalangan o'ng qorincha yoki qorin aortasini pulsatsiyasi tufayli yuzaga keladi . Qo'l venalarining kengayishi sog'lom kishilarda uchraydi , biroq qo'lni yuqoriga ko'tarilganda u ketadi , venoz qonni o'ng bo'lmachaga kelishi qiyinlashgan holda (o'ng qorincha etishmovchiligida) venaning bunday bo'shshishi kuzatilmaydi .

Bu katta qon aylanish doirasida venoz bosimning oshganidan dalolat beradi . Oyoqlarda ba'zan venalarning varikoz kegayishi asosan ko'p tuqqan ayollarda ko'pincha aniqlanadi . Tromboflebit ko'p holda mahalliy shish ba'zan esa pigmentatsiya va trofik yara bilan birga keladi .

Qo'l – oyoqlarni ko'zdan kechirganda yurak xastaliklarida barmoqlarni “nog'ora tayoqchalari ” ko'rinishida o'zgarishi aniqlanadi . Bu belgi qo'l barmoqlarida yaxshi aniqlanadi , biroq buni oyoq barmoqlarida ham aniqlash mumkin . U tug'ma yurak nuqsonlarida uchraydi, shuningdek septik endokarditda , o'pka yurak etishmovchiligida (agar uni sabablari bronxoektaz kasalligi yoki o'pkani yiringli kasalligi bo'lsa) uchraydi .

Yurak sohasini ko'zdan kechirish .

- Normada
- yurak uchi turtkisi
- chap o'rta o'mrov chizig'i , 5 – qovurg'a oralig'ida
- patologiyada
- boshqa ma'lumotlar ichki kasalliklar sabablari



4.3.Yurakni fizikal baholash .

Klinika sharoitida bemorni chalqancha yotganda yurakni eshitish qiyinlashganda chap yonboshga aylantirib , o'tirgan holatda oldinga biroz egiltirib eshitish lozim . Ikkala holda yurak tonlari yaxshi eshitiladi, chunki yurak k'krak devoriga yaqin kelib yaxshi eshitiladi . Yurak tonlari qiyin eshitilsa “distant” (alohida) ton deyiladi , engil eshitiladigan yurak tonlari “aniq” ton deyiladi . Ko'pincha yog' bosgan yoki ko'krak qafasi enfizematoz bo'lgan bemorlarda yurak tonlarini eshitish qiyinlashadi . Birinchi navbatda yurak chastotasi , ritmi va yurak qisqarishini jadalligini baholanadi . Ko'pchilik tibbiyot muassasalarida hamma yurak glikozidlari qabul qilgan

bemorlarda dorini qabul qilgunga qadar apikal puls aniqlanadi, yurak qisqarishlar sonini aniq belgilashda buni doriga bo'ladigan javob reaksiyasini tahlil qilishda muhim .

Istalgan yurak qisqarishini ritmini maromini buzilishini (regulyar vaqt oralig'ida bo'ladigan M: yurak urishini har 3 - qisqarishi) aniklash lozim..

Shuningdek xoxlagan regulyar bo'lmagan yurak ritmining buzilishi (m: o'tkazib yuborilgan yoki ba'zan o'tkazilgan yoki navbatdan oldingi yurak urishi) baholanadi. Yurak qisqarishlarini belgilanadi. Hamshira I va II ton (S1 , S2) ni farqlay olishi lozim. Buni bajarish normal va sekin yurak ritmida muxim. Yurak tonlari yurak klapanlarini yopilishida hosil bo'ladi. Sistola I va II ton o'rtasida , diastola II va I ton o'rtasida hosil bo'ladi. I ton 5 – qovurg'a oralig'ida o'rta o'mrov chizig'idan ichkarida (yurak cho'qqisida), II ton 2 – qovurg'a oralig'ida to'shdan o'ng tomonda (yurak asosida) eshitiladi , bu joyda birinchi ton aniq eshitiladi . Yurak cho'qqisida tonlarni stetoskopikni boshcha qismi yordamida, yurak asosida esa tonlar fonendoskopni diafragmasi yordamida aniq eshitiladi. Ikkala variantni ham bajarish lozim, chunki aniq hollarda tonlarni yaxshi eshitilishi lozim. Agar siz yurak tonlarini farqlay olmasangiz, uyqu arteriyasida pulsni aniqlang, uyqu arteriyasidagi puls I ton bilan mos keladi .

Yurakni fizikal ba'olashning muolajasi .

1. Yurakni fizikal baholash yurak patologiyasini aniqlashda m: pulsni tez – tez yoki maromini buzilishida muhim .
2. Baholash uchun stetoskopni tayyorlanadi. Eshitish uchun quloqqa qo'yiladigan qismlarini spirt bilan artiladi , chunki gigienik qoidalarga amal qilinishi lozim .
3. Bemorga tushuntiriladi , nima qilinishi tugrisida aytiladi, muolaja paytida gapirmasligi so'raladi. Tekshirish paytida tinchlikni ta'minlanadi m: televizorni uchiriladi , eshikni yopiladi .
4. Bemordan o'tirishini so'raladi. (agar iloji bo'lsa) .
5. Bemordan yuza kiyimlarini yoki pijamani echishini so'raladi.
6. Yurak auskultatsiyasini o'tkaziladi. Yurak tonlarini eshitishning aniq tizimiga amal qilinadi. Yurakni auskultatsiya qilishning tarqalgan ketma – ketligiga amal hilinadi:

Stetoskopni diafragmasini kulda isitiladi. . Diafragmani II qovurg'a oralig'iga to'shning o'ng qirrasiga (aortal klapan proektsiyasiga) qo'yiladi , keyin diafragmani II yoki III qovurg'a oralig'iga to'shni chap qirrasiga siljtiladi (o'pka arteriyasi klapani proektsiyasi) . Keyin 5 – qovurg'a oralig'ida to'shni chap qirrasiga (3 tabaqali klapan proektsiyasi) , keyin 5 – qovurg'a oralg'ida chap o'rta o'mrov chizig'idan ichkari(mitral klapan sohasi) ga qo'yiladi. Yurakni I va II tonlari (S1 , S2) normada bolalar va kattalarda eshitiladi . I ton mitral qopqoq sohasida “Lab” tovushiga o'xshab “lab dab” birgalikda kelgan tovushlarning bir qismi bo'lib, yurak auskultatsiyasida eshitiladi . II ton “dap” aortal klapani sohasida eshitiladi . III va IV ton (S3 va S4) kattalarda patologik, bolalar va yoshlarda norma hisoblanadi(odatda mitral va aortal qopqoqlar sohasida yaxshi eshitiladi) .

Yurak qisqarishlar sonini sanaladi .

- yurak ritmini baholanadi , uni buzilish maromini baholanadi .
- yurak tonlarini farqlashda qiyinchilik bulsa, I va II tonni eshitishda I tonni uyqu arteriyasi pulsatsiyasi bilan mos tushishiga asoslaniladi .
- Tekshirish natijalarini to'g'ri hujjatlashtirish talab qilinadi.

4.4. Yurakni paypaslash texnikasi

Yurak ch'qqisi sohasi va yurak turtkisini paypaslash . Cho'qqi turtkisini aniqlash uchun chap qorinchani faoliyati to'g'risida ma'lumotga erishishda tekshiruvchi o'ng qo'lini kaftini shunday joylashtirishi lozimki bunda barmoqlar cho'qqi turtkisi usti sohasini yopishi lozim .

Shundan so'ng cho'qqi turtkisi to'g'risida umumiy tasavvur hosil qilinib , uning xususiyatlarini chuqur o'rganish kerak .

Palpatsiya yordamida cho'qqi turtkisini aniq lokalizatsiyasini, kengligini , maydonini , kuchini va kattaligini aniqlash lozim . Buning uchun cho'qqi turtqisini aniqlashda o'rta barmoqni cho'qqi turtqisi sohasiga qo'yiladi , uning aniq lokalizatsiyasi belgilanadi . Normada u 5 – qovurg'a oralig'ida o'rta o'mrov chizig'idan 1 - 2 sm ichkarida joylashadi. Chap yonboshga yotganda cho'qqi zarbi 2 sm chapga siljiydi, o'ng tomonga yotqizilganda esa sezilarli siljimaydi . Cho'qqi zarbini siljishi yurakka bog'liq bo'lmagan sabablardan (diafragmaning turish balandligiga , ko'krak bo'shlig'i bosimining o'zgarishiga, o'pkani bujmayish jarayoniga) bog'liq . Diafragmaning yuqori turishi qorin bo'shlig'ini bosimi ortishi (astsit, meteorizm, yog' bosishi , homiladorlik va b.) da uchraydi, bunda yurak gorizontol vaziyatni egallaydi, yurak turtqisi yuqoriga va tashqariga (chapga) siljiydi. Diafragmani pastga joylashishi (qorin bosimini pasayishi, o'pka emfizemasi, astenik tipdagi gavda tuzilishi va b.) yurakni vertikal joylashishiga va cho'qqi turtqisini pastga va ichkariga (o'ngga) siljishiga olib keladi .

Plevra bo'shliqlarida bosimning ortishi (eksudatli plevrit, bir tomonlama gidrotoraks, gemotoraks, pnevmotoraks) yurakni qarshi tomonga siljitadi , oqibatda cho'qqi turtqisi ham siljiydi .

O'pkada biriktiruvchi to'g'ima o'sib bujmayganida obturatsion atelektaz rivojlanib (bronxogen o'pka raki, yot jism) cho'qqi turtqisi zararlangan tomonga qarab siljiydi .

Yurak kasalliklarida chap qorinchani kengayishi va gipertrofiyasida (aortal qopqoq nuqsonlarda , mitral qopqoq nuqsonlarida , aterosklerotik kardiosklerozda katta qon aylanish doirasida bosim ortganda va b.) turtki zarbi chapga siljiydi , aorta qopqoq etishmovchiligida esa turtki zarbi chapga va pastga siljiydi .

Tug'ma anomaliyalarda – ichki a'zolarning teskari joylashishida (situs viscerum inversis) yurak ko'krakni ko'proq o'ng qismida joylashadi , cho'qqi turtkisi ham shu tomonga siljiydi . Shuni alohida ta'kidlash mumkinki , yaqqol ifodalangan eksudatli perikarditda cho'qqi turtkisi ko'pincha paypaslanmaydi yoki yurakni chap nisbiy chegarasiga mos kelmaydi va undan ichkarida paypaslanadi . Cho'qqi turtkisi chap plevra bo'shlig'ida ko'p suyuqlik to'planganida (eksudativ plevritda, chap tomonlama gidrotoraks, gemotoraksda) paypaslanmaydi . Normada cho'qqi turtkisini kengligi (maydoni) 2 sm kvadratni tashkil qiladi. Agar maydon kengligi kichraysa, turtki chegaralangan , katta bo'lsa – tarqoq deyiladi . Chegaralangan turtki bo'lishida yurak ko'krak devoriga normaga nisbatan kichik yuzasi bilan yotadi . Patologik holatlarda bu ko'pincha o'pka emfizemasida, o'pka yurakni ko'p qismini qoplaganida va uni ko'krak devoridan siljitganida kuzatiladi. Tarqoq turtki buning teskarisi, yurakni katta yuzasi bilan ko'krak devoriga yotganida, yurakni kengayishlarida, agar yurak kasalliklari inkor qilinsa yurakdan tashqari sabablar (o'pkani bujmayishi, diafragmaning baland turishi, orqa ko'ks oraliqini o'smasi) tufayli aniqlanadi .

Cho'qqi turtqisini kattaligi va balandligi cho'qqi terisini sohasidagi tebranish amplitudasi bilan xarakterlanadi. Baland va past cho'qqi zarbi farqlanadi. Qoidaga binoan yurakni katta sathini ko'krak qafasini devoriga tegib turishida (sabablari yuqorida ko'rsatilgan) shuningdek yurakni tez qisqarishlarida cho'qqi turtqisi yuqorida joylashadi, agar yurak orqa tomonga siljigan bo'lsa, shuningdek boshqa sharoitlar (yog' bosish , mushaklar yaxshi taraqqiy qilgan paytda) cho'qqi turtqisini balandligi pasayadi. Bundan kelib chiqadiki, tarqoq va yuqori cho'qqi turtqisi yurakni kengayishidan (yurakdan tashqari sabablar inkor qilinsa) dalolat beradi. Kuchli yurak turtqisi natijasida yurak sohasi bo'rtib chiqadi, cho'qqi turtqisining kuchayishi odatda chap qorincha gipertrofiyasi va uni qisqarish kuchini ortishi bilan bog'liq .

Aorta qopqoqlari etishmovchiligida chap qorinchaning gipertrofiyasi va kuchli “ko'tarilgan” “gumbazsimon” cho'qqi turtqisi aniqlanadi .

Perikardni ko'krak qafasini old devori bilan bitishib ketishida qorinchalar sistolasi paytida ko'krak devorini ko'tarilmasdan, ichkariga tortilishini ko'rinadi. Cho'qqi turtqisini bunday ko'rinishi manfiy cho'qqi turtqisi deb nomlanadi .

Cho'qqi turtkisidan tashqari yurakni o'ng qorinchasini faoliyatini belgilovchi yurak turtkisiga ahamiyat berish lozim. Sog'lom kishilarda u ko'zga tashlanmaydi. O'ng qorinchani gipertrofiyasi va dilyatatsiyasida yurakni absolyut tumtoklik chegarasi soxasida yaqqol ifodalangan pulsatsiyani ko'z bilan k'yrish yoki paypaslab sezish mumkin .

“Mushuk xirillashi” simptomini aniqlash. Palpatsiya yordamida “mushuk xirillashi” (fremissement cataire) simptomini aniqlash muhim diagnostik ahamiyat kasb etadi. Bu simptom frantsuz klinitsistlari tomonidan yozilgan. Nom berilishida xirillayotgan mushukni paypaslaganda paydo bo'ladigan sezgiga o'xshash sezgi his qilinganligiga asoslangan. Bu simptom qam sistola , qam diastola davrida sezilishi mumkin , bunda yurakda past tovushlar (sekundiga 16 tebranish atrofida) hosil bo'ladi. Uni aniqlash uchun qo'lni yurakni qamma eshitish nuqtalari soqasiga qo'yiladi. Bu simptomni yurak cho'qqisida diastola davrida, ko'pincha uni oxirida aniqlansa “presistolik mushuk xirillashi” deyiladi, u mitral stenoz uchun xos bo'ladi, aorta ustida sistola paytida b'ylsa – aorta og'zi stenoz, o'pka arteriyasi ustida bo'lsa – o'pka arteriyasi stenoz yoki Botallov yo'lining bitmasligidan bo'ladi .

Yurak palpatsiyasi .

- Normada
- Cho'qqi turtkisi / PMI
- Patologiyada
- Cho'qqi turtkisini siljishi
- Ko'tarilishi / tebranishini ortishi



4.5. Yurak perkussiyasi

Yurak perkussiyasi uning kattaligini , konfiguratsiyasini , vaziyatini va tomir tutamini o'lchamini aniqlash uchun o'tkaziladi .

Perkussiyani printsipi .

Yurakni atrofidagi to'qima o'pka perkussiyasida baland tovush berishiga , yurak zich mushakli a'zo bo'lganligi uchun - past to'mtoq tovush berishiga asoslanadi . Tovushlarning bunday farqlanishi yurak chegaralarini perkussiya yordamida aniqlashga imkon beradi .

Ma'lumki yurakni old yuzasi qisman o'pka bilan qoplangan, faqat katta bo'lmagan qismigina ko'krak devoriga bevosita tegib turadi. Tabiiyki yurakning o'pka bilan qoplanmagan qismigina perkussiya qilinganda absolyut to'mtoq tovushni beradi. Uni chegarasini aniqlash “yurak absolyut chegarasini” aniqlash nomini olgan . Yurakni o'pkaning to'mtoqlik qirralari bilan qoplangan qismini perkussiya qilinganda to'mtoq tovush emas, to'mtoqlangan perkutor tovush yoki “yurakni nisbiy to'mtoq” tovushi aniqlanadi .

Yurakning nisbiy to'mtoqlik chegarasini perkussiya yordamida aniqlash , uning haqiqiy o'lchamini va ko'krak qafasidagi proektsiyasini belgilaydi . Absolyut to'mtoqlik chegarasini aniqlash esa faqat yurakni o'pka bilan qoplanmagan qismi va o'ng qorinchani holati to'grisida tasavvur qilishga imkon beradi .

Yurak perkussiyasida quyidagi qoidalarga amal qilish lozim :

Bemorning vaziyatiga ; Yurak perkussiyasini ytkazilayotgan paytda bemor vertikal holatda qo'lini pastga tushirgan holatda qo'tirishi kerak, og'ir ahvoldagi bemorlarda perkussiya gorizontal qilish bilan cheklanadi. Bunda ta'kidlash lozimki, vertikal vaziyatda yurakning o'lchamlari gorizontal vaziyatdagiga nisbatan biroz kichik (taxminan 15 – 20 % ga) aniqlanadi .

Chunki bunda difragma ko'tarilgan bo'ladi. Yurak to'mtoqligining o'lchamlariga yurakka tegib turgan o'pkaning qirralarini holati ta'sir qilishi mumkin, shuning uchun yurak perkussiyasini o'tkazishda bemordan odatdagidek yuzaki nafas olish syraladi . Hamshira yurak perkussiyasini o'tkazayotgan paytda ko'krak qafasiga plessimetr barmoqni qo'yish hamda perkutor zarbni berish uchun qulay vaziyatda turishi lozim .

Bevosita va vositali perkussiya. Yurakni perkussiya qilishda perkutor zarba barmoq orqali barmoqqa uriladi. Yurak chegaralarini Obratsov, Yanovskiy usullarida qam aniqlash mumkin .

Plessimetr barmoqning vaziyati. Yurak perkussiyasida plessimetr barmoqni ko'krak qafasi devoriga zich qo'yiladi. Bunda kutilayotgan chegaraga barmokni parallel qo'yish lozim .

Perkutor zarbaning kuchi. Perkutor zarbaning kuchi tekshiruvchining o'z oldiga qo'yan maqsadiga qarab belgilanadi. Yurakni nisbiy tumtoqlik chegarasini aniqlash uchun o'rtacha kuch bilan zarb beriladi .

Yurak absolyut to'mtoqlik chegarasini aniqlash uchun tinch perkussiya qilinadi . Ayrim klinitsistlarni ta'kidlashicha tinch perkussiyani Pleh- Goldshayder usulida o'tkazib yurak absolyut chegarasini aniqlanadi .

Perkussiyaning yo'nalishini aniq perkutor tovushdan to'mtoq tovush hosil qilinishi tomon ya'ni o'pkadan yurakka tomon perkussiya qilinadi. Biroq ayrimlarning belgilashicha bunda perkussiyani teskari holda - absolyut to'mtoqlikdan aniq perkutor tovush tomonga, ya'ni yurakdan o'pka tomonga boriladi.

Yurak chegarasini belgilash. Yurak chegarasini belgilash ypkaniki singari plessimetr barmoqni tashqi tarafidan belgilanadi .

Yurakni va tomir tutamini perkussiya kilish tartibi. Yurak perkussiyasi kuydagi tartibda amalga oshiriladi: oldin yurakni ung, keyin chap va yukori nisbiy chegarasi topiladi. Shundan sung kushimcha perkussiya erdamida yurak konfiguratsiyasi va ulchamlari (sm) aniklanadi.

Nisbiy tumtoklik chegari aniklangandan sungra yurakni absolyut, tumtoklik chegarasi va tomir tutamining ulchamlari aniklanadi.

Yurakning nisbiy tumtoklik chegarasini belgilash yurak nisbiy tumtoklik chegarasini aniklashdan ilgari diafragmaning turish balandligi tugrisida tasavvurga ega bulish lozim. Diafragmaning baland joylashuvida yurak gorizontal vaziyatni (yotuvchi yurak deb nomlanadi) egallaydi, bunda yurakni absolyut tumtoklik chegarasining ulchamlari normaga nisbatan katta buladi. Diafragmaning past joylashuvida esa v yurak vertikal joylashib ulchamlari kichik buladi.

Diafragmaning turish balandligini ulkani pastki chegarasiga karab belgilash mumkin. Buning uchun plessimetr bermokni ung tomondan 3 kovurga oraligiga kovurgaga parallel xolda urta umrov chizigidan (73a rasm) kuyilib pastga tomon perkussiya kilinadi, upkaning pastki chegarasi aniklanadi, u kovurgani tugrisida joylashadi.

Yurakning ung nisbiy chegarasini aniklash upkani pastki chegarasini aniklangandan sung plessimetr barmokni birga kovurga yukoriga (taxminan 4-kovurga oraligiga) kuyiladi, yurakni ung chegarasiga parallel xolda kuyilib, perkutor zarbni urtacha kuch bilan berilib yurak tomonga yunaltiriladi, to perkutor tovushning uzgarganicha boriladi, ya'ni anik tovushdan tumtoklikkacha boriladi.

Kon bosimini ulchash, uning normal kattaliklarini xar xil eshdagi bemorlarda bilish kon aylanish tizimining xolati tugrisida axborot beradi.

Yurak perkussiyasi.

- Yurakni ulchamlarini baxolash
- Axamiyati chegaralangan.



4.6. Yurak auskultatsiyasi

Yurak auskultatsiyasi yurakning faoliyati davomida paydo buladigan murakkab tovushlarni simptomatikasi tugrisida tasavvur xosil kilishga imkon beradi.

Yurakni eshitib kurishda kuyidagi kondalarga amal kilish lozim.

Bemorning vaziyatiga. Xamshirada yurak kon tomir tizimi kasalliklariga duchor bulgan bemorlarni xar xil vaziyatlarda – vertikal, gorizontal va etgan, chap enboshga etgan xolatlarida eshitishga kunikmalar bulishi lozim. Buni xar xil yurak klapanlarini nuksonlarida xosil bulgan tovushlarni bemorning kaysi vaziyati, xolatlarida kandy bajarilishini bilish lozim. M: aortal klapan nuksonida xosil buladigan protodiastolik shovkin bemorni vertikal xolatida yaxshi eshitiladi, mitrla klapan nuksonida etgan vaziyatda sistolik shovkin yaxshi eshitiladi. Mitral stenozda shovkin bemorni chap enboshga etkizilganda yaxshi eshitiladi yurak asosidan eshitiladigan perkardni ishkalanish shovkini gavgani biroz oldinga engashtirilganda nisbatan anikrok eshitiladi.

Xamshiraning vaziyati. Xamshira yurakni auskultatsiya kilish jaraenida bemorni ung tomonidan endoshadi. Bunda xamshira shunday xolatda turishi kerakki, bunda yurakni eshitish nuktalariga stetoskopni tugri va erkin kuyish uchun imkoniyat bulishi kerak.

Yurakni stetoskop va bevosita kulok erdamida eshitish. Odatda yurakni stetoskop eki fonendoskop erdamida eshitiladi, chunki bu yurakni xar xil nuktaraidagi shovkinlarni aloxida eshitiladi. Shunga karmasdan V.P.Obratsov va M.V.Yanovskiy yurakda xosil buladigan shovkinlarni bevosita kulok bilan eshitishga e'tiborni karatganlar. V.P.Obratsov yurakni yuevosita kulok bilan auskultatsiya kilganda soglom kishilarda 2ta emas, balki 3ta tonki eshitilishini aytgan, bu keyinchalik fonokardiografiya usulida tasdiklangan.

Yurakning ogir zararlanishlarida yuzaga keladigan galop ritmini V.P.Obratsovnig ta'kidlashicha kulok erdamida bevosita auskultatsiya kilinganda yaxshi eshitiladi.

Shulardan kelib chikib yurakni eshitishda bevosita va bilvosita auskultatsiya kilish muxim.

Nafas aktining xar xil fazalarida yurakni eshitish. Yurakni nafasni tuxtatilgan xolda eshitiladi, buni upkadagi tovushlarni bartaraf kilish, yurakdagi auskultatsiya ma'lumotlarini baxolashni kiyinlashtirmaslik uchun bajariladi. Buning uchun bemordan nafas olish va keyin chikarish suraladi va bundan keyin nafasni tuxtatiladi. Nafasni tuxtatilgan paytda yurakni eshitiladi. Chunki nafasni tuxtatish uzok muddat davom etmaydi, shuning uchun muolajani takror bajariladi.

Yurakning eshitish joylari va yurak kopkoklarining kukrak kafasidagi xakikiy proektsiyasi. Mitral kopkokning proektsiyasi III kovurgani tushki chap tomoniga birikadigan kismiga, aorta kopkogini proektsiyasi tush ortida III kovurgani togay kismida, upka arteriyasi kopkogi II kovurga oraligida tushning chap kirrasida, 3 tabakali klapan tush ortida urta chizikda III chap kovurga togayini va V ung kovurgani tushga birikish joyida joylashadi. Tabiiyki kopkoklarning teshiklarini bir-biriga yakin joylashishi u erda xosil buladigan tovushlarni aloxida ajratishga kiyinchilik tugdiradi. Shuning uchun uzok muddatda klinik kuzatuvlarga asoslanib, klapanlarning aloxida tovushlarni yaxshi eshitiladigan nuktalari joyi – yurak chukki turtkisi (80 rasm), aorta kopkogi uchun – II kovurga oraligi tushning ung kirrasi (81 rasm), upka arteriyasi uchun – II kovurga oraligida tushni chap kirrasida, 3 tabakali klapan – tushning pastki kismi, kilichsimon usimtaning asosida.

S.P.Botkin tomonidan aortada xosil buladigan kushimcha tovushlarni eshitishni kushimcha nuqtasini taklif kildi, u III-IV kovurgani tushki chap kirrasiga birikish joyiga tugri keladi. Bu 5-eshitish nuqtasi S.P.Botkin nuqtasi deyiladi.

Yukoridagilardan kelib chikib, yurakni I klapanini xakikiy proektsiyasi biroz chetrokda bulib, mitral klapani eshitish soxasiga tugri keladi.

Undagi paydo buladigan tovushlar yurak chukkisining zichlashgan, Kolin mushakli devori sistola davrida kukrak devoriga zich tegib xosil buladigan mitral klapani bu soxaja tovushlarni yaxshi utkazilishini ta'minlaydi. Aorta kopkoklarida xosil buladigan tovushlarni II kovurga oraligida tush suyagining ung kirrasida xakikiy proektsiyasidan biroz chetrokda eshitalishi kon okimi bilan tovushlarni yaxshi utkazilishi bilan boglik

Yurakni eshitish tartibi.

Yurak auskultatsiya kuyidagi tartibda utkaziladi. Oldin yurak chukkisi, mitral kopkok tovushlarini utkazilish joyi (birinchi nuqta), keyin aortal kopkok II kovurga oraligida tushning ung tomonidan (ikkinchi nuqta), upka arteriyasining kopkogi II kovurga oraligida chap tomonda (uchinchi nuqta), uch tabakali klapan tushki pastki kismida (turtinchi) nuqta va oxiri stetoskop eki fonendoskop Botkin nuqtasiga (beshinchi nuqta) aorta kopkoklaridagi tovushlarni kushimcha eshitalish joyiga kuyiladi.

Orttirilgan yurak nuksonlaridan kupincha mitral va aortal kopkok zararlanadi.

Yurakni jismoniy zurikishdan keyin eshitish. Anik bulmagan xolatlarda bemorni axvoli kutarsa, engil jismoniy zurikishdan keyin yurakni eshitaladi, masalan bemorni bir necha marta utirib turishidan, jismoniy mashk bajarishi suraladi. Bu yurakdagi tovushlarni aniklashtirishga imkon beradi (masalan, mitral stenozda presistolik shovkin) yurakni kiskarishini oshishi va koni xarakatini tezlashishi tufayli anik eshitaladi.

Soglom kishilarda yurakda eshitaladigan auskultativ ma'lumotlar. Normada soglom odamlarda 5ta eshitalish nuqtalarida 2ta eshitaladi: I, korinchalar sistolasi paytida xosil buladigan sistolik deb nom olgan, va II korinchalar diastolasi fazasida xosil buluvchi diastolik ton eshitaladi. I tondan sung kichik pauza, korinchalardan konning xaydalish davriga tugri keladi (davomiyligi Q2c ga teng). Yurakni auskultatsiyasi davrida konning korinchadan aortaga va upka arteriyasiga okishi bizga eshiltimaydi, chunki kopkoklarning teshiklari shunchalik kattaki bunda kon aylanma xarakat kilolmaydi va u erda shovkin xosil bulishiga imkon tuzilmaydi.

I ton kichik pauza bilan korinchalar sistolasini tashkil kiladi. II tondan sung katta pauza boshlanadi, bu paytda kon bulmachadan korinchaga utadi. Bunday xolatda xam kon xarakatlanib atrioventrikulyar teshik orkali utaetganda tovush xosil kilmasdan utadi, chunki teshik etarliga kattalikda buladi. Ikkinchi ton katta pauza bilan birgalikda korincha diastolasini tashkil kiladi, u 0,43 s ga teng.

Ba'zan I va II tondan tashkari III va IV tonlarni diastola davrida eshitaladi.

Uchinchi ton birinchi bulib V.P.Obraztsov tomonidan auskultatsiyada aniklanib, ezilgan. Uni xosil bulishini korinchalar devorining diastolani boshida tezda koncha tulishi paytidagi tebranishlaridan xosil buladi. III tonning davomiyligi 0,03-0,06 s ga teng. Bu ton eshlarda va usmirlarda uchraydi. Turtinchi ton I tondan keyin keladi, bulmachalar kiskarishi paytida ularning tebranishidan xosil buladi. Uning bolalar va usmirlarda fiziologik, kattalarda uchrashi esa patologik xisoblanadi.

Tonlarning xosil bulishi mexanizmi. Kulokka I ton bulib kabul kilinadigan tovush fenomeni sistolaning boshida yurakda xosil buladigan tovushlarning kushilishi natijasida kelib chikadi. Uning xosil bulishida korinchalar mushaklarini taranglashib izometrik kiskarish fazasida tebranishi (mushak komponenti), atrioventrikulyar kopkoklarni bir vaktida epilish davrida tebranishidan va kopkoklarga maxkamlangan papillyar mushaklar va paylarning tebranishlaridan (kopkok komponenti) xosil buladi.

Bundan tashkari I tonning xosil bulishida bulmachalar mushaklarining kiskarishi (bulmachalar komponenti) va aorta bilan upka arteriyasiga korinchalardan kon kelaetgan davrda tomirlar devorining tebranishi (tomir komponenti) ishtirok etadi. Bundan kelib chikadiki I ton korinchalar mushaklarining izometrik taranglashish fazasida konni tomirga xaydalishini boshlangich boskichida xosil buladi. Uni davomiyligi 0,08-0,12 s.

II tonning xosil bulish mexanizmi ixcham. U aorta va upka arteriyasining yarimoysimon kopkoklarini epilishidan va tebranishidan xosil buladi. II tonning davomiyligi 0,05-0,08 s.

Normada yurakda eshitiladigan tovushlarning sxemasi o-yurak chukkishda, b-yurak asosida, 8-sistolada p-diastrala, 1-yurak tonlarining grafik kurinishi, g-FKG, 3-EKG.

Auskultatsiyada korinchalar sistolasini diastolasidan kanday farqlash mumkin? Yurak auskultatsiyasida korinchalar sistolasini diastolasidan farqlash kerak bu xar xil yurak kasalliklarining diagnostikasida juda muxim xisoblanadi. Xar xil orttirilgan yurak nuksonlarida (mitral, uch tabakali kopkok etishmovchiligida va aorta ogzi torayishida), shuningdek tugma yurak nuksonlarida (upka arteriyasini ogzini torayishida, botallov stulini va korinchalarraro tusikni ochik kolishida) yurakda sistolik shovkin eshitiladi, boshka yurak nuksonlarida (chap va ung atrioventrikulyar teshikni torayishida, aorta va upka arteriyasini kopkogini etishmovchiligida) shovkin diastola paytida eshitiladi. Shuning uchun yurakning xar xil nuksonlarini farqlashda kaysi fazada shovkin xosil bulishini bilish muxim buladi.

Sistolani diastoladan farqlash uchun I tonni II dan farqlash lozim, chunki I ton bilan kichik pauza korinchalar sistolasiga tugri keladi, II ton kushish katta pauza – korinchalar diastolasini tashkil kiladi.

Ikkala tonlarni bir-biridan farki kuyidagi belgilar orkali buladi: birinchidan I ton yurak chukkisida II Tonga nisbatan kuchli baland va davomiy buladi, ikkinchidan u katta pauzadan sung eshitiladi. Buyurak chukkisida mitral kopkokni tovushlarni yaxshi utkazilishini; I tonni xosil bulishida mitral kopkokni tebranishi, korinchalarni kiskarishini ishtirok etishi, II tonni xosil bulishi yurak chukkisidan uzokrok joyda bulib va bu soxaga sust utkaziladi.

Bundan tashkari I ton yurak turtkisiga va uyku arteriyasini pulsiga mos keladi. Ikkinchi kovurga oraligida tushni ung tomonida (aorta) va tushki chap kirasida (upka arteriyasi) II ton I tonga nisbatan kuchli eshitiladi, chunki bu joyda yarimoysimon kopkoklarni epilishidan xosil bulgan tovush yaxshi eshitiladi.

Stetoskop:

Diaphragma: yukori tonli tovushlar

- S1, S2
- Aortal va mitral konfiguratsiya

Kolokoloobrazniy qism: Past tonli tovushlar

- S3, S4
- Mitral stenozdagi shovkinlar

Odatdagi vaziyatlar:

- Utirgan
- Etgan

Boshka vaziyatlar:

- Utirgan, biroz oldinga erilgan
- Enboshga etgan

Eshitish namunasi

- Chastota va ritm
- Normal S1, S2
- Sistolik shovkinlar
- Diastolik shovkinlar



4.7. Yurak-qon tomir tizimi kasalliklari bor bemorlarni laborator va instrumental tekshirish usullari

Yurak-tomirlar sistemasini tekshirish

Yurak-tomirlar sistemasini tekshirishda, masalan, yurak mitral poroklarining diagnostikasida xam tomografiyadan foydalaniladi. Tomog-rafiya mitral poroklarda yurak kameralarining katta-kichikligi turrisida fikr yuritishga, klapanlarda oxak tuplanib kolgan joylar va boshka bir kancha patologik uzgarishlar boryukligini aniklab olishga imkon beradi.

Tomografiyada fakat urganilayotgan kavatnng rentgenologik tasvirini olish mumkin. Kolgan xamma joylar, ular xox tekshirilayotgan kavat atrofida joylashgan bulsin, xox uning oldi yoki orkasida bulsnn, rentgen nurlari sochilib tushadigan bulganidan, tasvnrda kurinmaydi.

ELEKTROKARDIOGRAFIYA

Tekshirishning bu metodi yurak kiskarganida vujudga keladigan biopotentsiallarni kayd kilishga asoslan-gan. Yurakning kuzralish xolatida xar kandy kismi tinchlik xolatida turgan bulimiga nisbatan elektr manfiy buladi. Shunga kura yurak ayrim kismalarining elektr potentsiallarida fark yuzaga keladi.

Xarakat toklari tananing xar kandy kismidan olinishi mumkin. Yurak biopotentsiallarini kayd kiluvchi apparat elektrokardiograf deb ataladi. Bu apparat yurak biopotentsiallarini elektrodlar yordamida uaiga kabul kilib oladi, shu bilan birga tana yuza sining elektrodlar tagida turgan kism-laridagi 3 mV (millivolt) gacha buladigan kichik potentsiallar farki necha ming baravar kuchaytiriladi va yuzaga keladigan juda xam arziyas potentsiallar farkini seza oladigan kayd kiluvchi asbob — galvanometr-ga beriladi. Galvanometr ustiga kichik kuzgu yopishtirilib, kuchli magnit maydoniga tortib kuyilgan kichkina pulat plastinkadan iborat. Kuzgusining oldiga fiksatsiyalovchi linza urnatilgan. xarakat toklari ta'siri ostida maglit moydonining uzgarishlari plastinka va unga yopishtirib kuyilgan kuzguning aylanishiga xamda kuzgudan aks etgan nurning u yoki bu tomonga ogishiga sabab buladi. Bu tebranishlar egri chiziklar kurinishida fotografik yul bilan yozib olinadi. Sekundiga 20 marta tebranishga rostlanib, sozlangan kamerton vakti belgilovchi moslama bulib xizmat kiladi, birbiridan 0,05sekundli masofada buladigan tik yullar tushirib beradi.

Apparatning yozuvchi kismi lenta beradigan kasseta za uni tortib utka-zib turadigan mexanizmdan iborat.

turishi (korincha devorlaryning bor katigacha zararlanishi) korincha kompleksiga arfa kurinishini beradi. Keyinchalik 5— T oraligi izochizikka yakinlashib keladi, T tishcha esa manfiy («koronar») bulib koladi. Koronar T tishcha evolyutsiyasi bir necha xaftaga boradi.

Infarkt bo'lib utgandan keyin boshlangan turrin chandik fazasi EKG da juda xam xilma-xil tarzda aks etadi. Infarktdan keyingi iokardiofibrozning ki-chikrok intramural uchoklari EKG da aks etmasligi xam mumkin. Chandikli maydonlar keng bulganida OK kompleksinpng shakli ancha uzgaradi (chukur tushgan 0 tishcha saklanib koladi, K. tishcha yo bulmaydi yoki pasayib dolgan, 5 tishcha kengayib turgan buladi).

Dinamik xolda, ya'ni ma'lum vakt oralab olib turilgan EKG reparativ protsesslarning oxiri kachon va nima bilan tugashini oldindan bilib olishga, takroriy miokard infarktini aniklab olishga, yurak faoliyati ritmi buzilishi yoki yirik uchokli kardioskleroz paydo bulishi natijasida yurak etimxovchiligi boshlanishini oldindan aytib berishga imkon ochadi.

EKG da yurak ritmining buzilishlari anik kurinib turadi, aritmiyaning sababi (innervatsiyaning izdan chikkanligi, yallirlanish, muskulning shishgani yoki chandik. bulib kolgani, distrofik uzgarishlar, dori-darmonlar ta'sir kursatgani) va shakli anik ma'lum buladiki, bu davi usulini belgilab beradi.

Yurak va tomirlarni rentgenologik yul bilan tekshirish

Yurak va yirik tomirlarni rentgenologik yul bilantekshirishning xam morfologik, xam funktsional xolatni aniklab olishga imkon beradigan asosip metodi rentgenoskopiyadir. Yurak atrofidagi organlar (upka) ga Karaganda zichligi katta bulganligi tufayli uni rentgenologik yul bilan tekshirish mumkin. Butuk yurak

va xar bir bulimini ishi rentgenokimografnya yordamida urganiladi.

Rentgenokimografiya — turli organlar xarakatlarini rentgenografik yul bilan kayd ;ilishning shunday bir metodiki, bunda organning konturlari (shakl-shamoyili) rektgenogrammaga tishli bulib tushadi, shu bilan birga shu tishlarning kattaligi xarakatlar amplitudasini aks etnradi, nur dastasiga kupdadang bilib kuyilgan panjara bilan plenkali kasseta-

ning bir-biriga nisbatan surilib turishi tufayli shunga erishiladi.

Rentgenokimografiyaning muxim sharti tekshirilayotgan ob'ekt bilan unga chegaradosh joylar urtasida katta soya kontrasti xosil kilishdir. Yurak va yirik tomirlarning soyasi yukori darajada kontrast bulib, yorur bulib kuzga tashlanadigan upka maydonlari fonida keskin ajralib turadi. Rentgenoskopiyada yuraktomirlar soyasi ekranda noturri tuxum shaklida bulib, urta xolatni egallab turadi. Bu soya diafragma ustida kiyshik joy oladi, shu bilan birga uning 3 kismi kukrak kafasining chapyarmida yotsa, 3 kismi ung yarmidayotadi. Yurak vatomirlar oldingiorka xolatda, birinchi kiyshik (gavdani 45° ungga burib turiladigan) va ikkinchi kiyshik

(gavdani 45° chapga burib turiladigan) xolatlarda rentgenologik yul bilan tekshiriladi.

Oldingi-orka yunalishdagi rentgenoskopiyada olingan ung kontur ikkita burtmasi buladigan noturri yoydir. Ustki ey I kovurradan II kovurragacha bulgan maso-fani egallaydi va ustki kavak vena soyasi bilan aortaning yukori kutariluvchi kismi soyasidan xosil buladi, pastki ey ung yurak bulmasi, ba'zida, yurak tik xolatda turgan paytda esa yana yurakning ung korinchasi soyasi va pastki kavak vena soyasidan yuzaga keladi.

Yurakning chap konturi 4 ta yoydan: birinchi kovur-ralar oraliri damida turadigan ustki ey (bu aorta yoyiga turri keladi), upka arteriyasi bilan chap bulma kulokchasiga turri keladigan 2- va 3-jyoy, yurakning chap korinchasiga turri keladigan 4-jyoydan iborat. Chap bulmashani1kpg kattalashuvi disibiga chap tomonda 2-va 3-jyoylarning kattalashib kolishi yurak beli bilinmay ketadigan mitral yurak shakli (konfiguratsiyasi)ni xosil kiladi, bu mitral porok uchun juda xarakterlidir.

Bemorni standart sxema buyicha tekshirish kerak: kusus massasi va axlatni kuzdan kechirish , korinni fizikal tekshirish, umumiy klinik tekshirish va kushimcha tekshirishlar kiradi.

Kusus massasini kuzdan kechirishda kuyidagilarni aniklash zarur: mikdori –anik bir intervaldan sung kup mikdorda kusish privratnik stenozidan darak beradi; ularni xidi – axlad xidli kusish , ichak tutilishiningkechki boskichlaridan darak beradi.

Rangi va tarkibi – mikdori va rangiga e'tibor beriladi (och kizil rangda yoki kofe kuykasi rangida) . Kusus massalarida zaxarlanishga sabab bulgan ximiyaviy moddalarni , tabletkalarni kurish mumkin.

Axlat massasi sutkasida 150-200 g bulishi kerak. U silindrik shaklda , kalinligi 2-4 sm da , bir oz kattik konsistentsiyada bulishi kerak. Axlat rangi me'yorda xar xil bulishi mumkin : sutli maxsulotlar iste'mol kilganda – och jigar rangda , ba'zan sarik rangda , gushtli maxsulotlardan keyin jigar rangda , usimlik maxsulotlaridan keyin esa (hevel, hpinot)- yashilcha yoki kizgish rangdagi axlat , kora smorodina , kofe ,ayrim dori vositalarini (karbogen, vismutva temir preparatlari) kabul kilinganda kuzatilishi mumkin.

Axlat xarakter iva rangi patologik xollarda kuyidagicha buladi: axlat rangining tilla –sarik bulishi , yugon ichak buylab peristaltikasini kuchayishida kuzatilib , ichak dizbakteriozi rivojlanadi: sarik utkir xidli , axlat kup mikdordagi xavo pufakchalari bulgan axlat-dispepsiya kasalliklarida kuzatiladi. Agar axlat ok yoki kulrang bulsa , bu xolestaz yoki xolikinez buzilganligidan darak

beradi. Surunkali pankreatitda esa axlat kulrang - sargish rangda buladi . Axlatni kora rangda bulishi xazm sistemasining yukori kismida kon ketishidan xabar beradi.

Korin soxasini tekshirganda , uning shakliga , dam bulishiga , simmetrikligiga , nafas aktida korin devori mushaklarining katnashishiga , ichaklar peristaltikasiga e'tibor beriladi.

Korinning yukori kismida dam bulishi

Privratnik stenozida , oshkozonning utkir kengayishida yoki surunkali pankreatitkuzish davri kuzatiladi. Korinning diffuz dam bulishi esa oshkozon-ichak trakti diskeniziyasida , yugon ichakning tutilishida yuzaga keladi. Korin soxasini palpatsiya kilish , asosan ogriksiz zonalardan bajariladi. Korin perkussiyasi esa chap yoki uning yonbosh soxaga yotkizilib bajariladi.

Perkussiya orkali korin bushligiga suyuqlik yoki gaz tuplanganligini aniklash mumkin . Ichakning motor funksiyasini baxolash uchun auskultativ usulda bir nechta nuqtalar eshitib kuriladi. Ingichka ichakning peristaltik shovkinlari kindikdan 1-2 sm unгда va pastrokda yaxshi auskultatsiya kilinadi. Bulardan tashkari bemorni rektal va vaginal tekshiruvni utkazish muxim bulib xisoblanadi.

GASTRITLAR

Ta'rifi . Gastrit-polietiolgik kasallik bulib, me'da shillik pardasi va uning dezsimon apparatida turli darajadagi patomorfologik (atrofik yoki gipertrofik) va funksional uzgarishlar paydo kilibgina kolmay, balki patologik jarayonning aksariyat me'daning boka katlamlariga (pardalariga) tarkalishi bilan xam xarakterlanadi. Utkar va xronik gastrit-klinik-anatomik tushuncha bulib, unda morfologik va funksional uzgarishlar klinik belgilar bilan, shuningdek me'daning sekretar va motor funksiyasi buzilishlar bilan birga uchraydi. Erkaklarda ayollarga nisbatan kuprok uchraydi.

Surunkali gastrit – juda keng tarkalgan kasallik. Adabiyotlardagi ma'lumotlarga binoan u bilan kasallanish 1000 axoliga 25 tagacha (2,5%) tashkil kiladi. Stein (1974) fikricha, xronik gastrit er kurrasidagi axolining deyarli yarmini kasallantiradi.

Xazm organlari kasalliklari oraisda u kariyib 35% ni, me'da kasalliklari orasida esa 60-85% ni tashkil etadi.

1. Etiologik printsip:

1) ekzogen gastritlar (ovkatlanish rejimi va ritmi buzilishi,

alkogol va nikotinga uchlik, termik, ximiyaviy va mexanik agentlar ta'siri, kasb korga taaluqli zararli omillar ta'siri);

2) endogen gastritlar (vegetativ nerv sistemasida va endokrin organlardagi buzilishlar bilan boglik nerv-reflektor gastrit, gematogen, gipoksemik, allergik gastrit).

II. Morfologik printsip;

1) yuza gastrit;

2) rofiyasiz gastrit;

3) atrofik gastrit (urtacha, ifodalangan, epiteliyning kayta kurilin xodisalari bilan).

III. Me'daning funksional xolati buyicha:

1) normal sekretor funksiyali;

2) pasaygan sekretor funksiyali;

a) urtacha; b) ifodalangan;

3) Oshgan sekretor funksichyali.

IV. Xronik gastritning klinik kechishi kuyidagilarga bulinadi:

1) kuzish fazasi;

2) remissiya fazasi;

3) notulik remissiya fazasi.

Klinik ma'lumotlar va nazariy bilimlarga asoslanib student kuyidagilarni bilishi kerak:

1) asosiy jarayonni aniklash (kasallikning mustakilligini, joylashuvi va xarakterini);

2) taxminiy diaqnozni tasdiklash uchun tekshirishning asoslangan planini tuzish;

3) kuyidagilarga asoslanib balafsil diaqnozni aniklash:

- kasallikning etakchi diaqnostik mezonlarini, ularning patogenezinini va moxiyatini bilish;

- kushimcha tekshirish metodlari natijalariga baxo bera olish;

- klinik belgilari gastritni eslatadigan yoki gastrit belgilari ularda ikkilamchi bulgan kasalliklar bilan differentsial diaqnostika utkazishni bilish;

4) jaryonning ogir-engilligi, bemorning axvoli (orik-semizligi). boshka organlar va sistemalari, me'da sekretyasi xolatini xisobga olgan xolda davolashning tulik planini tuzish.

Etiologiyasi, patogenezi va patologik anatomiyasi

1. Xronik gastritning utkir gastritdan, xar xil etiologiyasi gastriteritlardan keyin rivojlanishi (kechikib va tula sifatli bulmagan davolash, parxez rejimi buzilishi xollarida).

2. Xronik gastritlarning polietiologik bulishi:

-alimentlar gastritlar: kuruk oakatlar eyish, utkir ziravorlar, souslar, ovkatni xushta'm kiladigan moddalar, chekish, ichkilik ichish va boshka ekzogen omillar;

-toksik gastritlar: dorilar ta'siri, kator ximiyaviy moddalar va zararli omillarning me'da shillik pardasiga ta'siri(kumir: metall, paxta changi, ishkorlar yog kislotalar buglari va b.);

-organlar va sistemalar kasalliklarining axamiyati (endogen omillar): buyrak etishmovchiligi-uremiya ; podagra, atsetonemiya va xronik infektsiyalar (sil, zaxm, tonzillit va b.);

-gipoksemik gastrit: kon aylanishi etishmovchiligi, upka yurak etishmovchiligi, kelib chikishi xar xil tashki nafas etishmovchiligi (yurak porklari, xronik pnevmoniya, upka emfizemasi va b.);

«oilaviy» gastritlar – ota-onalarida yoki oila a'zlarida va yakin karindoshlarda gastritlar borligi.

3. Xronik gastrit rivojlanishiga sabab buladigan patogenetik sharoitlar.

- me'da bezli apparati regeneratsiyasi buzilib, uni atrofik uzgarishlarga olib kelishi, individual genotip xususiyatlari va immunologik siljishlar, bular shillik pardaga va Kasl ichki omiliga antitelolar xosil bulishida namoyon buladi;

- antigenlar paydo bulishi (alimentlar omillar, dorilar bakterial taoksinlar ta'siri natijasida paydo bulgan) immun kompetent sistemada muayan nuksonlar bulganda va me'da ichki pardasi tukima elementlariga ntitelolar ishlaganda gipersibilizatsichya olib kelishi mumkin.

4. Morfologik uzgarishlar epiteliy tukimalarida distrofik, atrofik va disregenerator belgilari va me'da shillik pardasining biriktiruvchi elementlarida yalliglanish reaktiyasi belgilari bilan

xarakterlanadi. Bu uzgarishlar yuza yoki chukur bulishi, uchokli yoki diffuz xarakterda bulishi mumkin.

Klinik manzarasi. Kasallikning klinik belgilari kasallik formalariga, jarayonning ogir-engilligiga, me'da seretor funksiyasiga kushilib, keladigan kaslliklarga boglik.

I. Subektiv ma'lumotlar. Shikoyatlari:

-tush osti soxasida ogrik (xarakteri-simillagan, zirkiragan), odatda ovkat eyilgandan keyin ogrikning engillashuvi – oshgan sekretsiyada, ogrikning tik turganda yoki yurganda kuchayishi, gastriptoiz borligidan buladi;

-tush osti soxasida achishish va va tuliklik xis kilish;

-me'da sekretsiasining xoalitga kura nordon xavo bilan yoki palagda tuxum xidi keladigan kekirish;

-korinda bosim yoki dam bulish sezgisi;

-ishtaxa aynishi, kusish, ich buzilib kotib turishi (kabziyat, ich ketar);

-yaxshi uxlay olmaslik, injiklik va nerv sistemais funksional buzilishining boshka belgilari, nevrasteniyalar;

-bexollik, kayfiyat yomonligi, ish kobiliyati pasayib ketishi;

bosh ogrigi, bosh aylanishi, keskin xolsizlik, kuz oldi korongulashuvi va gastrogen anemiya yoki kasllikning boshka asoratlariga xos xar xil shikoyatlar.

II. Subektiv ma'lumotlar analizi (bemorlarning shikoyatlari va kasalliklar anamnezi).

Sh. Obektiv ma'lumotlar:

-umumiy xolat, gavda tuzilishi, semiz-oriklik jarayonlarining ogir-engilligiga, kasallikning klinik formalariga kura xar xil (sekretsiya xolati normal, pasaygan yoki oshgan, shillik parda xolati gipertrofik yoki atrofik).

-ovkat xazmi va surilishi etishsovcchiligi etishmovchiligi sindromi (distrofik uzgarishlar);

-gipopolivitaminoz sindromi, turli vitaminlar, aksariyat V gruppaa vitaminlari tankisligi belgilari (ogiz burchaklari bichilishi, terining ortikcha pust tashlashi, sochlarning barvakt tukilishi, tirnoklarning murtligi va b.);

-diselektrolit sindromi-asosan sekretor etishmovchiligi bulgan gastritlarda kuzatiladi: kaliy ionlari tankisligi (konni bioximiyaviy tekshirishda va EKG da aniklanadi-S-T- intervali pasayishi va musbat T tishchasi), kaltsiy ionlari tankisligi (suyak tuberkulalari surilishi bilan osteodistrofiya simptomlari va biriktiruvchi tukimaning usib kalinlashuvi, alkaloz simptomlari bilan yuzaga chikadi); temir tankisligi (odatda anik ifodalanmagan temir tankisligi anemiyasi bilan utadi);

-astenonevrostenik sindrom: vegeqativ tomirlar distoniyasi simptomlari, oyok-kullarning sovkotib turishi, gipotoniya, paresteziyadan shikoyatlar;

-poliglandulyar endokrin etishmovchiligi sindromi: urtacha buyrak usti bezlari-gipofizlar etishmovchiligi belgilari, jinsiy funktsiya buzilishlari;

-korin purkussiya va auskultatsiya kilinganda olingan ma'lumotlar odatda juda kam kutilgan natija bermaydi;

-korin palpatsiya kilinganda epigastral soxada urtacha yoki oz-moz ogrik aniklanadi, xronik gastrit uzok kechganda kulgan bir oz kattalashgan va ogriydigan jigar unnaydi (reaktiv gepatit).

IV. Zarur laboratoriya, bioximiyaviy va instrumental tekshirish metodlari:

- me'da suyukligini funktsional tekshirish (sekretsiyani naxorga aniklash, ma'lum vakt ichida sekretsiya, kasallik, pepsining kuchayishini aniklash, chukmani mikroskopik tekshirish);
- gistamin va insulin bilan sinamalar (me'da sekretor funktsiyasi ruy-rost buzilganda);
- me'da chayindi suvlarini sitologik tekshirish yoki rakli aynishni istisno kilish uchun birmuncha ishonchli biopsiya metodi);
- duodenal zondlash- ut pufagi va ut fullari kasalliklarini istisno kilish;
- koprologik tekshirish: umumiy analiz, yashirin konga (Gregersen reaksiyasi), gijja tuxumlariga va b;
- konni bioximiyaviy tekshirish: umumiy oksil (gipoproteinemiya) va uning fraktsiyalari bilirubin, xolesterin, jigar funktsional sinamalari-reaktiv hepatitda;
- kon fermentlari, kon va siydik diastazasi, ikkita nagruzga bilan kand egri chiziklari (pankreatitni istisno kilish uchun);
- instrumental tekshiruvlar: me'da-ichak yuli rentgenoskopiyasi va rentgenografiyasi, fibrogastroskopiya, liparoskopiya va b.

Surunkali gastrit ayrim klinik formalarining kiskacha ta'rifi

1. Me'da sekretsiyasi normal yoki oshgan xronik gastrit yarada buladaigan ogrikka uxshash ogrik, nordon kekirib zarda kaynashi, kabziyatlar bilan xarakterlaydi. Aksariyat navkiron va urta yoshda, asosan erkaklarda uchraydi. Me'da suyukligini tekshirish

-kisloatlik normal yoki giperatsid xolat. Rentgenoskopiya- burmalar kalinishuvi, kuchaygan peristaltika, uzgarishlar asosan pilorus va un ikki barmok ichakda joylashadi (gastroduodenit, piloroduodenit xodisalari bilan).

Surunkali atrofik gastrit sekretor etishmovchilik bilan: ogizda yokimsimz maza, ishtaxa pasayishi kuruk kekirish, ovkatdan keyin korin kuldirashi va suyuklik kuyilgandek sezgi paydo bulishi, aksariyat ich ketar, oriklash, asta-sekin anemiya rivojlanishi va b. Rentgenologik-me'da shillik pardasi burmalari yupkalashgan, ayrim joylari atrofiyaga, me'da gipotoniyasi (gastroptoz). Endoskopiya va muljalga olingan biopsiyada: yuza gastrit yoki me'da bezlarining zararlanishi va ularning atrofiyasi bilan birga bilinarli uzgarishlao. Me'da suyukligini tekshirish-kislotalik pasaygan yoki bulmaydi (me'da sekretor funktsiyasining urtacha yoki ifodalangan pasayishi, axiliya xolati).

Gemorragik (eroziyali) gastrit: klinik jixatdan me'dadan kon okishi, gipoxrom anemiya, ogriklar bilan xarakterlanadi, me'da sekretsiyasi saklanib kolgan, oshgan yoki urtacha pasaygan.

Endoskopiya-kup sonli eroziyalar va petexiyalar, ularning konashga juda moyilligi.

rigid antral gastrit. Kamdan-kam uchraydi. Ogriklar (dispeptik), giposekretsiya yoki axiliya xarakterlanadi. Rentgenoskopiya va endoskopiya: me'da antral bulimining doirasimon torayishi, anik ifodalangan yalliglichandikli jarayonlar, kupincha xavfli usmaga aylanadi.

Polipoz gastrit me'da shillik pardasining atrofisi va disregenerator giperplaziyasi, axlorgidriya bilan xarakterlanadi. Rentgenologik va endoskopik tekshirishlar yuli bilan diagnostika kilinadi.

Xronik gipertrofik gastrit. Bu kasallikning eng noanik formasi. Schindler fikricha (1966), xronik gipertrofik gastritning uchta varianti mavjud: interstitsial, proliferativ va bezli.

Diagnostikada aspiratsion va muljalgan olingan biopsiya yordam beradi. Rentgenologik jixatdan shillik parda burmalarining kalinlashuvi, ularning normal xolatga karaganda 2-3 baravar kengayishi, buralganligi, yuzasining «donadorligi» bilan ajralib turadi. Kursatib utilgan variantlardan gipertrofik bezli tastrit kuprok uchraydi, bunda me'da gipersekretsiyasi va «yaradagisimon» shikoyatlar kuzatiladi.

Utkir gastritning kiskacha ta'rifi. Me'da shillik pardasining utkir yalliglagishi (kuyish va boshka uzgarishlar) polietiologik kasallik xisoblanadi, u ximiyaviy, termik, mexanik va bakterial omillar tomonidan kuzgotiladi. Utkir gastritlarda jarayon shillik pardaning yuza epiteliysi bilan chegaralanib kolishi yoki butun bezli apparatning bagri, interstitsial tukima va xatto mushak katlami va seroz pardaga tarkalishi mumkin.

1. Utkir oddiy gastrit. Uning rivojlanishida eksogen (palapartish ovkatlanish, ovkat toksikoinfeksiyalari, dori-darmonlar, kup ovkat eyish va b.) va endogen (utkir infeksiyalar, modda almashinuvining jiddiy buzilishlari, radiatsiyadan zararlanish, azotemiya va b.) omillar muxim rol uynaydi. Ogrik simptomlari sabab buladigan omillar ta'siridan 4-6 soat utgach paydo buladi va kungil aynishi, ogrik, bexollik, bosh aylanishi, kusish, ich ketar va keyinchalik-suvsizlanish va utkir tomirlar etish movchiligi belgilari (rangparlik, gipotenziya, taxrikardiya), leykotsitoz, aksariyat buyraklarning toksinli zararlanish belgilari bilan namoyon buladi.

2. Utkir korroziv gastrit. Me'da shillik pardasiga kislotalar, ishkolar, ogir metallarning tuzlari, yuksak kontsentratsiyali spirt va boshkalar ta'siri natijasida paydo buladi. Kasallik klinikasi zaxar tabiatiga, zararlanish darajasiga boglik va toksinli modda yutib yuborilishi bilan yuzaga chikadi. Bemorlar ogzida, tush orkasida va epigastral soxada achishadigan ogrikdan, azob beradigan, ba'zan kon aralash kusishdan shikoyat kiladilar, labda, ogiz, tomok shillik pardasiga kuyish alomatlari buladi, tovush bugiladi, stridor nafas, korin pardasi ta'sirlanishi simptomlari buladi, neyetrofilli leykotsitoz, ogir xollarda esa utkir tomir etishmovchiligi belgilari-kollaps (ba'zan shok xolati) kuzatiladi.

Flegmonali gastrit. Kamrok uchraydi, turli bakterial flora tomonidan kuzgatiladi va utkir boshlanishi, et junjikishi, gipertermiya, keskin adinamiya, korinda ogrik, kungil aynishi, kusish, gipertermiya, keskin adinamiya, korinda ogrik, kungil aynishi, kusish, giperleykotsitoz bilan neyetrofilli siljish (toksik donadorlik bilan), SOE oshishi va yalliglanishning boshka alomatlari bilan xarakterlanadi. Prognozi xayrli emas. Davolash xirurgik.

Me'da raki tugrisida kiskacha ma'lumotlar. Me'da raki usmalarining boshka xamma organlarida joylashuvining umumiy sonidan 40 foizini tashkil kiladi. Undan yukori ulim kayd kilinadi va deyarli butun dunyoda me'da raki bilan bilan kasallanishning oshib borishiga moyillik bor.0

Me'da raki me'da epiteliysi va umuman me'da shillik pardasida bulib utgan uzgarishlar-rak oldi kasalliklari fonida (me'da polipi, va yara kasalligi, xronik gastritlar, alkogol ichish, dagal va ta'sirlantiradigan taomlar, chekish, ovkatlanish xususiyatlari, irsiy jixatdan moyillik, autoimmun jarayonlar va xokazo rivojlanadi.

Makroskopik jixatdan turt formasi: polipsimon yoki kuzikorinsimon (ekzofit usishi), likopchasimon (sekin usadigan ekzofit), diffuz (infiltrativ), aralash formalari tafovut kilinadi.

Asoratlari. Utkir gastritda- utkir tomirlar, extimol yurak etishmovchiligi, xlorepenik koma; me'daning utkir perforatsiyasi (korroziv va flegmonoz xilida); chandikli uzgarishlar (uzok muddatdan keyin yuz beradigan asoratlar); mediastinit, yiringli plevrit, tromboflebit, jigar abstsessi, sepsis va boshkalar (ogir formalarida); xronik forma utish.

Xronik gastritda-me'da vaun ikki barmok ichakning yara kasalligi, rakka aylanish, me'dadan kon okishi, ikkilamchi (ba'zan ogir) temir tankisligi anemiyasi, oriklar ketish, gaxeksiya.

Differentsial diagnostikasi. Utkir va surunkali gastritlarni me'da va un ikki barmok ichakning yara kasalligi, miokard infarktining abdominal formasi, utkir va xronik appenditsit, me'da raki, utkir va xronik pankreatit va xoletsistit (jumladan ut-tosh kasalligi), ut xaltachasi va yullari diskineziyasi, xronik enterokolotidan fark kilish kerak. Bundan tashkari, utkir gastritni diafragma osti abstsessi, kopka vena trombozi va «korindagi utkir xolat»ning boshka turlaridan differentsiya kilish lozim.

Diagnozni taxminiy ta'riflash: 1) xronik ekzogen yuza gastrit kuzish fazasida, sekretor funksiyasining etishmovchiligi bilan; 2) xronik eroziyali antral gastrit kuzish fazasida, oshgan sekretsiyali va gipermotorkali; 3) xronik atrofik gastrit remissiya fazasida, urtacha sekretor etishmovchilik bilan. Gipoxrom anemiya.

Davolash

Utkir gastritni davolash:

-bemorni kasalxonaga joylashtirish, parxez rejimiga rioya kilish:

-me'dadan toksinli omillar va boshka sababchi omillarni xaydash buyicha tadbirlar: 2% li natriy bikarbonat yoki kaliy permanganat kushilgan kaynagan, illik suv bilan yuvish, 30 g magniy sulfat, aktivlangan kumir kabilarni berish;

-venaga tomchilab fiziologik eritma, 5% glyukoza eritmasi, 10 ml 10% li osh tuzi eritmasi yuborish va suvsizlanishga karshi kurash buyicha boshka dezintoksikatsion terapiya choralarini kurish;

-zarur bulganda tomirlar etishmovchiligida ishlatiladigan preparatlar : kofein, kordiamin, mezaton, adrenalın, yurak dorilari-strofantin, korglikon, allergiyani fukotuvchi vositalar- kaltsiy xlorid, dimedrol, kaltsiy glyukonat; cimptomatik terapiya, umuman kuvvatga kiritadigan vositalar (vitaminlar, insulin va b.) kiritish;

- flegmonoz gastritda-operatsiya yuli bilan davolash yoki antibakterial preparatlar (antibiotiklar, sulfanilamid preparatlar) bilan davo kilish;

-kollaps yoki shok bulgan takdirda tegishli davolash tadbirlari utkaziladi.

2. Surunkali gastritni davolash bemor axvolining ogir-engilligiga, kasallikning kesishiga, me'da sekretsiyasi axvoliga, kasallikning klinik formalariga binoan olib boriladi.

-kuziganda kasalxonaga joylashtirish;

-parxez rejimiga kattik amal kilish (utkir va yogli taomlar, ziravorlar, ichkilik, chekish kabilar man kilinadi);

-bulib-bulib, kuniga 5-6 marta ovkatlanish, parxez №1a, 1b tayinlanadi, anatsid va gipatsid xolatlarda etarli mikdorda oksillar (110-115 g), yoglar (80-90 g), uglevodlar va vitaminlar buyuriladi;

-me'daning sekretor va motor-evakuator funksiyasi oshganda

-atropin, spazmolitiklar, benzogeksoniy, vikalın, metatsil, pentoksil va boshkalar tayinlanadi;

-antatsil vositalar sifatida: alyuminiy gidroksid (4% li suvdagi suspenziya kurinishida 1-2 choy koshikdan kuniga 4-6 marta); almagel (1-2 choy koshikdan kuniga 4 marta-ertalab, kunduzi, kechkurun ovkatdan rim soat oldin va uxlash oldidan 3-4 xafta mobaynida); kaltsiy karbonat 0,25-1 4g dan kuniga kabul kilsa xam buladi; (Kanishchev P.A., Bereza N.M., 1981) va b.,

-sekretsiya etishmovchiligi bulgan gastritlarda kvateron, gangleron, kavkaz dioskoreyasi, zupturum va plantaglyutsid shirasi, PP, S, V6, V12 vitaminlari, me'da shirasi, abomin, betatsid, pankreatin, kon, oksil preparatlari, plazma kuyish va b, ;

-me'da sekretor funksiyasi xolatiga mos keladigan mineral suvlar (borjom, essentuki 4,17, 20 va b.) kullinish;

-sanatoriy-kurortda davolash (Ijevsk, Jermuk, Essentuki, Jelesnovodsk, Pyatigorsk, Feodosiya va b.);

-dispanser kuzatuvi.

Profilaktikasi: tugri ovkatlanish, ovkatlanish gigienasi koidalariga puxta amal kilish: chekish va ichkilikka va boshka xazm organlarining boshka kasalliklarini uz vaktida davolash, kasb-korga taallukli zararli omillarga karshi kurashish.

ME'DA VA UN IKKI BARMOK IChAKNING YaRA KASALLIGI

Ta'rifi. Yara kasalligi- turli-tuman klinik manzara bilan va me'da yoki un ikki barmok ichak shillik pardasida gastroduodenal zonadagai seretor-trofik jarayonlarni tartibga solib turadigan nerv va gumoral mexanizmlarning buzilishi natijasida yara xosil kilish bilan sikli kechadigan kasallikdair.

Klinik ma'lumotlar va nazariy bilimlarga asoslanib student kuyidagilarni bilishi kerak:

1) patologik jarayonining joylashuvini va uning xarakterini (me'da, un ikki barmok ichak, yara turi) aniklay olish;

2) taxminiy diagnozga binoan bemorni tugri tekshirish planini tuzish;

3) kuyidagilar asosida diagnozni aniklashi:

-kasallikning asosiy simptomlari va sindromlarini, ularning patogenezini bilish;

-kushimcha (laboratoriya – instrumental) tekshirish metodlarini tugri analiz kilish va jamlash:

-uning asosiy alomatlari buyicha (ogrik, kusish, kon okishi kabi) differentsial diagnostika utkazishni bilish.

4) jarayonning ogir-engilligi, asoratlar bor-yukligi va bemorning umumiy xolatini xisobga olib davo tadbirlari planini tugri tuzish.

Etiologiyasi va patogenezi. Me'da va un ikki barmok ichak yara kasalligi rivojlanishida kuyidagilar axamiyatli;

-alimentlar va boshka ekzogen omillar: ovatlanish rejimi va xakteri buzilishi dagal, utkir, juda issik (yoki, aksincha, doimo sovuk) ovkatlarni nomuntazam eyish, shoshilib eyish, kup ovkat eyish, chekish, spirtli ichimliklarni suiiste'mol kilish;

-ximiyaviy va fizik omillar ta'siri;

-yara kasalligi paydo bulishiga doir mexanik, yalligligi, peptik, tomir va boshka nazariyalar;

-ruxiy-emotsional omillar (kuchli nerv-psixik kechinmalar stress xolatlar va boshkalar .I..Senechev va I.,p,Pavlovning nervizm tugrisidagi ta'limoti, shuningdek birinchi marta I.P.Pavlov aniklagan bosh miya katta yarimsharlari pustlogiga ta'sir kilingandagi me'da sekretsiyasining nerv fazasi);

K.M.Bikov va I.T.Kurtsinning bosh miya pustlogi bilan ichki organlar (xazm sistemasini xam shunga kiradi) urtasidagi funksional boglanishning buzilishi tugrisidagi kortiko-vistseral nazariyasini tugri izoxlash. U me'daning nerv boshkarilishining murakkab buzilishlari moxiyatini va ularning yara kasalligi paydo bulishidagi axamiyatini ochib beradi. Bu nazariyaga

muvoqif salbiy xis-xayajonlar ta'sirida (nerv sistemasining uzok vakt zurikishi, ishxonada, oilada psixologik sharoitning yomonligi) va ichki organlardan keladigan turli patologik impulslar ta'sirida bosh miya pustlogida kuzgolish va tormozlanish jarayonlari urtasidagi fiziologik muvozanat buziladi. Buning okibatida pustlokning normal ishlab turgan xujayralari kuchsizlanib koladi va pustlok bilan pustlok osti markazlari urtasidagi uzaro aloka buziladi. Bunda gipotalamusda dimlangan kuzgolish uchogi paydo bulib, adashgan nerv markazlari ishi va gastroduodenal sistemaning asosiy funktsiyalari buziladi, bu

-shillik pardalar nuksoni avj olishiga imkon beradi. Bu yulni sxema tarzida kuyidagicha tasvirlash mumkin: bosh miya pustlogi

-oralik miya-adashgan nerv markazlari-adashgan nerv-me'da (Riss S.I., E.S.,1975);

-gipofizalar-buyrak usti bezlari sistemasi, jinsiy va boshka endokrin bezlar faoliyatidagi buzilashlar;

-irsiy va konstitutsional omillar;

-tashki muxit sharoitlari uzgarishi;

-xazm garmonlari (gastrin, sekretin) va biogen aminlar (gistamin, serotonin);

-Me'da va un ikki barmok ichak shillik pardasidagi morfologik uzgarishlar va boshka ekzogen omillar.

Klinik manzarasi

I. Subektiv ma'lumotlar. Shikoyatlari:

1) ogrik :

-joylashuvi-tush osti soxasida yoki korinning yukori ung yarmida, tutash (kuziganda);

-xarakteri-simmillagan, tulgoksimon, kemiradigan, achishadigan, bosadigan, sanchadigan va xokazo;

-paydo bulish vakti-ovkatdan 15-30 minut utgach (erta ogriklar), 1-3 soat utgach (kechikkan ogriklar), tungi, och koringa paydo buladigan;

-ogrik tarkalishi-yukoriga va chapga (yara yukorida joylashganda), piloduodenal yaralarda-orkaga, ung kovurgalar ostiga, ung kurak ostiga va xokazo;

-kuchli ogriklarda bemorning vaziyati-kornini bosib yotish, oyoklar koringa tortilgan;

-ogrikning engillashuvi-ovkatdan keyin, soda ichilgandan keyin, kusishdan keyin (ba'zan sun'iy kuzgatilgan kusishdan keyin);

-davomliligi-jarayonning ogir-engilligiga, kasallik asoratlari bor-yukligiga va tabiatiga;

2) kusish va boshka dispeptik xodisalar: zarda bulish, kungil aynishi, sulak okishi, nordon, palagda yukolmagan, oshgan (hgrik sindromi ta'siri), ogrik va kusish sababli ovkat eyishdan kurkish, kabziyatlar (gipersekretsiya), ich ketishlar (anatsid yoki axiliya xolati);

3) kon okishi-kon aralash kusish, kup kon okishi-kon aralash kusish, axlatning «korayib ketganligi»;

4) sindromning yilning ma'lum mavsumida kuzishi: baxorda, kuzda, kishda, shuningdek ovkat eyish buzilganda, spirtli ichimliklar ichilganda, chekilganda.

II. Subektiv ma'lumotlar analizi (shikoyatlar, ushbu kasallik va bemor turmushi anamnezi).

III. Obektiv ma'lumotlar.

I. Umumiy kuzdan kechirish: bemorning kurinishi azob-ukubatli, xorgin, rangparlik, oriklab ketish, teri koplamarida distrofik uzgarishlar, ikkilamchi anemiya belgilari, kup terlash, yakkol yuzaga chikkan demografizm, kasallik kuziganda temperatura reaksiyasi.

Organlar va sistemalar buyicha kuzdan kechirish:

-me'da-ichak yuli: til karash bilan koplagan, palpatsiyada epigastral soxada yoki kinikdan bir oz yukorida ungda, ya'ni un ikki barmok ichak proektsiyasida tugri mushak chekkasida ogrik, kator bemorlarda mushaklarning tarangligi (kuzishda yoki ayrim asoratlarda), epigastral soxada (me'da ustida) perkussiya kilinganda ogrik-Mendel simptomi, kupincha un ikki barmok ichakning yara kasalligida kuzatiladigann kukrak va bel umurtkalari tanasi va utkir uchlarlari satxida ogrik nuktalari kamrok kuzatiladi (Boas, Openxovskiy, Pevzner simptomi va b.), D5-D9 segmentlariga muvofik keladigan Zaxarin-Ged giperesteziya zonalari aniklanadi;

-yurak-tomirlar sistemasi-bradikardiya, gipotenziya, kasallikning pilorostenoz anemiya bilan asoratlangan kechikkan boskichlarida esa miokardiodistrofiya belgilari-tonlar bugikligi, dagal bulmagan sistolik shrvkin aniklanadi;

-boshka organlar va sistemalar tomonidan buladigan patologiya tegishli tekshirish metodlari yordamida aniklanadi (ular kasallik boskichiga va asoratlar bor-yukligiga boglik).

IV. Laboratoriya, rentgenologik va boshka instrumental tekshirish metodlari ma'lumotlari:

-umumiy kon analizi: eritrotsitoz (kasallik boshlanishida, gipersekretsiyada), keyinchalik-eritrotsitopeniya, gemoglobin mikdori pasayishi, mikrotsitoz va gastrogen , xronik gipoxrom (postgemorragik) anemiyaning (ba'zan maktsitar xarakterdagi) boshka belgilari;

-me'da suyukligi analizi: analizi giperatsid xolat, ba'zan yara kasalligi sekretor etishmovchilik bilan utadi ;

-axlat analizi: axlatni yashirin konga tekshirishdan oldin (Gregersen reaksiyasi) 3 kungacha gushtli taomlar istisno kilinib, bemorni tayyorlash tavsiya kilinadi;

-rentgenologik tekshirish: «tokcha» simptomi , me'da yoki un ikki barmok ichakning yara bulgan joyda barkaror deformatsiyasi, burmalar konvergensiyasi simptomi, perisatltika kuchayishi, naxogi gipersekretsiya, «kursatkich barmok» simptomi va b.

-Gastrofibroskopiya yarani topish, uning ulchamlarini, chandiklanish darajasini, boshka asoratlar bor-yukligini, aniklash imkonini beradi.

Yara kasalligining kechishi va klinik formalari.

1.Kasallikning kechishi yaraning kaerda joylpshegpn, me'da sekretsiyasi xolati, bemorning yoshi, jinsi, individual xususiyatlari va odatlariga boglik:

-kasallik odatda kaytalanish va remissiyalar bilan xronik, sikl bilan kechadi:

-kata yoshdagi odamlarda yara boligi tez-tez va mul kon ketishi bilan xavfli:

-yara asoratlanganda kechishi yomonlashadi.

2. Yara kasalligining klinik formalari: xarbiy davrdagi yara kasalligi, usmirlar, yoshi ulgaygan va keksa yoshdagi shaxslar, ayollardagi yara kasalligi, piloroik kanal yarasi, kallyoz yara, sugondan tashkaridagi va kup sonli yaralar, me'da yukori bulimi yarasi, kushilib keladigan gastroduodenal yaralar, asoratlangan yaralar.

Asoratlar: kon okishi, pilorus orayishi, me'da kum soat kurinishida: teshilishi: kushni organlarga penetratsiya: rakka aylanishi: postrezeksion asoratlar: anemiya, ozib ketish, kok suyak bulib kolish. Bundan tashkari , boshka asoralar xam kayd kilinadi: vegetativ tomirlar distoniyasi , ichak

diskineziyasi, enterit va kolit, u kopchasi diskineziyasi, xoletsisik, reaktiv gepatit, reaktiv pankreatit va b.

Davolash.

1. Kuzigan davrda bemorlarni kasalxonaga yotkizish kerak.
2. Parxez bilan davolash: parxez № 1a, 1b, va 1. Ikkala ratsiondan xar birini 10-14 kunga tayinlanadi.
3. Dori-darmonlar bilan davolash.
 - tranklivizatorlar va sedativ preparatlar: meproamat, trioksazin, valeriana damlamasi, noksiron, fenobarbital.
 - Ishkorlar: natriy fosfat va natriy sitrat, natriy sulfat, kuydirilgan magneziya, kltsiy karbonat va kaltsiy fosfat, shuningdek almagel, fosfolugel, vikalina va b.
 - Xolinoliiklar, spazmotitiklar (atropin, metatsin, belladonna, platifillin, ridol, gastripon, gamon, papaverin, no-shpa).
4. Yara kasalligi kompleks terapiyasida fizioterapiya muxim urin tutadi (balchik bilan davolash, diatermiya, brom, novokain elektroforezi, gidroterapiya).
5. Yara kasalligi asoratlarini individual davolash.
6. Sanatoriy-kurortda davolash.
7. Dispanser kuzatuvini, yara kasalligini davolashda uning kaytalanishiga karshi kurash.

VI. Siydik ajratish tizimi xastaliklari bilan og'riq bemorlarni tekshirish

6.1. Siydik ajratish tizimi xastaliklarida bemorni so'rab-surishtirish (interrogatio)

Siydik ajratish tizimini urganish jarayonida bemorni e'tibor bilan kuzatish samarali diagnostik axamiyatga ega . Bunda buyrak , buyrak usti bezlari , siydik pufagi palpatsiya qilinib, kasallik simptomlari o'rganiladi.

Bemorni so'rab surishtirish . Bemorni so'rov jarayonida ba'zan bemor umuman shikoyat qilmasligi mumkin . Bu asosan xastalikning surunkali(glomerulonefritning latent ko'rinishi) davrida kuzatiladi.

Boshqa hollarda bemorni so'rab surishtirishda quyidagi shikoyatlar: buyraklar soxasida og'riq , tez-tez siyish , siyganda kuchli achishish , siydik rangining o'zgarishi , umumiy holzilik, tez charchash , mexnat layoqatining pasayishi va shunga o'xshash boshqa simptomlar aniqlanadi. Ushbu simptomlar ko'p xollarda shifokorni chalg'itib qo'yadi. Buyrak xastaliklarida buyrak kapsulasining kengayishi (utkir glomerulonefritda) – buyrak kosachasi (utkir va surunkali pielonefrit) – siydik yo'lining yopilishi buyrakning joylashuvida xar xil egilib qolish anomaliyalarida , buyrak to'kimalari ishemiyasi (buyrak infarkti) kasalliklari kuzatiladi.

Ogrik sindromlarini taxlil kilganda , ogrik lokalizatsiyasiga kuprok e'tibor beriladi. Kupincha ogrik bel kismida berishi kuzatiladi. Bunda aytib utish lozimki nefrologik amaliyotda bemorda surunkali glomerulonefritda kattik ogriklar kuzatilmaydi.

Buyrakning kuchli sukilishlari okibatida kelib chikgan ogrik kupincha bel soxasida tarkaladi. Bu ogrik korin kismiga xam beriladi. Shamollash natijasida ogrik siydik chikarish kanaligacha tarkaladi. Asosiy ogrik belgilari kasallik xarakterini belgilaydi. Ba'zan pielonefritda ogrik ingrash

bilan kechadi siydik yulining yopilishi natijasida ogrik kuchayishi mumkn. Bemor kupincha notinch sarosimada uzini tutadi , shu bilan birga bemorda umumiy xolsizlik , tez-tez u xolatdan bu xolatga uzgarib turishi kuzatiladi. Ogrik utkir tus olganda tez-tez kaytarishi xam mumkin. Bunday bemorlarda anuriya kuzatilishi mumkin buladi.

Ayrim xollarda shuni ta'kidlash lozimki , kasalliklarning kelib chikishi ayrim omillar bilan uzviy boglikdir. Masalan: burak sikilishi, kuzgalishi , siydik chikarganda siydik pufagi va siydik chikarish yulida ogrik xosil buladi.

Bu kasallikni xolinolitiklarni , spazmalitiklarni in'ektsiya kilish issik vanna kabul kili shorkali davolash mumkin . Utkir paranefritda ogriklar sekinlashadi, agar bemor oyogini bukib sonini bugimiga bukib utirsa dard susayadi. Yani bemor majburiy xolatni egallaydi. Buyrak sikilishi bilan ogrigan bemorlar poliuriya yoki oligauriya bilan shikoyat kiladi.

Poliuriya- bu kunlik siydikning 1,8-2,0 l ga oshishidir. Poliuriya (buyrak) nafakat buyrak kasalligi balki tashki muxit xaroratining pasayishi biror narsadan ta'sirlanishidan , kup suv iste'mol kilish , kandli va kadsiz diobed bilan boglik . Poliuriya buyrakdagi reabsorbtsiya ya'ni suv surilishining pasayishi va buzilishiga olib keladi.

Oligouriya – bu kunlik siydik mikdorining kamayishidar (500 ml dan kam) . bu kasallik tashki muxitning xaroratining yukori bulishi , kup kayd kilish, ich ketishiga olib keladi. Buyrak oligouriyasi buraklar funktsiyasining buzilishi yoki buyrakning xronik kasalliklarida kelib chikadi. Siydikning siydik kovogiga umuman tuplanmasligi anuriya deyiladi. Anuriya kasalligining ikki xili mavjud. Bular buyrak oldi xastaliklari ya'ni anuriyasidir . Bu kasallik – buyrakda konning aylanishi va burak parenximasining boshka kimyoviy moddalar bilan zaxarlanishi orkali va burakda toshlar paydo bulishi orkali kelib chikadi. Anuriya juda xam utkir xastalik xisoblanib , agar u uz vaktida davolanmasa ulimga olib kelishi mumkin.

Yana bir siydik ajratish sistemasining buzilishi dizuriya deyiladi. Dizuriya – bu siydik ajralishining buzilishi, ogirlashuvidir, Yana bir dizuriya xastaligiga boglik ishuriya xili xam mavjud . Ishuriya – bu siydik ajralishining tuxtamasligi . utkir ishuriya prostata bezining kasallanishi orkali xam kelib chikishi mumkin. Bu vaktida bemor juda xolsizlanadi.

Pollakiuriya – sutkada olti marotaba siydikning ajralishi . Bu kasallik siydik ajralishi isistemasining zaxarlanishi (tsistit, prostatit , uretrit) kelib chikadi. Ayrim xollarda pollakiuriya nevroz kasalligining kelib chikishida xam kata rol uynaydi.

Ma'lumki soglom odamda siydik mikdorining 60-80% kunduzda ajraladi(ertalab 800 dan to kechki 2000-gacha) .

Markaziy va periferik nerv sistemasining ish faoliyati buzilganda siydik ajralishining tuxtamasligiga olib keladi. Bu xolat kupincha utkir sistityoki siydik pufagining buyini usmasi bilan boglik .

Tutkanok , bemorda utkir paelonefrityoki akostematozli nefrit kasalliklarining aksi bulib xisoblanadi.

Buyrak xastaliklarida asosan bemorning yuzida shish kuzatiladi. Shish ayniksa ertalab, ayniksa yuz soxasida uchraydi. nomoyon buladi. Bunday xollarda siydikda konning shakliy elemetlari uchrashishi natijasida siydik rangi uzgaradi (makrogematuriya) .

Umuman olganda , buyrak xastaliklari birinchi navbatda shamollaganda, yalliglanishlarda juda katta asoratlar kolishi mumkin(angina, tepki va boshkalar) . Ikkinchi navbatda anamnez (viter) va anamnez (morbi) utkaziladi. Anamnez Viterda bemor ismi turar joyi yili suraladi va ezib olinadi .

Anamnez Morbida esa bemor kasalining kelib chikishi, genlar tekshiriladi va anik bir tashxis koyiladi .

6.2. Siydik ajratish tizimi xastaliklarida bemorlarni umumiy ko'zdan kechirish

6.3. Buyrak soxasini tekshirish

Bemorning bel va korin soxasini tekshirgan vaktida buyrak kasalligini darrov aniklab bulmaydi , fakat buyrak xajmi oshgandagini anik bir xulosaga kelish mumkin .Buyrak oldi shamollaganda eki yalliklaganda giperemiya va bel soxasida shish xosil bulishi, siydik pufagini tez-tez bulishi bu buyrakning xronik va utkir utishidan boglikdir .Bunda korinning pastki soxasida shish paydo buladi .

6.3. Buyrakni paypaslash

Normada buyrakni tekshirishda palpatsiya usulidan deyarli foydalanilmaydi ,lekin ozgin odamni palpatsiya kilish mumkin .Palpatsiya orkali ma'lum buldiki chap buyrak ung buyrakga nisbatdan pasrokga joylashgan .Kupincha palpatsiya , - buyrak soxasining shishgan vaktida yaxshi kurinadi.

Buyraklarni palpatsiyalashda bemor gorizontol xolatda beli bilan yotib oyogini chuzgan xolatda, kullari kukrak kafasiga kuyganidan keyin korin muskullari susayadi. Buyrakni paypaslashda xakim ung tomonda turib chap kulini bemorni bel soxasixa kuygan xolda barmoklarini uchi umurtka pagonasining yonida bulishi kerak , kursatgich barmok esa 12-kovurgada tegib turishi kerak .Korin muskullari bushashganda barmoklar yordamida korin paypaslanadi , shu bilan bir vaktida chap kul kafti bilan bel soxasi bosiladi. Sung ikki kulni bir-biriga yakinlashtirib belni kisadilar . Bunday tekshirish usuli extiyotkorlik bilan juda xam sekin olib boriladi. Buyraklarni paypaslab tekshirganda ularni shaklini , chegarasini aniklash mumkin. Demak , me'yorda burakning uzunligi 12 sm , kengligi 6sm, yuzasi sillik. Ma'lumki buyrak palpatsiyasida bemor ta'sirlanmaydi, ammo keyichalik uzini noxush sezib kayt kilishi mumkin. Buyrak tuzilishining m'yorda bulmasligi usma yoki shishlarning xosil bulishidan darak beradi. Ma'lumki buyraklar boshka organlardan uz elastik tuzilishi bilan ajralib turadi, lekin buyrakning turli xastalıkları (pielonefrit, paranefrit, buyrak usmari)da burak elastikligini yukotib , aksincha dagallashadi. Buyrak talokdan uzining vertikal va medial joylashuvi bilan farklanadi.

Bulardan tashkari palpatsiya tekshirish usuli yordamida siydik pufagining tulgan vaktida tekshiriladi. Bunday tekshirish usuli asosan siydik tosh xastaligini aniklashda samarali bulib xisoblanadi.

6.4.Buyrakni palpatsiya kilish.

Buyrakni paypaslab teshirib kurishimizdan maksad : buyrak kata kichikligini (xajmini) va kattik – yumshokligini aniklash.

1. shakli ulchamlari yukoriga pastga va yon tomonga siljishini aniklash.
2. ogrik darajasini aniklash.

Palpatsiyani bajarish texnikasi :

1. ikki xil xolatda olibboriladi . Bemor tik turgan yoki yotgan xolatda bulishi kerak .
2. bemor xolati . Bemorning tizzalari yarim bukilgan xolatda, muskullar bushashgan va bemorni kuli kukrak kafasida turadi.
3. Xamshiraning xolati : Tekshiruvchi bemorning ung tomonidan , chap kul kaftini bemor belining ung tomoniga XII kovurga tagiga kuyadi. Ung kul barmoklarini bukkan xolda korinning tugri mushaklaridan tashkarirokda kuyadi, bunda barmok kovurgalar ravogigsha tugri tushishi kerak.

4. Barmok xar gall nafas chikarganda ung kul barmoklari uning korin bushligiga tobora chukurrok botiriladi va korinning orka devoriga – korin terisi orkali kul barmoklariga takalguncha utkazib etkaziladi.
5. Bemorga chukur nafas olish buyuriladi. Bunda buyrakning pastki uchi pastrok tushadi va ung kul barmoklari ostiga tugri kelib koladi, shunda uni bu barmoklar chap kul barmoklariga kisib tutib oladi. Bu usul bimanual deb ataladi.

Balatirlovchi turtib – turib paypaslash yoki (Gyuyon usuli)

- A) Kullar xuddi bimanual palpatsiyadagidek kuyiladi
 - B) Bel tomondan chap kul bilan bir necha martta kiska –kiska siltovchi yoki turtuvchi xarakat kilinadi.
 - G) Buyrak turtki ta'sirida tebranadi va kulga unnaydi. G) Stratesko buyrakni pastki kutbi kulga unnasa 1nchi darajali (ren palpabilis).
 - D) Buyrakning xammasi kulga unnasa 2 - chi darajali (ren mabilis)
 - E) xammasi kulga unnab uz joyidan xar tomonga siljiy olsa 3-chi darajali (ren migrants) pastga tushishi .
- Diagnostik axamiyati . Palpatsiya orkali ogrik soxalarini , shakli , siljishi , kattik – yumshokligini aniklash dastlabki diagnozni kuyishga axamiyati katta.

6.5. Buyrak perkussiyasi

Siydik pufagini Pasternatskiy usuli buyicha perkussiya tekshirishni utkazish.

Kurgina buyrak xastaliklarini tugriva anik tashxislashda tukillatib kurish metodidan keng foydalaniladi. Ya'ni Pasternatskiy usulidan foylalaniladi. Ushbu tekshirish usulini kullashda avvalabor shifokor bemorning ung tomodidan turib , chap kulini bemorning 12-kovurgasiga kuyib ung kuli bilan urib kuradi. Tekshirish olib borilayotganda bemor turi byoki utirgan xolatida bulishi kerak.

Tukillatib tekshirish usuli , siydik pufaging yukori kismini aniklashda xam diagnostik axamiyatga ega. Buning uchun shifokor ung kuli bilan bemorning kindik tugunchasidan boshlab pastga va yukoriga yunaltirib yurgizadi. Agar siydik pufagi bush bulsa, timpanik tovush kov suyagigacha saklanadi. Siydik pufaging tulish vaktida esa timpanik tovush pasayadi. Siydik ajratish tizimini tekshiruv asoslari.

Urologik xolatlarda tez tibbiy yordam kursatish buyrak xastaliklarida xosil buladigan buyrak sanchigi tez tibbiy yordam kursatish xolatlarining biriga kiradi.

Buyrak sanchigi kupincha siydik –tosh kasalligida , siydik nayining bukilib kolishi natijasida yuzaga keladi.

Siydik chikaruv yullarida siydik dimlanib kolishi natijasida buyrak jomida kon bosimi kutarilib, buyrak ulchami kengayadi va kuchli ogrik paydo bulishiga sabab buladi.

Buyrakni perkussiya usuli yordamida tekshirishdan maksad :

Buyrakni ularning kisimlarini turtib kurish.

Bajarish texnikasi .

1. Chap kulimizni kaftni umurtka pagonasining ikki tomonidan simmetrik (buyrak joylashgan joyga) kuyamiz.
2. Ung kul mushtni yoki kul panjasinining tashki kurrasi bilan kiska-kiska uriladi
3. Bel soxasiga urib kuriladigan yuzaga keladigan ogrikni sezsa , bu Pasternatskiyning musbat belgisi deb xisoblanadi.

Diagnostik axamiyati :

Ushbu simptom buyrak tosh xastaligida, buyrak tomirlari shikastlanganda buyrak oldi xujayralari yalliglanishida tashxisiy axamiyatga ega.

6.5. Siydik ajratish tizimini laborator tekshirish usullari

Siydikni tekshirish

Siydikni tekshirish buyraklarning funktsional xolatini aniklab olishga imkon beribgina kolmay (siydikning klinik va boshka analizlari), boshka organlar, masalan, kovuk, ut pufagi, jigar kasalliklarini, shuningdek moddalar almashinuvining uzgarishlarini aniklab olishga xam imkon beradi.

Tekshirish uchun ancha kontsentrlangan xolda buladigan ertalabki siydikdan foydalaniladi, uni bemor kasalxonaga kelib yotganidan keyingi birinchi kuni ertalab olinadi. Keyinchalik 7—10 kunda kamida 1 marta

siydik analiz kilib turiladi (bemor kasalxonada yotgan davrda).

Davolash protsessida, operatsiyalar kilingandan keyin, kasalga kon kuyishdan avval va bundan keyin va boshka organ xamda sistemala-dagi patologik uzgarkshlarnp siydik analizi aniklab bera oladigan xollarda siydikni ancha teztez klinik analiz kilib turish zarur buladi. Ayol kishining siydigini olishdan avval tashki jinsiy organlarini yuvish, bordiyu, u xayz kurgan bulsa, kateter yordamida siydik olish kerak. Umumiy analiz uchun 150—200 ml siydik kifoya kiladi. Siydikni yaxshilab yuvilgan idish yoki tagga tutiladigan tuvakka olinadi. Tuvakdan siydikni laboratoriyaga junatish uchun toza shisha idishga kuyib olish lozim. Siydik yirish va saklash uchun tutiladigan idishlarni tekshirish natijalari boshkacha chikib kolmasligi uchun ishkor eritmalari bilan yuvish yaramaydi.

Bakteriya va zambururlarni aniklash (ekib, undirib kurish) va biologik tekshirish uchun siydik olishdan avval tashki jinsiy or-ganlarni dezinfektsiyalovchi eritma (masalan, furatsilin yoki kaliy permanganat eritmasi) bilan yuvish va steril kateter bilan maxsus idishga 15—20 ml siydik olib, uning ogzini darrov berkitish za-rur. Olingan siydikka antiseptik moddalar kushilmaydi. Xar xil sharoitlar ta'siri bilan : jismoniy ish natijasida, badan kizib ketganida, ichilgan suyuklik mikdori, eyilgan ovkat xususiyatlarigakarab , xattoki odam ortikcha xis- xayajonlarga berilganida siydik uz xossalarini uzgartirib kuyadi.

Laboratoriya tekshiruvi uchun siydik yigish

Kerakli ashyolar: Toza shisha idish, yullanma.

Muolaja algoritmi:

Siydik taxlili bemorni umumiy tekshirishda ma'lumotning muxim tarkibiy kismi xisoblanadi.

Siydik yigishdan oldin bemorning osti yuviladi. Xayz kurish davrida siydik taxlili olish tavsiya kilinmaydi, bordiyu bunga zarurat bulsa, siydikni kateter yordamida olinadi.

Bemor 100—200 ml ertalabki siydigini toza kuruk, shisha idishga yigishi lozim. Idishga ismi sharifi, kuni xamda tekshirish maksadi yozilgan yorlik, yopishtiriladi va laboratoriyaga junatiladi.

Addis-Kakovskiy usulida siydik yigish. Bemorga bir kun oldin siydikni kanday yigish tushuntiriladi. Bemor siydikni yigishdan oldin kechkurun soat 10 larda siydik kopini bushatishi va tunda xojatga bormasligi lozim. Erta bilan soat 8 da siydik toza shisha idishga yigiladi va laboratoriyaga junatiladi.

Nechiporenko usulida siydik yigish. Bemorga siydik yigishning bu usuli tushuntirtsladi. Siydik bir kecha-kunduz davomida xoxlangan vaktida yigiladi. Buning uchun bemorning tashki jinsiy

a'zolari yuviladi va siydikning «urta kismi» toza idishga yigiladi. Taxlil uchun 2—3 ml siylik etadi. Yullanma yozilib, siydik ilikligida laboratoriyaga junatiladi.

Kand mikdorini tekshirish uchun siydik yigish. Bemor siydigini bir kecha-kunduz davomida yigishi lozim.

Erta bilan soat 8 da bemor siydik kopini bushatishi lozim.

Bir kecha-kunduz mobaynida yigilgan siydik bitta idishga yigiladi.

Xamshira siydikning umumiy xajmini ulchaydi.

Barcha idishlardagi siydik yaxshilab aralashtirilib, undan 100-200 ml kichikrok idishga solinib taxlilga yuboriladi.

Siydikni diastazaga olish. Bu tekshiruv uchun 50 ml konservantsiz yangi siydik olinib, laboratoriyaga junatiladi.

Zimnitsskiy usulida siydik yigish. Bemorga bir kun oldin siydik yigish koidalari tushuntiriladi. Bemor ertalab soat 6 da kovugini bushatadi va siydikning bu kismi tukib tashlanadi, sungra u kun mobaynida 3 soatlik tanaffus bilan xar gal aloxida idishga siydigini yigadi, xamshira bir kun avval kechkurun 8 ta toza shisha idishni tayyorlab ularning xar biriga bemorning ismi sharifi, idishning tartib rakami yozilgan krgoz yopishtirib kuyadi. Bemor ertalab soat 9 dan boshlab ertasiga soat 6 gacha 8 marotaba kovugini bushatishi lozim. Siydikning barcha kismi laboratoriyaga junatiladi. Kunlik siydik mikdorini ulchab tungi va kunduzgi diurez aniklanadi. Kunduzgi diurez (ertalab soat 9-18 gacha) tungidan kup bulishi kerak. Me'yorda u umumiy diurezning taxminan 2G`3 kismni tashkil etadi. Soat 22.00 -6.00' gacha bulgan spydik mikdori tungi diurez xisoblanadi. Soglom kishilarda bu umumiy diurezning 1G`3 kismni tashkil kiladi. Umumiy kunlik siydik mikdori odatda bir kunda ichilgan suyakchikning 65—75% dan iborat. Kunduzgi diurez tungidan or tik bulsa va siydikning nisbiy zichligi 1,008 dan 1025 gacha uzgarib tursa buyraklarning funktsional kobiliyati yaxshi xisoblanadi. Siydik nisbiy zichligining pasayishi buyraklar faoliyatining etishmovchiligidan darak beradi.

eslatma: Siydik tekshirish uchun asosan ertalab olinadi. Leykotsit, eritrotsit va silindrlar (soni), k.on elementlarini aniklash uchun yigilgan siydik taxlilxonaga 1 soat mobaynida olib boriladi. Yorlikda umumiy tushuntirish ma'lumotidan tashkari siydikning umumiy mikdori yoziladi. Sinama utkazishga monelik kiladigan xollar yuk. Agar siydik mikdorining biror kismi shishaga sigmai kolsa, koldigi ikkinchi shishaga kuyiladi va kogozga kushimcha siydik mikdori yozib kuyiladi.

6.6. Siydik ajratish tizimi xastaliklari bilan ogrigan bemorlarni instrumental tekshirish usullari

Bemorlarni rentgenologik tekshiruvga tayyorlash

Siydik tizimini rentgenologik tekshirish uchun yodli kontrast moddalar — sergozin, urografin, verognost va boshkalar kullaniladi. Kontrast moddalar sistoskop va kateter orkali siydik yullariga yoki venaga yuboriladi. Bemorlarda ushbu dori vositalaridan allergiya kelib chikishini xisobga olib ular asta-sekin (5—7 min) yuboriladi. Venaga yuborilgan kontrast modda buyraklar orkali tezda chikib ketadi. Kontrast modda yuborilgandan sung 10,20,30,45 va 60 dakika utgach, kilingan tasvirlarda buyrak jomlari, siydik yullari va kovukning umumiy kurinishi ifoda-lanadi. Yodga ortikcha sezuvchanlik bulganda, buyrakning pust kavati shikastlanadigan kasalliklarda (nifrit, nifroz), silning faol turi, ogir jigar xastaliklarida. Bazedov kasalligida, yurak etishmovchiligida, yodli kon-trast moddalarni yuborishga ruxsat etilmaydi.

Kerakli ashyolar: Esmarx krujkasi, suv, kuza. kleyonka, sistoskop, kate-ter, kontrast moddalar.

Muolaja algoritmi:

1. Bemorni tayyorlashda asosiy maksad ichaklarda el bulmasligiga erishish.
2. Xar bir bemor yoshiga, kasallik turiga, me'da-ichak faoliyatiga karab shaxsiy tayyorgarlikdan utadi.
3. Bemor tekshirishdan 2-3 kun oldin el xosil kiluvchi maxsulotlarni iste'mol kilmasligi zarur.

4. Kabziyatga moyillik bulsa, tayyorgarlik davrida bemorga engil surgilar, korin dam bulganda 1 tadan 3 maxal karbolen tabletkasi tavsiya etiladi.
5. Tekshirishdan bir kun oldin kunning ikkinchi yarmidan boshlab suyuqlik iste'mol kilish kamaytiriladi.
6. Kechkurun va ertalab tozalovchi xukna kilinadi.
7. Siydik chikarish kanalini tekshirish uchun unga tarkibida yod moddasi bulgan 60—76 % li verografin yuboriladi.
8. Kontrast moddaga sezuvchanlikni tekshirish uchun, venaga 1-2 kun (juda sekin) 1 ml verografin yuboriladi.
9. Yodizm alomatlari paydo bulsa, tekshirish bekor kilinadi (tumov, toshmalar, shishlar, et uvishishi, xarorat kutarilishi).
10. Bemorda xech kanday alomatlar kuzatilmasa, rentgen xonasida uning venasiga 20 ml dan 60 ml gacha verografin eritmasi 0,3 mlG`sek tezligida yuboriladi.
11. Ayrim tekshirishlar uchun verografin siydik yullariga tashkaridan kateter orkali yuboriladi. Bunda bemor yukoridagi tayyorlovga muxtoj emas.

Siydikni tekshirish

Siydikni tekshirish buyraklarning funktsional xolatini aniklab olishga imkon beribgina kolmay (siydikning klinik va boshka analizlari), boshka organlar, masalan, kovuk, ut pufagi, jigar kasalliklarini, shuningdek moddalar almashinuvining uzgarishlarini aniklab olishga xam imkon beradi.

Tekshirish uchun ancha kontsentrlangan xolda buladigan ertalabki siydikdan foydalaniladi, uni bemor kasalxonaga kelib yotganidan keyingi birinchi kuni ertalab olinadi. Keyinchalik 7—10 kunda kamida 1 marta

siydik analiz kilib turiladi (bemor kasalxonada yotgan davrda).

Davolash protsessida, operatsiyalar kilingandan keyin, kasalga kon kuyishdan avval va bundan keyin va boshka organ xamda sistemala-dagi patologik uzgarkshlarnp siydik analizi aniklab bera oladigan xollarda siydikni ancha teztez klinik analiz kilib turish zarur buladi. Ayol kishining siydigini olishdan avval tashki jinsiy organlarini yuvish, bordiyu, u xayz kurgan bulsa, kateter yordamida siydik olish kerak. Umumiy analiz uchun 150—200 ml siydik kifoya kiladi. Siydikni yaxshilab yuvilgan idish yoki tagga tutiladigan tuvakka olinadi. Tuvakdan siydikni laboratoriyaga junatish uchun toza shisha idishga kuyib olish lozim. Siydik yirish va saklash uchun tutiladigan idishlarni tekshirish natijalari boshkacha chikib kolmasligi uchun ishkor eritmalari bilan yuvish yaramaydi.

Bakteriya va zambururlarni aniklash (ekib, undirib kurish) va biologik tekshirish uchun siydik olishdan avval tashki jinsiy or-ganlarni dezinfektsiyalovchi eritma (masalan, furatsilin yoki kaliy permanganat eritmasi) bilan yuvish va steril kateter bilan maxsus idishga 15—20 ml siydik olib, uning ogzini darrov berkitish za-rur. Olingan siydikka antiseptik moddalar kushilmaydi. Xar xil sharoitlar ta'siri bilan : jismoniy ish natijasida, badan kizib ketganida, ichilgan suyuqlik mikdori, eyilgan ovkat xususiyatlarigakarab , xattoki odam ortikcha xis- xayajonlarga berilganida siydik uz xossalarini uzgartirib kuyadi.

Laboratoriya tekshiruvi uchun siydik yigish

Kerakli ashyolar: Toza shisha idish, yullanma.

Muolaja algoritmi:

Siydik taxlili bemorni umumiy tekshirishda ma'lumotning muxim tarkibiy kismi xisoblanadi.

Siydik yigishdan oldin bemorning osti yuviladi. Xayz kurish davrida siydik taxlili olish tavsiya kilinmaydi, bordiyu bunga zarurat bulsa, siydikni kateter yordamida olinadi.

Bemor 100—200 ml ertalabki siydigini toza kuruk, shisha idishga yigishi lozim. Idishga ismi sharifi, kuni xamda tekshirish maksadi yozilgan yorlik, yopishtiriladi va laboratoriyaga junatiladi.

Addis-Kakovskiy usulida siydik yigish. Bemorga bir kun oldin siydikni kanday yigish tushuntiriladi. Bemor siydikni yigishdan oldin kechkurun soat 10 larda siydik kopini bushatishi va

tunda xojatga bormasligi lozim. Erta bilan soat 8 da siydik toza shisha idishga yigiladi va laboratoriyaga junatiladi.

Nechiporenko usulida siydik yigish. Bemorga siydik yigishning bu usuli tushuntirsladi. Siydik bir kecha-kunduz davomida xoxlangan vaktida yigiladi. Buning uchun bemorning tashki jinsiy a'zolari yuviladi va siydikning «urta kismi» toza idishga yigiladi. Taxlil uchun 2—3 ml siylik etadi. Yullanma yozilib, siydik ilikligida laboratoriyaga junatiladi.

Kand mikdorini tekshirish uchun siydik yigish. Bemor siydigini bir kecha-kunduz davomida yigishi lozim.

Erta bilan soat 8 da bemor siydik kopini bushatishi lozim.

Bir kecha-kunduz mobaynida yigilgan siydik bitta idishga yigiladi.

Xamshira siydikning umumiy xajmini ulchaydi.

Barcha idishlardagi siydik yaxshilab aralashtirilib, undan 100-200 ml kichikrok idishga solinib taxlilga yuboriladi.

Siydikni diastazaga olish. Bu tekshiruv uchun 50 ml konservantsiz yangi siydik olinib, laboratoriyaga junatiladi.

Zimnitsskiy usulida siydik yigish. Bemorga bir kun oldin siydik yigish koidalari tushuntiriladi. Bemor ertalab soat 6 da kovugini bushatadi va siydikning bu kismi tukib tashlanadi, sungra u kun mobaynida 3 soatlik tanaffus bilan xar gal aloxida idishga siydigini yigadi, xamshira bir kun avval kechkurun 8 ta toza shisha idishni tayyorlab ularning xar biriga bemorning ismi sharifi, idishning tartib rakami yozilgan krgoz yopishtirib kuyadi. Bemor ertalab soat 9 dan boshlab ertasiga soat 6 gacha 8 marotaba kovugini bushatishi lozim. Siydikning barcha kismi laboratoriyaga junatiladi. Kunlik siydik mikdorini ulchab tungi va kunduzgi diurez aniklanadi. Kunduzgi diurez (ertalab soat 9-18 gacha) tungidan kup bulishi kerak. Me'yorda u umumiy diurezning taxminan 2G`3 kismni tashkil etadi. Soat 22.00 -6.00' gacha bulgan spydik mikdori tungi diurez xisoblanadi. Soglom kishilarda bu umumiy diurezning 1G`3 kismni tashkil kiladi. Umumiy kunlik siydik mikdori odatda bir kunda ichilgan suyakchikning 65—75% dan iborat. Kunduzgi diurez tungidan or tik bulsa va siydikning nisbiy zichligi 1,008 dan 1025 gacha uzgarib tursa buyraklarning funktsional kobiliyati yaxshi xisoblanadi. Siydik nisbiy zichligining pasayishi buyraklar faoliyatining etishmovchiligidan darak beradi.

eslatma: Siydik tekshirish uchun asosan ertalab olinadi. Leykotsit, eritrotsit va silindrlar (soni), k.on elementlarini aniklash uchun yigilgan siydik taxlilxonaga 1 soat mobaynida olib boriladi. Yorlikda umumiy tushuntirish ma'lumotidan tashkari siydikning umumiy mikdori yoziladi. Sinama utkazishga monelik kiladigan xollar yuk. Agar siydik mikdorining biror kismi shishaga sigmai kolsa, koldigi ikkinchi shishaga kuyiladi va kogozga kushimcha siydik mikdori yozib kuyiladi.

6.7. Siydik ajratish tizimi xastalıkları

Buyrak sanchigidagi ogrikli sindrom .

Buyrak sanchigida kuchli ogrik ung yoki chap bel soxasidan boshlanib , siydik naylari , chov soxasida va jinsiy organlarga tarkaladi, dizuretik uzgarishlar makrogematuriya, ba'zi xollarda bemorlarda kungil aynishi , kusish, tana xaroratining kutarilishi kuzatiladi.

Buyrak sanchigi vaktida bemor juda bezovta buladi, ogrikni kamaytirish uchun uzini kulay xolatda tutadi, ya'ni majburiy xolatni egallaydi.

Buyrak sanchigida birinchi yordam berish: Bel soxasida 10-20 dakika issik grelka kuyish, yoki 38-390S da issik vanna kabul kilishi . buyrak naylaridagi spazmni yukotib, ogrikni sekinlashtirish , goxida toshning tushishiga erishish, bundan tashkari spazmolitik preparatlaridan : no-shpa, baralgin, xolenolitiklardan – artopin shoshilinch xollarda narkotik analgetiklar – promedoldan foydalanish.

Shish sindromi.

Buyrak xastaliklarida – shishlarning xosil bulishi kapillyar kon tomirlarning utkazuvchanligi oshib, siydik orkali oksil kup mikdorda chikariladi, konning tarkibidagi oksil mikdorining kamayishi natijasida kon zardobidagi kollond- osmotik bosim pasayib, organizmda natriy ionlari saklanib koladi.

Buyrak xastaliklarida paydo buladigan shishlarning xaorakterli belgisi, teri osti yog katlami bush rivojlangan joydalar(masalan yukori va pastki kovoklar) da joylashadi. Shishlar kupaygan davrda oliguriya(siydik chikarishning kamayishi) vujudga keladi.

Buyrak va yurak etishmovchiligi kasalliklarida shishlarning oshib ketishi 1 kunda organizm tomonidan kabul kilingan va ajratilgan suyuqlik mikdorining nisbatiga boglik buladi. Bundayo xolatlarda bemorlarning ovkat tarkibidan belgilangan xolatda natriy xloridni kuniga 1-3g mikdorda cheklash, xamda buyrak etishmovchiligi belgilari bulmaganda suyuqlik mikdorini kamatirish lozim buladi.

Shishlarni samarali davolashda xar xil siydik xaydovchi preparatlardan foydalaniladi; furasemid, gipoteazid, Veroshpiron va boshkalar.

Shishning dinamikasini baxolashda, albatta bemorning vaznini muntazam ravishda ulchab borish zarur.

Arterial gipertenziya .

Buyrak xastaliklarida eng kup uchraydigan belgi bu arterial – gipertenziyadir, ya'ni buyraklarda kon aylanishi buzilishi , keyinchalik renin moddasining ishlab chikarilishi natijasida arterial kon bosimning kutarilishiga olib kelishidir.

Buyrak arterial gipertenziyasi odatda uzok davom etadi va yurak etishmovchiligining rivojlanishiga , chap korincha faoliyatining zurikishiga olib keladi. Bulardan tashkari asta-sekinlik bilan kuz kon momirlarini zararlab , kuruv xususiyatini pasayishiga va bosh miyaning kon bilan ta'minlanishini zararlaydi. Arterial gipertenziya aniklangach , ma'lum bir ishlab chikilgan tizim yordamida bemor nazoratga olinadi; ovkatlanish jarayonida tuz mikdorining kamaytirilishi yoki umuman cheklash, doimiy gipotenziv maxsulotlari (klofelin, dopegit va.xo.k) , siydik xaydovchi dorilar tavsiya etiladi.

Krotkov usuli yordamida KG`B ulchashda apparat (rtut tonometri) manjetasi son bilagiga utkaziladi.

Apparatni yurak yakinida joylashtirib , tirsakning ichki yuzasi puls urib turishi joyidga fonendoskop urnatiladi, manjeta sikiladi, ya'ni manjetaga xavo tuldiriladi. Simob 200-250 mm.ga etganda xavo tuldirish tuxtatiladi va asta sekinlik Bilan orka buriladi. Bu xolat birinchi ton paydo bulishi bilanok tuxtatiladi. Bu jaraenni apparat shkalasida belgilab, tomirlarda konning ulchami aniklanadi.manjetdagi xavoni asta-sekin chikarib, dmastolik ulcham kattaligi – ton ovozing tez yukolishini uzatish mumkin.

Utkir buyrak etishmovchiligi

Utkir buyrak etishmovchiligi buyraklarda kon aylanishining (masalan shok xolatida), nefrotoksik moddalar bilan zaxarlanganda, siydik paylarining kisilishi natijasida yuzaga keladi. Utkir buyrak etishmovchiligida bemor axvolining ogirlashuvi , es-xushi buzilishi , nafas etishmovchiligi , yurak kon tomir etishmovchiligi , kungil aynishi , kusish oliguriya, ogir uremiya rivojlanib bemor ulimiga olib kelishi mumkin buladi. Kasallikni normal xolatda 2 xafta davomida kechishi diurez oshishiga olib keladi, lekin mazkur xolatda oliguriya sutkalik siydik (poliuriya) bilan almashinadi va okibatda buyraklarning kontsentratsion funksiyasi kayta tiklanib konda kreatin mikdorini me'yoriy bulishie ta'minlaydi.

Utkir buyrak etishmovchiligi bilan xastalangan bemorlarni davolashda organizmdan zaxarlarni xaydash (oshkozon yuvilishi) bilan belgilanadi. Odatda oshkozonni gidrokarbonat natriy yoki permanganat kaliy aralashmali xona xaroratidagi suv bilan yuvish (tozalash) lozim. Oshkozonni yuvish uchun oshkozon zondi kalinligi 0,5-11.li shishali varonka , kalin rezinali trubka kuza va togora kerak buladi. Oldindan 5-10 litr ilik suv xam tayyorlab kuyiladi. Bemorni stulga utkizilib ,

kukragiga klyonka yoki polietilendan tayyorlangan fartuk yozmladi ; ogzini ochib boshi sal oldinga egiladi. Zond uchini til ildiziga kuyiladi va yutuvchi xarakatlarni bajargan xolda zond asta-sekin ichkari kiritiladi. Bemor chukur nafas olishi lozim. Zond 40-50 sm ga ichkari kiritiladi va uchi trubka , varonka bilan ulanadi . varonkani kukrak kafasidan pastda saklab, suv kuyiladi, keyinchalik esa 25-30 sm ga kutariladi, shundagina suyuqlik oshkozonga butunligicha kuyiladi. Suv satxi varonka ogziga etganda , koldik suv togoroga tukiladi. Yuviluvchi suvning birinchi kismi tekshirish uchun labaratoriyaga yuboriladi. Oshkozondan to toza suv chikmaguncha oshkozon yuviladi. Bexush xolatda yotgan bemorlar oshkozonni Mayin, ingichka zond orkali (burun orkali) yuvish tavsiya etiladi. Bemor gavdasi pastga karatib , boshi chapga burilib sal egiladi. Zond yaxshilab moylanib (vazelin, usimlik yogi) , xikildok orka devori orkali kiritiladi. Shprints orkali oshkozon ichi suriladi va yuvish boshlanadi. Surilish va suv Bilan yuvish shprints orkali amalga oshiriladi. Shu jumladan antishok xolatlarini kurib chikib, «sun'iy buyrak» apparatidan foydalanishi xam xal kiladilar .

Surunkali buyrak etishmovchiligi

Uzok muddat davomida surunkali buyrak xastaliklarining kechishi jarayonida surunkali buyrak etishmovchiligi kasalligi yuzaga keladi. Buyrak etishmovchiliklarining kechki boskichlarida konda azon koldik4larining kursatgichi (azotemiya) kupayyadi, siydik xidi nafas olish orkali chika boshlaydi, shuningdek kungil aylanishi , kusish, ich ketish xolatlari kuzatiladi. Utkir buyrak xastalikligiga chalingan bemorni ovkatlanish jarayonida oksillar kamayishini inobatga oladilar (30-40 g bir kunda , ogir axvoldagi bemorlarga esa 20-25 g kunda). Ya'ni 7-chi parxez stoli tayinlanadi

7-a parxez. Buyuriladigan vakti: Utkir glomerulonefritda guruch, olma, kartoshka yoki buyrak etishmovchiligi davriga utgan surunkali nefritda buyuriladi. Buyurishdan maksad: buyraklarni mumkin kadar kuprok avaylay-digan sharoitlar yaratish, ot tuzini cheklab kuyish yuli bilan gipertoniya va shishlarga ijobiy ta'sir kursatish. Umumiy xususiyati: oksillari keskin cheklanadi. Yoglar va uglevodlar fiziologik me'yor atrofida buladi. Bu parxez tuzsiz va unda natriy elementi kam. Bunday kasallarga oldingi kunda kancha mikdorda siydik chikargan bulsa, xuddi shuncha suyuqlik berib turish ruxsat etiladi. Sabzavot, mevalar etarli mikdorda, kisman tabiiy xolda, pishirmas-dan beriladi. Tarkibi va Kuvvati: oksillar 5-ZOg, yoglar 80-100g, uglevodlar 400-500g. Kuvvati 2550-2600 kkal. Vitamin S va V kuprok beriladi. Ovkatlanish tartibi: kuniga 5 maxal.

7- b parxez. Buyuriladigan vakti:

Utkir nefritda 7-a parxezdan keyin, shuningdek, nefritning surunkali utkir, badanda shishlar bulib turgan, arterial bosim kutarilganda, ammo buy-raklar faoliyati saklanib kolganda buyuriladi. Buyurishdan maksad: 7-a par-xezda kandy bulsa, bunda xam shunday. Umumiy tasnifi: oksillar mikdori 7-a parxezga nisbatan 45-50g gacha oshirilib, kaynatib pishirilgan gusht, balik va 200g sut va chuchuk kefir kushiladi. Maxsulotlardagi osh tuzi mikdori 1,5g gacha kupaytiriladi. Tarkibi va kuvvati: oksillar 45-50g, yoglar 100g, uglevod-lar 450-500g. Kuvvati 3000 kkal.

7-parxez. Buyuriladigan vakti: Tuzalish davriga utgan utkir nefrit, siy-dik chukmasidagi uzgarishlar kam seziladigan surunkali nefrit, xomilador-lar nefropatiyasi, xafakonlik-gipertoniya kasalligi va tuzsiz ovkat zarur buladigan boshka xolatlarda. Buyurishdan maksad: buyraklar funksiyasini bir kadar avaylash, kutarilib ketgan arterial kon bosimi va shishlarga ijobiy ta'sir kursatish. Umumiy tasnifi: tuzsiz, masalliklarning xili pishirish jixatidan olganda, 7a va 76 parxezlardan fark kilmaydi. Oksillarning mik-dori 80g gacha kupaytirilib, kaynatib pishirilgan gusht, balik va churigan-tvorog kushiladi. Dukkakli usimlik maxsulotlari, kuchli gusht shurvalari, pishirik va kremlar, gazlangan va spirtli ichimliklar, kovurilgan gusht, pivo man kilinadi. Tarkibi va kuvvati: oksillar 80g, yoglar 100, uglevodlari 400-500g. Kuvvati 2800-3200 kkal. Vitamin S, R, shuningdek V gurux vitaminlari

kuprok mikdorda buyuriladi.

Buyraklari amiloidozga uchragan, ammo faoliyatlari saklanib kolgan bemorlar bilan nefrozli bemorlarga oksillarning mikdori 140g gacha kupaytirilgan, lipotrop omillari, tuyinmagan va uta tuyinmagan yog kislotalari va vitaminlari mulrok bulgan 7 - parhez buyuriladi.

Bunday bemorlarga birinchi navbatda gusht va balik maxsulotlarini iste'mol qilish kat'iyannan manq etiladi. Shuningdek tuz mikdori xam kamaytirilishi lozim 2-3 g kunida. Oshkozonn – ichak xastalıklarining ogir xolatlarida oshkozonn yuviladi va 2 foyizli gidrokarbonat natriy aralashmalı klizmadan foydalaniladi. Organizmning kislotali muxitini xam inobatga oladilar (gidrokarbonat natriyning 1 % aralashmasi ichkari kuyiladi). Simptomatik terapiya maksadida siydik xaydovchi va gipotenziv usullaridan foydalaniladi.

Siydikning kam mikdarda ajralishi (ishuriya) .

Siydik ajralmasligi (ishuriya)kovuk (siydik pufagi)ning siydik ajratilmasligiga aytiladi. Bunday xolatlarini biz urologik kasalliklarda siydik chikaruv kanali funktsiyasining izdan chikishida (masalan, prostata bezining yalliglanishida), jarroxlik operatsiyalaridan sung (korin va korin bushligi jarroxlik xolatları) tugrukdan keyingi davr, asab tizimlarining buzilishida kuzatiladi.

Utkir siydik ajralmasligi jarayoni kovukdagi kattik ogrik bilan xarakterlinadi. Ushbu xastalik asab tizimi kasalligi ta'siri tufayli bulsa, u xolda bu davr xech bir simptomsiz orkali kechadi . siydik ajralmasligini , siydik pufagi tulishi orkali bilish mumkin . Bunday xolatlarda tez tibbiy yordamning asosiy vazifasi xar kanday xolatda siydikni kovukdan ajralishini yaxshilashdir. Kup xollarda ayollarda tugrukdan keyingi davr ogirlik , nokulaylik bilan kechadi. Ayniksa ularda siydik ajralmasligi simptomi kuzatilsa. Mustakil tarzda kovukni bushatish uchun suv okishi ovozi ni eshittirish, grellakar , (isitgich) , jinsiy organlarning tozalanishi va prozerish aralashmasi yordam beradi. Agar yukoridagi usullar yorda bermasa u xolda siydik pufagi kotetirilizatsiyasidan foydalaniladi.

Diurez tushunchasi .

Siydikning xosil bulishi va ajralish jarayoni diurez deb nomlanadi . Bir kun davomida me'yorda odam organizmidan siydik ajralishining umumiy mikdori 1000-1800 ml tashkil etiladi. Lekin bu mikdor fiziologik xolatlar , u yoki bu kasalliklar ta'sirida xam uzgarishi mumkin (ya'ni kamayishi yoki kupayishi mumkin) .

Bu bir kunda 500ml dan kam siydik ajralishi oligoruya kasalligidan dalolat beradi. Bu xastalik kup ter ajratadigan bemorlarda kam suyuqlik ichganda , yurak etishmovchiligi Bilan xastalangan bemorlarda shishlarning paydorbulishi , nefrotik zaxarlar Bilan zaxarlanishlarda kuzatilishi mumkin.

Siydik pufagiga siydik kelishining Tula tuxtashi anupiya deyiladi . siydik chanok yullarining buzilishi (turli xil usimtalarning paydo bulishi) okibitida kuzatiladi. Uz vaktida ya'ti zudlik Bilan tez tibbiy yordam kursatilmasa oda organizmi azot almashinuv maxsulotları Bilan zaxarlanadi va bemorning ulimiga sabab bulishi mumkin buladi.

Anuriyadan – ishuriyani farklay bilik lozim. Ishuriya kovukning siyjik ajrataolmasligi bulib xisoblanadi.

Tez-tez ogrikli , siydikning kin ajralishi «dizurik» uzgarishlar tushunchasida mujasamlanadi. Shuningdek , diurezning buzilishlari siydik ushlay olmasligi (kun davomida yoki fakat kechkurun) enurez xastaligi okibitidir.

Nefrologik amaliyotda tez-tibbiy yordam kursatish xolatları .

Anuriya – siydikning umuman ajralmasligi yoki kam chikishi (bir kunda 50-100 ml) . Sabablari turli xil : buyraklar funktsiyasining buzilishlari , siydik ayiruvining ma'lum bir sabablarga kura izdan chikishi, yoki ekstrarenal faktorlar ta'siridir. Kupincha anuriya buyrak jominingdiffuz uzgrishi bilan boglik. Shu tufayli siydik ajratuvchi organlarning siydik yullari orkali tashkariga chikarib tashlash vazifasi buziladi. Bunday xolatlar buyraklarning utkir yalliglanish jarayonida (glomerulonefrit , ikki tomonli pielonefrit, interstitsional nefrit) yoki xomiladorlik davrida nefropatiyaning ogir kechishi kuzatiladi. Shuningdek, anuriya turli xil infektsiyalar , organizm zaxarlanishlarida buyraklar shikastlanishlarida xam uchraydi. Ogir metallar tuzlari bilan

zaxarlanishlarda , organik zaxarlar , nurlanishlar va boshka ta'sirlar natijasida organizmning shikastlanishlarida xam anuriyani uchratish mumkin. Kuyidagi anuriya, siydik ayirish tizimining shikastlanishi renal (buyrakli) anuriya deb nomlanadi. Ba'zi xollarda anuriya organizmning keskin suvsizlanishi (degidratatsiya) da (masalan, uzok muddatli kusishning okibati, profuz ich ketishlar), kon aylanish tizimining keskin uzgarishida (shok xolati, kollaps, utkir yurak etishmovchiligi) va buyraklarda kon aylanishi tizimining etishmovchiligi (kupincha buyrak arteriyasi va buyrak venasining sikilishi) okibatida tez-tez rivojlanadi. bunday anuriya prerrenal anuriya deb nomlanadi. Lekin anuriyani renal va porenal anuriyaga ajratish shartlidir, chunki u yoki bu anuriyaning paydo bulishiga buyraklardagi kon aylanish tizimi izdan chikishining okibatidir. Agar ayirilgan suyuqlik mikdori keskin kamaysa ya'ni yukori siydik yullarining blokadasi (siydik utkazuvchi naylarning yopilishi , usimtalor orkali bosilishi) ta'sirida xosil buladi . bunday anuriya subrenal anuriya deb nomlanadi.

Ba'zi bir bemorlarda buyrak etishmovchiligi yagona buyrak egaligida xam anuriya paydo bulishi mumkin.

Mazkur anuriya arenal va renopriv anuriya kabi nomlanadi. Anuriya turli xil hollarda o'tkir buyrak yetishmovchiligi belgisidir. Anuriya tashxisi anamnez berilganida (siydik 1 kun davomida ayrilmaydi.) ga asoslanadi va siydik pufagining katetirlanishi natijalariga ko'ra tasdiklanadi. Anuriyaning kelib chiqish sabablarini aniqlash uchun sitoskopiya, siydik yo'llarining katetirlanishi, uralogik- rentgent , radioizotop, ultranurlanishlar natijalari inobatga olinadi. Ba'zida siydikning umuman to'xtashini anuriya deb xatoliklarga yo'l qo'yiladi. Masalan prostate bezining yallig'lanishida, siydik chiqaruv kanalining izdan chiqishida. Bunday hollarda kerakli dori darmonlarni zudlik bilan vaqtida o'tkazish zarur. To'ksik mahsulotlar bilan zaharlanishda unitiol dori vositasini 5 ml dan o'tkaziladi, oshqazon yuviladi, ichaklar tozalanadi. Anuriyaning turli xil ko'rinishlarida bemorlar nefrologik yoki uralogik bo'limlarga tezkorlik bilan yotqizib davolanadi.

Artelyar gipertenziya (A G) bu juda ko'p uchraydigan ikki tomonli buyrak kasalligi. Simptomatik AG o'rtasida o'z o'rniga ega . Ko'pgina hollarda glomerulonefrit, piyelonefrit, vazorenal gipertenziya oqibatida buyrakli arteliar gipertenziya paydo bo'ladi. Bundan tashqari A G buyrak shikastlanishida buyrak glomeruloskleroz , homiladorlik nefropatiyasi, buyrak rivojlanishidagi o'zgarishlar va boshqa xastalıklar oqibatida yuzaga keladi. Buyrak A G dajasi ko'pgina sabablar orqali belgilanadi. Kasallik davomiyligi va uning nozologik ko'rinishi, buyraklarda potalogik jarayonning faolligi va tarqalish darajasi, shuningdek buyrakning funksiyasizligi. Vazorenal gipertenziya bilan kasallangan bemorlarda ko'pgina yomon sifatli A G sindromi rivojlanadi.

Kasallik bosh miya yurak shikastlanishiga olib keladi, ko'pgina hollarda o'limga ham sabab bo'ladi.

Yomon sifatli AG ning tashxisi. Bu kasallik birdaniga boshlanadi va tez rivojlanishi bilan farqlanadi. Arterial bosim sezilarli ko'tariladi.(200-300/ 120-140 mm.rt.st.) Ba'zida miya qon aylanish tizimi funksiyasi ham o'zgarib turadi. Ko'zdagi shoh parda gipertoning o'zgarishlari (qon quyulishlar, ko'z xiralashuvi) rivojlanadi. Ko'pincha o'tkir chap oshqozonli yetishmovchiligi, kardial astma, o'pka shishlari, yurak urushi tizimining buzulishi, holarlari ham kuzatiladi. Kam hollarda infarct miokjardasi ham rivojlanadi. Yomon sifatli arteliar gipertenziyaning asosiy klinik ko'rinishi buyrak yetishmovchiligi kasalligining tezkor suratlarda rivojlanishi.

Bajariladigan ishlar. Tez tibbiy yordam ko'rsatish holatlarida arterial bosimni pasaytirish uchun giperstad (diazoksid) 150-300 mg li 20 ml 10- 20% glukoza aralashmasiga, 0,01 % 1ml li klofelin 2, 5 % li (pentalin 5 % li 0,5 ml li 20 ml li 10-20 %) ga glukoza aralashmasi yoki natriy xloridning izotonik aralashmasi tomirga o'tkaziladi. Hamma vaqt arterial bosim nazorat ostiga olinishi lozim. Agar A / B tezkorlik bilan ko'tarilsa o'tkir chap qorincha yetishmovchiligi

kuzatilishi mumkin. Bunda siydik ajratuvchi vositalardan foydalanish darkor: 2-4 ml lazeks (tomirga) tezkor yordam ko'satish jarayoni bajarilgandan so'ng, bemorni kardiologik yoki nefriologik bo'limga yotqizish lozim.

Gematuriya (eritrotsituriya) .

Ushbu xastalik eritrotsitlarning siydik bilan patologik ravishda ayirilishi. Eritrotsitlarning rivojlanishi va tarkalishiga kura mikrogematuriyaga ajratadilar. Bunda siydik rangi makroskopik uzgarmaydi , makrogematuriyada esa siydik rangi tuk kizil ranga buyaladi. Gematuriya deyarli utki rva surunkali glomerulonefrit bilan xastalangan bemorlarning kupchiligida uchraydi.

Ig A- nefropatiyasi (Berje kasalligi) da gematuriya uchrab turadi. Gematuriya turli darajalari buyrak va siydik chikarish tizimi kasalliklarida paydo buladi: utki rva surunkali , odatda kalkulyozli nielonefrit , , buyrak usmalari gemorragik sistitlar, siydik tosh kasalligi , fornikal kon ketishi , shikastlanishlar, Gudpascher sindromi , gemolitik- uremik sindromlar , tugunchali periartrit, bakterial endokardit va xokazolar. Makrogematuriya kupincha buyrak usimtalari va siydik tosh kasalligiga chalingan bemorlarda uchraydi. Keyinchalik esa utki rva surunkali glomerulonefrit va pielonefrit paydo buladi. Gematuriya kiska muddatli va utuvchan , vakt-vakti bilan paydo buladigan va utaydigan turlarga bulinadi. Shuningdek , u uzok muddatli , ya'ni bir necha yillar xam davom etishi mumkin. Paydo bulish joyi , xolatiga karab gematuriyani buyrakli (zonal) , bir yoki ikkitomonlama postrenalga ajratish mumkin.

Xudi shunday ogrikli va ogriksiz gematuriyani xam ajratish mumkin. 60% ortik bemorlarda urologik xastaliklar okibatida gematuriya paydo buladi. Ogrikli gematuriya buyrak kolikasi , siydik tosh kasalligi , siydik tizimida usimtalar parchalanishida , fronikal kon ketishida paydo buladi. Ogriksiz gematuriya nefropatiyada paydo buladi.

Gematuriya turli xil darajada vujudga keladi va kuyidagi kasalliklarda kuzatiladi: utkirva surunkali palkulyoz pielonefritlarda, gemorragik isitma, buyrak sili va usmasi, gemorragik sistit, buyrak-tosh kasalliklari, fornikal kon ketishlar, buyrak infarkti, travmalari, sistemali vaskulitlarda, buyrakning ikkilamchi jaroxatlanishi (gemorragik kapillyarotoksikoz – Sheynleyn-Genox kasalligi, tugunchali periartrit, Vegenera granulematozi), sistemali kizil buricha, Gudpascher sindromi, gemalitiko-uremik sindrom, utkir osti bakterial endokardit, trombotsitopeniya – Verlgof kasalligi, gemofiliya, jigarning ogir jaroxatlanishi, shuningdek antikoagulyantlar dozasi oshib ketgan xolatlarda.

Makrogematuriya kupincha buyrak va siydik pufagi usma kasalligida, buyrak sili, gemorragik papilarotoksikoz antikoagulyantlar dozasi oshib ketgan xollarda kuzatiladi. Buyrak sanchigi xuruji vaktida va undan keyin makrogematuriya boshlanishi siydik yullari shillik kavatining konirementlar ta'sirida jaroxatlanishi bilan boglik. Makrogematuriya kam xollarda utki rva surunkali glomerulonefrit va pielonefritda kuzatiladi. Gematuriyalar kiska muddatli, utib ketuvchi, davriy va intermitterlovchi xarakatlarda buladi. Gematuriya ba'zan turgun, davomli, bir necha oylab va yillib kechishi mumkin. Gematuriyalar xosil bulish joyiga kura bulinadi: buyrakka alokador ((renal) bir tomonlama va ikki tomonlama xamda siydik yullariga alokador (postrenal). Shuningdek ogrikli va ogriksiz gematuriyalar farklanadi. Ogrikli gematuriyalar buyrak tosh kasalliklarida, shuningdek siydik yullari emiriluvchi usmalarida kon laxtalarining chikishida va fornikal kon ketishlarda kuzatiladi. U buyrak infarkti, lyumbalgik-gematuriya sindromi va siydik yullari, buyrakning turli xil kasalliklarida xam kuzatiladi.

Ogriksiz gematuriyalar turli xil nefropatiyalar uchun xarakterli. Glomerulonefritda mikrogematuriyaning paydo bulishi koptokcha kapillyarlarining bazal membranasining utkazuvchanligining oshishi va ularning teshiklarini diametrini oshishi bilan boglik. Ogir darajadagi glomerulonefritlarda kuchli gematuriya, ba'zan makrogematuriya kuzatiladi. Bu koptokcha kapillyarlarning bir necha joyidan yorilishi va u erdan konning Shumlyanskiy-Boumen kapsulasi bushligiga tushishi bilan boglik va bu erdan kanalchalar bushligiga tushgan eritrotsitlar

reabsorbtsiyalanmaydi va natijada siydik Bilan chikadi. Buyrak va siydik yullari usmasi va buyrak silida gematuriyaning xosil bulishi buyrak tukimasinring emirilishi va kon tomirlarining jaroxatlanishi bilan boglik.

Taktika. Kuchli va turgun makrogematuriyada bemorga shoshilinch yordam kursatish zarur. Bundakaltsiy preparatlari (kaltsiy xlorid yoki kaltsiy glyukonat 10 x 10,0 tomir ichiga), vikasol 1 x 1,0 mushak orasiga, ditsinon 12,5 x 2,0 mushak orasiga in'ektsiya kilinadi.

Agar gematukriya antikoagulyantlar dozasi oshib ketganda kuzatilgan bulsa, darxol tuxtatish zarur. Makrogematuriya kuzatilgan bulsa urologiya va nefrologiya bulimlariga gospitalizatsiya kilinishi kerak.

Utkir buyrak etishmovchiligi (UBE)

UBE – bu kiska vakt (bir necha soat yoki kun) mobaynida buyrakda kuchli ishemiya va toksik ta'sirlar tufayli buyrak parenximasining jaroxatlanishi natijasida buyrakning siydik chikarish funksiyasining tuxtashi va moddalar almashinuvi oxirgi maxsulotlarning konda ushlanib kolishi Bilan kechadigan ogir xolati. Xisoblashlarga karaganda dune buyicha urtacha bir million odamdan 40 tasida UBE kuzatiladi. UBE sabablariga kura 3 ga bulinadi: prerenal, renal va postrenal.

Prerenal UBE ning kelib chikishi umumiy gemodinamikaning buzilishi va aylanib yuruvchi kon xajmining kamayishi Bilan boglik. Buyrak orkali utadigan kon xajmi kamaysa, azot almashinuvining oxirgi maxsulotlaridan kon etarlicha tozalay olmaydi. Dori-darmonlardan UBE kelib chikishi kup uchraydi. Bulardan amminoglikozidlar (gentamitsin, kanamitsin, sulfanilamidlar), nosteroid yalliglanishga Karshi vositalar, i-APF preparatlari (koptopril) va boshkalar. Uzoq davom etgan gemadinamik buzilishlar natijasida prerenal UBE renal UBE ga aylanib ketadi. Renal UBE da buyrak parenximasining ogir darajasi va buyrak funksiyalarining tezda buzilishi kuzatiladi. Postrenal UBE sindromi yullarining tosh Bilan obstruktsiya bulishi, strukturasi tugma, anamaliyasi, prostata bezining adenomasi, siydik yullarining usmasi va boshkalar natijasida siydik chikarishning buzilishi Bilan boglik.

Diagnostikasi. Eng avvalo siydik pufagida siydik bor yoki yukligini aniklash zarur (perkutor usul, UTT yordamida va kateterizatsiya usuli bilan). Undan sung konda mochevina, protenin va kaliy mikdorini aniklash kerak. Eritrotsitlar koldigi va oksil silindrlarining bulishi koptokchalar jaroxatlanganligini kursatadi, kuplab xujayra detritlari va tubulyar silindrlar kanalchalar nekrozidan, polimorf yadroli leykotsitlar va EOS tubulointeretitsial infarktdan, kristaluriya esa kanalchalar ichi blokadasidan darak beradi. UBE klinik 4 fazaga bulinadi: boshlangich, oligouriya (anuriya), diurezning tiklanishi vat ulik sogayishi.

Boshlangich fazasining davomiyligi va bemor xolatining ogirligi UBE ning asosiy sababiga boglik. Axvoli engil kasallarda bu faza unchalik bilinmaydi, ogir bemorlarda esa sutkalab va undan kup davom etadi.

Oligourik faza 9-10 kun davom etadi, ba'zi bemorlarda esa davomiyligi 4 xaftadan oshadi, bu ikki tomonlama portenal nekroz rivojlanishidan darak beradi. Bu fazada siydik chikishi tezda kamayadi (anuriya darajasiga), siydik tuk rangda bulib, tarkibida kuplab oksil, silindrlar va eritrotsitlar buladi. Siydikning solishtirma ogirligi normada (siydikning osmolyarligi plazmaning osmolyarligidan oshmaydi). Bemorlar ishtaxaning yukolganligidan, kungil aynishi, kusish, ich ketishining kabziyat Bilan almashinib turishidan shikoyat kiladi. Sepsis va boshka asoratlar kushilganda uykuhanligi, psixoz xolatlari rivojlanib, talvasalar kuzatilib, normaga tushadi. UBE da oshkozon va ichak shillik kavatiga eroziya va yaralar paydo bulganligi uchun oshkozon-ichak traktidan kon ketishi kuzatiladi. Kon taxlilida kuchayib boruvchi anemiya, leykotsitoz, EChTning oshishi, giperazotemiya, giperglikemiya, metabolik atsidoz aniklanadi.

Diurezning tiklanish fazasi 5-10 kun davom etadi, bunda diurez kuchayadi, bemorning umumiy axvoli yaxshilanadi, proteinuriya kamayadi. Renin buyrak kanalchalarining

konsentratsion funktsiyasi asta-sekinlik bilan tiklanadi. Shuning uchun poliuriya bilan birga siydikning nisbiy zichligi kamayadi, keyinchalik gipoglikemiya, giponatremiya va gipoxloridriya kuzatiladi.

Taktika va davolash. Bemor shoshilinch ravishda gemodializ bulimiga yoki reanimatsiya bulimiga gospitalizatsiya kilinib, kompleks davo chora-tadbirlari kilinishi zarur. Kup xollarda 90% bemorlarda nefronekroz rivojlanganda shok vujudga keladi va UBE shoka Karshi chora-tadbirlar etakchi urinda turadi. Oksilsiz dieta tavsiya kilinadi. Kaloriya 1500-2000 kkalG`sut bulishi kerak. Aktiv terapiya metodi UBE ning etiologiyasi, shakli va darajasiga karab aniklanadi. Postrenal UBE da birinchi navbatda obstruktsiyasi yukotiladi, siydikning normal mikdorini tiklash kerak. prerenal UBE da terapevtik yullanma tomir etishmovchiligining yoki gipovolemiya dorilarni tuxtatishga (nosteroid yalliglanishga karshi, i-APF, sanidimun) karatilishi kerak. Bemorlarni shokdan chikarish uchun yukori dozasi vena ichiga steroidlar, deistranlar (poli, reopoliglyunin), kon plazmasi, albumini vena ichiga tomchilab yuboriladi. kon yukotilganda eritrotsitar massa kuyiladi. Giponetremiya va degidratatsiyada tuzli eritmalar tomir ichiga tomchilab yuboriladi. transfuziyaning barcha turlarida diurez va markaziy venoz bosimni nazorat kilib turish kerak. Kon bosimi va aylanib yuruvchi kon xajmi stabillashgandan sung uzok vakt davomida (6-24 soat) furosemid bilan dopaminni tomir ichiga yuboriladi, bu esa buyrak kon tomirlar spazmini (vazorenal spazm) kamaytiraldi. Konservativ davoni davomiyligi 2-3 sutka buladi, agar sezilarli uzgarishlar bulmasa, kata dozada furosemid va manetol silindrik UBE ni gemodializga olishga kursatmalar:

- 1 kuchli ifodalangan gipermetabolizm, (konda mochevina sutkasida 15-20 mgG`dan oshishi kuchayib boruvchi giperkaliemiya va metabolik atsedidoz).
2. ogir xujayra ichi gipergidrotatsiyasi
3. tulik real anuriya
4. UBE ning kaytmas kechishi (xavfli gepertoniya gipolitiko-uremik sindrom).

Prognosi va asoratlari

UBE da akusher ginekologik formasida letallik darajasi – 20%, doridan zaxarlanishda – 50%, travma va xirurgik poeratsiyalarda – 70%, poliorgan etishmovchiligida – 80-100% buladi.

Renal UBE dan kura prenatal va postrenal UBE da prognoz yaxshirok. Infektsiya kushilganda (sepsis) va kari yoshdagi bemorlarda prognozi yomon buladi. Bemorni surunkali gemodializga utkazish 1-3% xollarda kuzatiladi. Oxirgi yillarda xronizatsiya foizi yukorirok (15-18%) UBE ning kamdan-kam uchraydigan asoratlariga siydik yullari infeksiyasi va pielonefrit, surunkali buyrak etishmovchiligi.

Shish. Buyrak kasalliklarida gipertoniya va siydik sindromi bilan birgalikda shish xam kup uchraydi. Shish ayniksa utki rva surunkali glomerulonefritlarda, xomiladorlik nefropatiyasida, buyrak amiloidozida, diabetik glomerulosklerozda kup uchraydi. Shishning darajasi turlicha buladi – yuz va oyok boldir soxasida shishinkirish (pastozli xolat) dan butun tanaga massiv shish bulishigacha, astsit, gidrotoraks, gidroperikard belgilari bilan anasarka kurinishgida buladi. Kupincha bemorlarda organizmda 15-20 kg.gacha suyuklik yigiladi. Yurak shishlaridan farkli ravishda buyrak shishlarida asosan shishlar yuzda, tana, oyok, kullarda uchraydi. Yurak shishlar kupincha boldir-tovon soxasida kuzatiladi. Utkir glomerulonefritda shish tezda rivojlanadi, surunkali glomerulonefritda esa sekinlik bilan rivojlanadi.

Taktika va davosi. Massiv shishlar rivojlanganda bemor nefrologik bulimlariga yotkizilib, shoshilinch ravishda diurezning kuchayishi va shishni kamaytirishga Karshi chora-tadbirlar utkazilishi kerak. Shu maksadda diuretiklar-furosemid (laziks) 60 mgdan – 300-400 mgG`sut.gacha mushak orasiga yoki vena ichiga in'ektsiya silindr, gipotiazid – 100-150 mgG`sut, furosemid 2-3 tabletkag`sut antagonist aldosteron (kaliy saklovchi) – veroshpiron, shuningdek osmouretiklar – mannitol 0,5 gG`kg 150-200 ml distillangan suvga (yoki 20% - 200,0 mannitol vena ichiga tomchilab 3-5 kun), 40% glyukoza, reopoliglyunin vena ichiga tomchilab yuborioadi.

Diuretiklar bilan birgalikda kaliy preparatlari (panangin , kaliy xlor , kaliy orotat) kullananiladi va kaliyga boy ovkatlar (uzum , urik) ni kup iste'mol kilish kerak . natriy xlor (osh tuzi) va kup mikdorda suv kabul kilish mann etiladi.

Buyrak sanchigi . Buyrak tosh kasalliklarida buyrak sanchigini anik kechishini kurish mumkin , bu xolat kupincha siydik yullarining yukori kismida konkrementlar tikilib kolganda kuzatiladi. Bundan tashkari siydik yullarining kon laxtasi , shillik bilan obturatsiyassi va siydik yullarining bukilishlarida xam buyrak sanchigi kuzatiladi .

Diagnostikasi . Ung yoki chap bel soxasida xurujsimon ogriklar bulishi va bu ogriklarning korinning pastki kismiga , chov soxalariga , jinsiy organlar soxasiga tarkaladigan ogrik xarakterlanadi . ogriklar bilan birgalikda tana xaroratining kutarilishi , dizurik uzgarishlar , ba'zida kungil aynishi , kayt kilish xam kuzatilishi mumkin.

Kup xollarda ogrik xurujlaridan sung gematuriya (makrogematuriya) kuzatiladi, sababi: buyrak jomchasining shillik kavatining , siydik yullarining shillik kavatlarining komkrementlari ta'sirida travmatizitsiyasi jomcha ichida birdaniga bosimning oshishi tufayli fornikal tur venalarining yorilishi natijasidir . Kanchaliik konkremetnlar siylik yullarining pastki kismida bulsa , dizurik uzgarishlar shunchalik kuchli nomoyon buladi. Agar konkrement siydik yulining intramural kismiga tushsa tez-tez siysh kuzatiladi. Buyrak sanchigining patognomonik belgisi – konkementning ajralib chikishi va ogrik xurujining yukolishidir . Nefrolitiaz tashxisi uchun anamnez , bemorning shikoyatlari , siydikni labarator tekshirish , (gematuriya, leykotsituriya , protenuriya) UTT va siydik yullarini va buyrak rentgenologik tekshirish kerak .

Buyrak sanchigini utkir appenditsit , xoletsistit , pankreatit, oshkozon va 12 barmokli ichak yarasining teshilishi , bachadondan tashkari xomiladorlik differentsial tashxislanadi.

Taktika va davosi . Buyrak sanchigi bulgan bemorlar urologik yoki xirurgik bulimlarda gospitalizatsiya kilinadi. Buyrak sanchigini yukotish uchun issik muolajalar (vannaga utirish, be soxasiga issik kuyish (grelka) , spazmolitiklar analgetiklar : boralgin 5,0 vG`i mG`o, analgin 50% 2,0 no-shpa 2,0 otropin sulfat 0,1 % - 0,5-0,1tG`oplatifilin 0,2% -2,0 tG`o . Xajmi jixatdan katta bulgan uz-uzidan chikmaydigan toshlar operativ usul bilan davolanadi. Agar buyrak sanchigiga va korin bushligi utkir kasalliklarda shubxa kilinganda , norkotiklar (omnupon , morfin prmedol) kilish maksadga muvofik emas .

Eklampsiya (angeospastik entsefalopatiya) – utkir glomerulonefritning ogir asoratlaridan biri bulib, 1% larda uchraydi. Bu xolat kupincha utkir glomerulonefritda massiv shish bulganda bemor tuz va suyukliklarni kup iste'mol kilganda kuzatiladi . Patogeneziga kura angeospastik entsefalopatiyaning asosida bosh miya arteriyasining birdaniga spazmga uchrashi (gipertonik kriz) natijasida ishemiik (gipoksiya) ning rivojlanib kala suyagi ichida va orka miya kanalida bosimning oshishi (350 mm suv.ust.gacha) yotadi.

Diagnostika . Klinikasida kuchli bosh ogrishi kon bosimining oshishi (220G`120-180G`100 mm.sim. ust.va undan yukori) kuzatiladi.Talvasa dastlab tonik tipda , keyinchalik esa ilonik tipda buladi . Kuz korachigi kengaygan , ogizdan kupikli suyuklik chikishi , ba'zan tili lishlangan vaktida pushti rangdagi kupik chikadi . Puls sekinlashgan 60 ta 11 . Talvasa bir necha soniyadan 2-3 dakikagacha davom etadi va tusatdan tugaydi . Bir kun davomida talvasalar bir necha marta takrorlanishi mumkin. Talvasadan sung bemor kedi, lekin atrof – muxitni yomon xis kiladi va vokeani eslay olmaydi . , (retrograd amnezis) , uykuhan loxas buladi . Ba'zan xurujdan sung bemor kuchli kuzgaladi , jaxildor buladi. Bemor sakraydi , yuguradi Ba'zan derazadan chikib ketadi . Engil darajadagi buyrak eklampsiyasida bemor xushini yukotadi , lekin talvasa kuzatilmaydi , ularda aloxida mushaklarning titrashi , kurishining yukolishi (amavrez) , bosh ogrishi kuzatiladi – bu eklampsiyaning abortiv shaklidir. Orka miya kanaliga punktsiya kilishganda ignadan yukori bosimda tizillab suyuklik chikadi va shuning natijasida talvasa tuxtaydi.

Eklampsiya xuruji ba'zan letik asorat Bilan tugaydi . Bosh miyaning xayot uchun zarur plazmalariga kon kuyish va utkir korincha etishmovchiligi ulim sababi bulishi mumkin.

Taktika va davosi . Tez ta'sir kiluvchi gipotenziv preparatlar (pantalinning 5% li eritmasi vG`i, benzogeksanid 2,5% 2,0 mG`o , klofelin 0,01 % 1,0 mG`o, dibazol 1 % 4-5,0 vG`i sekin) yuboriladi.

Eufillin 2, 4 % 1,00 eritmasini 20% 20 ml glyukoza bilan vena ichiga , diuretiklar furosemid 100 – 300 mg vG`i, yurak glikozidlari (korglikon , strofantin) .

Talvasa kaytalanaversa efir – kislorodli narkoz yoki xloralgidratni mikroplazma kilish (0,5-1g 100 mg suvga) . xuruj yukotilgandan sung bemorlar nefrologik (terapevtik) bulimlarga yotkiziladi . Oxirgi 10 yil ichida statsionar sharoitda eklamsik xurujini oldini olish uchu norka miya punktsiyasi kilinib orka miya kanal iva bosh miya ichi bosimini kamaytirish ya'ni eklamprsiyaning sababi bartaraf kilinadi .

Muammoli masalalar

1. Kechasi bemor yaxshi ovkatlanadi 15- 30 minu utgandan keyin kusish boshlandi. Bemorning anamnezida oshkozon yara kasalligi aniklandi. Bemorning pulsi va nafas olishi tezlashgan . Kusugi kofe rangida , oshkozon atrofida ogrik sezyapti.

Xamshira tashxisi ?

kanday yordam berasiz ?

2. Xamshira passiv yotgan bemorga el xaydovchi naychani utkazadi. 2 soat utkazgandan keyin xamshira nayni olishga keladi, lekin bemor xamshiradan naychani olmaslikni iltimos kiladi.

1. Bemorni iltimosini bajarasizmi ?

3. Ogir yotgan bemorning ichak perestaltikasi kasallangan Natijada ichaklarda gaz tuplanish boshlangan .Xakim xamshiraga el naychasini bemorga kuyishni tavsiya kildi.. Xamshira naychani bemorga utkazdi.

1. Gaz ajralganligini kanday tekshirasiz?

4. Miokart infarkti bilan kasallangan bemorning rangi va kuz shillik kavatlari okargan . Terisini sovuk ter koplagan , oyok - kullari sovuk , Tirnoklari kukargan.

AG`B pasaydi , puls tezlashib ipsimon buldi.

1 . Bu belgilar kanday kasallikdan dalolat beradi.?

2. Xamshira taktikasi ?

5. Miokart infarktiga uchragan bemorga yurak soxasiga bir nechta zuluk kuyildi.. Ular olingandan sung jaroxatlardan uzok vaktgacha kon okish kuzatildi.

Sababi nima ?

Xamshira xatosi bormi ?

6. Buyrak va siydik yullarida kasallik bor tufayli bemorning diurezi kamaydi. Natijada organizmda toksinlar tuplanishi vujudga keldi.

Bemorga kaysi parhez stoli buyuriladi va kanday ovkatlantirasiz ?

7. Vazomotor riniti bor, toshma toshgan va yukori nafas yullari yalliglangan bemor nafas kisishidan va kuruk yutaldan shikoyat kilgan .Tetratsik lin ichganda terisiga toshma toshib , kichishi aniklangan . Upka eshitib kurulganda nafas chikarishi chuzilgan , yotkizib ikala upka eshitib kurulganda xushtaksimom kuruk xirrilash eshitiladi. Tifno ursatgichi -50 % . Berotek Bilan ingyalyatsiya kilingandan keyin tifno kursatgichi 55 % bulgan . Kondagi eozinofillar soni 12%, leykotsitlar 11×10^9 l teng.

Bronxospazmga nima sabab bulgan ?

8. 32 yoshli bemor K. kuruk yutal va ozginajismoniy zurikkan xansirab kolishdan shikoyat kiladi . Ob'ektiv tekshirganda – ichki a'zolar kattalashganligi va ozgina pnevmoskleroz belgilari kurinadi.

1. kaysi kasallikka uxshaydi?

2. Tashxisni tasdiklash uchun kanday kushimcha tekshirishlar utkazish kerak ?

9. 1948 yilda tugilgan bemor pulmonologiya bulimida yukori nafas yuli davolanmokda edi. Birdan bemorning axvoli yomonlashdi : kuruk yutala boshdi. Ob'ektiv tekshirganda : bemor majburiy xolatni egallagan , akrotsinzon kuzatiladi.Upka auskultatsiyasida kuruk xushtaksimov tovush eshitaladi. AG`B 20G`80 mm sm ust .pulsi 1 00 1 dakikada. Balgam azmoishida : eozinofillar , Krushman spirallari va Sharko – Leyden tayokchalari topiladi.

1. Xamshira tashxisi

Kanday shoshilinch yordam kursatasiz?

10. 38 yoshdagi bemor 7 kun oldin bodomcha bezlarini yalliglanishi bilan kasallangan edi. Bemorda birdaniga bosh ogrik , yuzlarida , kovoklarida shishlar paydo buldi, ajraladigan siydikning rangi gusht yuvgan suyuklikka uxshaydi.

1. sizning tashxisingiz ?

Xamshira taktikasi ?

11. Nefrologiya bulimiga yuz iva badaniga bulgan shishlar ayol keltirildi..

Kateterni utkazganda utmay koldi.

Sizning taktikangiz ?

Kaysi kasalliklarni oldini olishingiz kerak ?

12. 14 yoshli bemor kasalxonada 5 kun davomida « kuzikorindan zaxarlangan» tashxisi bilan davolanmokda lekin butun bemorda oliguriya xolati kuzatiladi. Terisi kuruk, kul panjalarida ozgina shish borligi aniklandi .

1.Bemorga kanday xolat kuzatiladi.?

2. Tibbiy taktikasi ?

13. Bemor 32 yoshda . Ichki kasalliklar bulimida davolinayapti . Vrvch kursatmasiga asoslanib, bemorning oshkozoni yuvishimiz kerak . Oshkozoni yuvish uchun bemorga zondni yutkizamiz. Zondni oshkozonga yutkizganimizda kasalning rangi kukarib , nafasi kisila boshladi.

Xamshira tashxisi ?

Sizning taktikangiz ?

Asoratlarning oldini olish yullari ?

14. Bemor 42 yoshda , kasalxonada davolanayapti .Upkasi shamollagan . Xamshira sistema yordamida , bemorga llyukoza eritmasini venaga yuborishni boshladi.

Bir oz utmasdan bemorda titrab –kakshash boshlandi , bel soxasida ogriklar , badanida kichishlar , kovaklarida shishi paydo buldi , tana xarorati 38- 39 darajaga kutarildi.

1.Bemorga nima buldi?

2. Kanday yordam kursatasiz?

15. Kon kupayb ketgan bemorda xamshira xakim kursatmasiga binoan bemorni utkazib kon chikarishni boshladi , birdaniga bemorning rangi okarib ketdi, sovuk ter bosti.

Sizning tashxisingiz?

Birinchi yordamni kursating ?